



**Shuxrat BOYMURODOV,**  
*Qarshi Xalqaro universiteti dotsenti, PhD*  
*E-mail:Boymurodov75@gmail.com*

*QarMII professori Yu.A.Ergasheva taqrizi asosida*

## MUSTAQILLIKNING DASLABKI YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMI MODDIY-TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI

### Annotatsiya

Mamlakat ta'lismizidagi mayjud holatni, kadrlar tayyorlash jarayoni respublikada amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar. Ta'lismu muassasalarining o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallar bilan to'liq ta'minoti, ta'lismu muassasalarining moddiy-texnika salohiyati va axborot bilan ta'minlanganlik darajasi, kasb-hunar kollejlarning maddiy-texnika bazasini rivojlanishi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** o'rta bo'g'in, o'rta maxsus ta'limi, ta'lismi islohatlar, "Ta'lismi to'g'risida"gi qonun, moddiy-texnika, kichik mutaxassis.

## STRENGTHENING THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF THE SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION SYSTEM IN THE FIRST YEARS OF INDEPENDENCE

### Annotation

The current situation in the country's education system, the process of personnel training, democratic changes implemented in the republic. The complete supply of educational institutions with educational and scientific literature and didactic materials, the material and technical potential of educational institutions and the level of information provision, the development of the material and technical base of vocational colleges were analyzed.

**Key words:** secondary education, secondary special education, educational reforms, law on education, material-technical junior specialist.

## УКРЕПЛЕНИЕ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ СИСТЕМЫ СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

### Аннотация

Текущая ситуация в системе образования страны, процесс подготовки кадров, осуществляемые в республике демократические преобразования. Проанализированы комплектность образовательных учреждений учебной и научной литературой и дидактическими материалами, материально-технический потенциал образовательных учреждений и уровень информационного обеспечения, развитие материально-технической базы профессиональных колледжей.

**Ключевые слова:** среднее образование, среднее специальное образование, образовательная реформа, закон об образовании, младший специалист по материально-техническому обеспечению.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lismi soxasining barcha bo'g'inlarida olib borilayotgan islohotlar yoshlarni qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilim va etuk mutaxassis etib tarbiyalash, qaratilgan. Albatta, mamlakatimiz ta'lismi tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar e'tiborga molik.

Mustaqillik sharoitda uzuksiz ta'lismi tizimida o'rta maxsus ta'lismi, sohasi sezilarli darajada o'zgardi, tizimda yangi bilimlarni o'zlashtirgan, aniq kasblar sohasidagi innovatsion imkoniyatlar doirasini tushunadigan kadrlar talab qilina boshladi. Ular xo'jalik va ishlab chiqarish masalalarini nafaqat malakali hal qiluvchi, balki to'g'ri qaror qabul qiluvchi tahliliy layoqatlarga ega bo'lishlari kerakligi O'zbekistonning zamonaviy sanoatlashgan dunyoga integratsiyalashishiga bo'lgan intilishi undan mehnat bozorining tez o'zgarayotgan ehtiyojlariga moslasha oladigan ta'lismi tizimini yaratishni talab qiladi. Ta'lismu muassasalarini rivojlantirish va ular tomonidan sifatli ta'lismi xizmatlarini ko'rsatish zarur bo'lib qoldi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada O'zbekistonda o'rta maxsus ta'lismi sohasidagi islohotlari va uning ahamiyatini qabul qilingan tarixiy va sotsiologik metodlar – tizimli tahlil,

qiyyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, funksional yondashuv, qiyyosimantiqiylik, tahliliy, ketma-ketlik, xolislik, ob'ektivlik tamoyillari asosida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ijobji dinamikasi va global axborot jamiyatini shakllantirishda yuqori malakali va innovatsion texnologiyalarga ega bo'lgan yuqori va o'rta darajadagi mutaxassislar ehtiyoj tug'diradi.

1996 yildan boshlab respublika iqtisodiyotining yuqori malakali ishchi kadrlarga bo'lgan talablarini to'laroq qondirish, kasbga o'qitishning uzuksizligini ta'minlash, ishchi kadrlarni uzuksiz tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Eng avvalo qishloq joylarda mehnat bozorini shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-teknika ta'limi qayta tashkil etishga kirishildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida bu tizimda jami 221 ming kishini ta'lim bilan qamrab olgan 442 o'quv yurti, shu jumladan, 209 kasb-hunar maktabi, 180 kasb-hunar litseyi va 53 biznes-maktab faoliyati yo'liga qo'yilgan edi. 1996 yilga kelib boshlang'ich kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlarida qariyb 20 ming o'qituvchi va malakali mutaxassislar ishlagan bo'lsa, respublikada jami 197 ming kishi ta'lim olayotgan 258 o'rta

kasb-hunar ta'limi o'quv yurti ishlab ularda qariyb 16 ming o'qituvchi va muhandis-pedagog xodimlar mehnat qilgan[1]. Ta'lim islohotlarining jadallahuvni bu yo'nalihsda izchillik hamda uzliksizlikni ta'minlashga xizmat qiladigan yangi qonun qabul qilinishni taqozo etayotgan bir vaqtida mamlakat miqyosida ta'lim tarbiya, ilm fan, kasb-hunar o'rgatish sohalarini isloq qilishga niroyatda katta zarurat sezila boshladi.

1997 yil 10 martda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish to'g'risida qaror qabul qildi. Ta'lim sohasidagi milliy tajribaning tahlili shuni ko'rsatadiki yoshlarни kasb-xunarga o'rgatish, ta'lim uzliksizligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga kutarilishining huquqiy asoslar yaratib berilishi kerak edi.

Zaruratdan kelib chiqib "Ta'lim tag'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi [2], qabul qilindi. Bu dastur ta'lim tizimida mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan xalos etish, Rivojlangan mamlakatlar darajasida yuksak malakali kadrlar tayyorlash milliy ta'lim tizimini yaratilishga huquqiy zamin yaratib berilishi ko'zda tutilgan edi.

Eng avvalo yangi tipdag'i kasb-xunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxassislar nomeklaturasi islohotlar va iqtisodiyotda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlarga moslashtirildi. Natijada 1998 yil 5 yanvarda "Uzlusiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida" qarorlari qabul qilindi. Ularning akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini amaliyotiqa joriy etilishi 1999-2000 o'quv yilidan boshlab bosqichma bosqich amalga oshirildi. 2010-2012 o'quv yili davomida xalqaro va milliy tajriba asosida umumta'lim fanlari bo'yicha 16 ta standart ishlab chiqildi.

1998 yil 23 sentyabrda akademik litsey va kasb-xunar kollejlarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi[3]. Qashqadaryo viloyat o'rta maxsus ta'lim tizimi tahlil qilinganda viloyatda 1998 yilda Yakkabog' kasb-xunar litseyi va Qarshi 2-kasb xunar litseyi rekonstruktsiya qilinib kasb-xunar kollejlariga aylantirildi. 1998-1999 o'quv yilida 452 nafar o'g'il-qiz qabul qilinib yangi o'quv reja va dastur asosida o'quv boshlandi.

Qarshi shaxridagi 5-kasb-xunar maktabi o'quv moddiy-texnika bazasi rekonstruktsiya qilinib akademik litsey tashkil qilindi. Akademik litseyda 200 nafar o'g'il-qiz qabul qilinib o'quv boshlandi. 1999 yilda 7 ta, Koson sanoat, Qarshi iqtisodiyot, madaniyat, qurilish, Qamashi pedagogika, qishloq xo'jalik, Chiroqchi qishloq xo'jalik kasb-xunar kollejlarini tashkil qilindi.

Tahlilar shuni ko'rsatadiki viloyatda 1998-2001 yillarda jami 18493\851 o'rinci 23 ta o'quv yurti shundan 2ta 975\500 o'rinci akademik litsey va 21ta 17520\351 o'rinci kasb hunar kollejlarini uchun jami 18mld 926 mln 176 so'mlik ajratilgan bo'lib shundan 16mld 288mln 555 ming 934 so'mlik qurilish montaj ishlari amalga oshirilgan.

O'rganilayotgan davrda Akademik litsey, kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlash uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan bo'lsada 5 oylik natijalar tahlil qilinganda ayrim kamchiliklar mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan 5 oy ichida Qashqadaryo viloyatida 190270 ming so'mlik kapital mablag' o'zlashtirilgan. Jumladan Qamashi agrobiznes kollejda 15088 ming so'mlik yoki umumiyy hajmga nisbatdan 19 foiz Chiroqchi KXL da 25042 ming so'mlik yoki 20 foizni Qamashi KXLda 30000 ming so'mlik yoki 13 foizni Qarshi 1-KXLda 32545ming so'mlik yoki 29 foiz Qarshi Madaniyat kollejda 32530ming so'mlik yoki 22 foizni [4] tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Dalilardan ko'riniib turibdiki viloyatda rekonstruktsiya ishlari bor-yo'g'i 20 foizni tashkil qilgan. Natijada kasb-hunar

kollejlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar ishlab chiqish zarurati tug'ilgan.

2002 yilga kelib tashkil etilgan kasb hunar kollejlarini zamonoviy texnika va o'quv labaratoriya jihozlari bilan jihozlash uchun Markaz bilan 1mld 104 mln 435 ming so'mlik shartnoma tuzilgan yil davomida 545 mln 108 ming 5888 so'mlik jixozlar shundan ximiy va fizika o'quv xonalariga har xil laboratoriya jihozlari jami 70 komplekt KEX va KEF pas kuchlanishli elektor shitlari, 6ta kasb- hunar kollejlariga zamonoviy kompyuter o'quv sinfi, 2 ta kollej ustaxonasi uchun 36 komplekt durodgorlik verstak, o'quv xonalarini uchun 50 dana kadaskop 28 dona murili pechlari, qishloq xo'jalik texnikalaridan 4 ta pretsep 4ta traktor hamda 2ta "Otayo'l" yuk avtomashinasi va 1ta "DAMAS" rusumli engil avtomashinalar o'quv amaliyotida foydalish uchun ajratilganligi [5] aniqlandi. Tadqiqot natijasida 2003 yilda Qashqadaryo viloyatida milliy dasturning uzliksiz bo'lagi bo'lgan kasb-hunar ta'lim muassasalarining qurilishi tahlil qilinganda shunga duch keldiki 2003 yilda viloyatda jami 10200 o'quvchi o'rniiga muljallangan 20 ta kasb-hunar kollejlarini va akademik litseylarni foydalanishga topshirish rejalshtirilgan bo'lib, ulardan 12 ta ya'ni 8000 o'rinci kasb hunar ta'lim muassasalarini tashkil etilgan [6]. Bulardan 1ta 900 o'rinci yangi qurilish hisobidan 11ta 7100 o'rinci kasb hunar kolleji rekonstruksiya hisobandir. 2003 yil uchun tasdiqlangan davlat byudjeti parametirlariga muvofiq markazlashtirilgan mablag'lar xisobidan viloyat xokimligi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi o'quv muassasalariga etkazib beriladigan o'quv labaratoriya uskululari, texnik vositalar va o'quv ko'rgazmali qurollar uchun ajratilgan mablag'lar tahlil qilinganda 9 oy moboynida 849,7 mln so'm mablag' moliyalashtirilgan bo'lsa, xaqiqatda 420 mln so'm ya'ni 49 foiz uskuna va jixozlar joylarga etkazib berilgan.

2005 yilga kelib viloyatdagagi 59 ta kasb hunar va akademik litseydan 9 tasiga harid qilingan jihozlardan biror dona ham berilmagan, ularning evaziga ayrim ta'lim muassasalariga katta miqdordagi jihozlar ajratilgan misol uchun Qarshi shahridagi qishloq xo'jalik kollejiga 55140,6 ming so'mlik jihoz berilgan, bu esa jami harid qilingan jihozlarning 12 foizni tashkil etadi. Shungdek Qarshi tumanidagi Qovchin qishloq xo'jalik kollejiga 41259,2 ming so'mlik 9 foiz Kitob tumanidagi maishiy xizmat ko'rsatish kollejiga 33171,6 ming so'mlik 7.2 foiz va shu tumandagi qishloq xo'jalik kollejiga berilgan jihozlar xajmi viloyatning 35 foizni tashkil etilganligi ma'lum bo'ldi. Respublikada tashkil etilayotgan ta'lim muassasalarini jahon andozalarini darajasida jihozlashga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bir paytda markaz tasarrufidagi ta'lim muassasalarini jihoz uchun ajratilishi rejalshtirilgan mablag'lar nazoratga olmaganligini ko'rish mumkin.

Shunday bo'lsada o'rta maxsus ta'limini moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ham e'tibor kuchaytirildi. Ta'lim muassasalarini o'quv-laboratoriya jihozlari va texnikalari bilan ta'minlash uchun 2005 yilda mahalliy byudjetdan 16,6 mlrd. so'm, respublika byudjetidan 1,88 mlrd. so'm mablag' ajratilishi rejalshtirildi. 2005 yil 27 dekabr xolatiga akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini zamonoviy o'quv-laboratoriya jihozlari va texnikalari bilan ta'minlash uchun maxalliy byudjetdan 14,5 mlrd. so'm (87%) mablag' ajratildi. 2005 yilda mahalliy budgetdan rejalshtirilgan mablag'lar 900,0 mln. so'mga qisqartirilgan. Respublika budgetidan rejadagi 1,88 mlrd. so'm o'rniiga haqiqatda 1,35 mlrd. so'm (72%) mablag' moliyalashtirildi, bu ko'rsatgich 2004 yilda rejadagi 5,2 mlrd. So'm o'rniiga 4,5 mlrd. so'mni (87%) tashkil etgan. Ushbu mablag'lar hisobiga ta'lim muassasalariga 15,6 mlrd. so'mlik o'quv-laboratoriya jihozlari, asbob-uskunalar, texnikalar, ko'rgazmali qurollar va

kompyuter texnikalari etkazib berildi. 2005 yilning 25 dekabr holatiga 959 ta ta'lif muassasasi 23 mingta kompyuterlar bilan ta'minlangan. Kompyuterlar bilan ta'minlanganlik darajasi 100 o'quvchi o'rniiga nisbatan akademik litseylarda 9,5 ta, kasb-hunar kollejlarda 7,6 ta rejalashtirilgan.

Amalda bu ko'rsatkich mos ravishda 4,6 va 3,6 tani tashkil etadi. Ta'lif muassasalarini kompyuterlar bilan ta'minlanishi talab darajasining 46,9 foizini ko'rsatgan. 2004 yil mahalliylashtirish dasturiga kirgan jihozlar uchun umumiy qiymati 12,1 mlrd. so'mlik shartnomalar imzolanib, korxonalardan 11,8 mlrd. so'mlik (97%) jihozlar sotib olingan.

2005 yilda o'quv laboratoriya asbob-anjomlari, ta'lifning texnik vositalari va o'quv ko'rgazmali qo'llanmalarini ishlab chiqarishni respublika korxonalarida mahalliylashtirish dasturiga kirgan jixozlarning (89,4%) sotib olingen hamda ta'lif muassasalariga etkazib berilgan. 2005 yil 5 dekabr holatiga Markazning ta'minotchi korxonalarga bo'lgan debitorlik qarzi 409,4 mln. so'mni, jumladan mahalliylashtirish dasturi bo'yicha 190,7 mln. so'mni, kreditorlik qarzi 1701,1 mln. so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijasida shu narsaga duch keldik markazdan olingen jihozlar o'rta ta'lif muassasalarini o'rtasida teng taqsimlanmagan uning natijasida kadrlar tayyorlash dasturining amalga oshirishga to'sqinliq qiluvchi ayrim holatlar yuzaga kelgan. Bu hol kasb hunar ta'lifi bir tekvida rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Shuni ta'kidlash kerakki mustaqillikning daslabki yillarda mamlakatimizda yangi tipdag'i kasb-hunar ta'lif muassasalarining ko'rilibotgani va ularning har biriga katta miqdordagi mablag'larning sarflanishi, ikkinchidan respublika hamda mahalliy byudjet mablag'lari ajratilishi bilan chegaralanib qolmay, davlat tomonidan kafolatlangan eng

nufuzli chet el grandlari yoki imtiyozli kreditlar asosida qishloq xo'jaligi, qurilish, maishiy xizmat, sanoat va axborot texnologiyalari sohasidagi ta'lif muassasalarining zamonaviy uskunalar va mini texnologik liniyalar bilan jihozlanishi tom ma'noda o'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi sohasida islohotlar davom ettirildi desak bo'ladi.

**Xulosa.** 1.O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tizimi tomonidan olib borilgan faoliyatning tahlili shuni ko'rsatadi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi davlat tomonidan takomillashtirish hamda yangi sharoitlarga moslashtirish kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni zamonaviy talablar asosida jihozlash, dolzahr masala edi. Shu jihatdan ta'lif sohasidagi daslabki islohotlar, avvalo, qamrovni oshirish, ularning moliyaviy holatini yaxshilash, o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

2. O'rta maxsus ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning manzilli mezonlarini shakllantirish, o'rta maxsus ta'lif muassasalaridagi mutaxassisliklarni hududlar, sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlarini inobatga olish lozim. Birinchisi o'rta maxsus ta'lif muassasalarini ishlab chiqarish bilan hamkorligini kengaytirish uning uzvyligini ta'minlash huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'lsa, ikkinchisi o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib va talabaning amaliyot o'tashi uchun muhit yaratishdir.

3. Kollejlarda o'quv ustaxonalarining sohaga oid eng ilg'or vositalar bilan jihozlangani natijasida bitiruvchilarda o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha etarli bilim va kasbiy ko'nikmalarini o'zlashtirish imkoniyatining kengayib borgan. Ta'lif-tarbiyani jadallashtirishning huquqiy asoslarini yaratilgan bo'lsa-da, ta'lif tarbiya jarayonidagi ish uslublarining ayrimlari hamon eskiligidcha qolib ketmoqda edi.

## ADABIYOTLAR

1. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari Milliy dastur. 1997 yil
2. "Ta'lif to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" 1997 yil avgust.
3. O'zR VMning 1998 yil 23- sentyabrdagi 406- sonli «1999-2005 yillarda akademik litsey va kasb-xunar kollejlarning moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlash dasturi to'g'risida»gi qarori.
4. Qashqadaryo viloyat hokimligi o'rta mahsus kasb hunar ta'lifi boshqarmasi hayat yig'ilishining 1998 yil 23 iyul qarori.
5. Qashqadaryo viloyat hokimligi o'rta mahsus kasb- hunar ta'lifi boshqarmasi hayat yig'ilishining 1999 yil 21 may 5\3sonli qarori.
6. Qashqadaryo viloyat hokimligi o'rta mahsus kasb- hunar ta'lifi boshqarmasi hayat yig'ilishining 2003 yil 3 aprel 2\7 sonli qarori.
7. Qashqadaryo viloyat hokimligi o'rta mahsus kasb -hunar ta'lifi boshqarmasi hayat yig'ilishining 2003 yil 3 dekabr 10\11qarori.
8. Matqurbanov Q. Kadrlar tayyorlash milliy modeli dunyo tajribasi va milliy xususiyatlarimizni o'zida mujassam etgan o'ziga xos noyob hodisa. // «Ma'rifat» gazetasi, 2013 yil 6 fevral.



**Ziyorutdin ILHOMOV,**  
Nizomiy nomidagi TDPU professori, t.f.n  
**Rustam SHUKUROV,**  
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

Shahrisabz DPI v/b dotsenti, tffd (PhD) A.Berdiyev taqrizi asosida

## SAMARQAND TARIXIY GEOGRAFIYASI O'RTA ASR MUALLIFLARI TAVSIFIDA

### Аннотация

Mazkur maqolada Samarqand shahri va atrof hududlarining tarixiy geografiyasiga oid ma'lumotlar o'rta asr mualliflarning tarix hamda geografiyaga oid asarlarida keltirilgan ma'lumotlari asosida yoritib berilmoqda. Unda Samarqand shahrining joylashushi, hududi, tog'lari, daryolari, iqlimi tabiatini hamda shaharning siyosiy jarayonlarga ta'siri masalalarida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Samarqand, asarlar, manbalar, Ko'hak, geografiya, tarixiy geografiya, iqlim, tabiat, hudud, Zarafshan.

## ИСТОРИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ САМАРКАНДА В ОПИСАНИЕ СРЕДНЕВЕКОВЫХ АВТОРОВ

### Аннотация

В данной статье рассказывается об исторической географии города Самарканда и прилегающих территорий на основе сведений, приведенных в трудах средневековых авторов по истории и географии по Средней Азии. Также, рассказывается о расположении города, территории, горах, реках и климате Самарканда, влиянии города на политические процессы в средних веках в Средней Азии.

**Ключевые слова:** Самарканд, историческая произведения, источники, Кохак, география, историческая география, климат, природа, территория, Зарафшан.

## HISTORICAL GEOGRAPHY OF SAMARKAND IN THE DESCRIPTION OF MEDIEVAL AUTHORS

### Annotation

This article talks about the historical geography of the city of Samarkand and surrounding areas based on information given in the works of medieval authors on history and geography of Central Asia. It also tells about the location of the city, territory, mountains, rivers and climate of Samarkand, the influence of the city on political processes in the Middle Ages in Central Asia.

**Keywords:** Samarkand, historical works, sources, Kohak, geography, historical geography, climate, nature, territory, Zarafshan.

**Kirish.** Samarqand asrlar davomida nafaqt butun Sharqning, balki butun insoniyat taraqqiyotining asosiy madaniy, ma'naviy va ilmiy markazlaridan biri sifatida nom taratgan dunyoning eng yirik shaharlaridan biri sanalishiga hech kim shubha qilmaydi. Darhaqiqat, bugungi kungacha Samarqand shahri o'zida namoyon etib turgan qadimiy tarixi, osori atiqalari, me'moriy inshootlari va binolari, ularning mukammalligi va mahobati, tarixning turli davrlarida o'zidan taniqli olimlar va ulamolar, hukmdorlar va sarkadalar, xattotlar, shoirlar va hunarmandlarni yetkazib bergenligi va ularning insoniyat taraqqiyotida o'ziga xos o'ren tutishi Samarqandning qadimiyligi, ulug'verligi, xalqimiz tarixiy taraqqiyotining muhim poydevorlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Samarqand shahrining bino etilishi, shaharsozligi, me'morchiligi, hunarmandchiligi, obodonchiligi, xalqining turmush tarzi, madaniy va ma'naviy hayotiga oid ma'lumotlar barcha davrlarda o'zining dolzarbigini va muhimligini saqlab kelgan va o'rta asrlarning ko'pgina mualliflari bu haqda o'z asarlarida qayd etishga harakat qilganlar.

**Adabiyotlar tahlili.** Ayniqsa, o'rta asr arab sayyohlari, yurtimiz tarixchilar va geograflarining asarlarida Samarqand va unga oid ma'lumotlar alohida e'tibor bilan yozilgan, tavsiflangan va o'zga xalqlar e'tiboriga ham yetkazib berilganligi ularning muhimligini yana bir karra oshiradi. O'rta Osiyo, jumladan Samarqand tarixiy geografiyasiga oid ma'lumotlar keltirilgan asarlar va ularning mualliflari qatorida Hamdulloh ibn Abu Bakr Mustovfiy Qazviniy va uning "Tavorixi guzida" ("Tanlangan tarix") asari [1], Maxmud ibn Vali va uning "Bahr ul-asror fi manoqib ul-

ayxor" asari ("Olijanob kishilarning jasorati haqidagi sirlar dengizi") [2], Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari [3], Sharafuddin Roqimiyning "Tarixi tomm" [4], Abu Tohirxojaning "Samariya" [5], Herman Vamberining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" [6], Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullanova" («Sharafnomayi shohiy») [7] va boshqa qator mualliflarni ko'rsatib o'tish mumkin-ki, ularning ayrimlarida Samarqandning tarixiy geografik joylashushi, o'mi va iqlimi, tabiatni va o'simlik hamda xayvonot dunyosi haqida to'xtalib o'tilgan bo'lsa, ayrimlarida Samarqand shahrining siyosiy jarayonlardagi o'rni va ishtiroti hamda siyosiy jarayonlarga ta'siri kabilar haqida to'xtalib o'tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda O'zbekiston tarixining barcha sohalari, jumladan uning davlatchiligi tarixi, manbushunosligi, tarixiy geografiyasi, toponimikasi va madaniy-ma'naviy hayotiga oid ma'lumotlarni o'rganish, tadqiq etish va ilmiy muomalaga kiritish borasida keng ko'lama amaliy ishlar olib berilmoqda va bunda manbalarning tahlili va tarixiylik jihatlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'rsatilgan mualliflarning asarlarini va ularda keltirilgan ma'lumotlarning tahlili ham mazkur muammoning mazmunidan kelib chiqqan holda amalga oshirildi.

**Tahlil va natijalar.** Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan ham "Boburnoma" asarida Samarqand va unning tarixiy geografiyasiga oid ma'lumotlar garchi boshqa mualliflar kabi keng va batafsil keltirilmagan bo'lsada, biroq unda Samarqandning shu davr siyosiy jarayonlaridagi o'rni va

Samarqand hokimlarining siyosiy jarayonlarga ta'siri kabilar haqida o'z asarida ko'p marta to'xtalib o'tgan. Masalan, bu davr siyosiy jarayonlarida katta ta'sirga ega bo'lgan Toshkent va Samarqandning ta'siri, Toshkent xonlari va temuriy shaxzodalar o'rtasidagi kurash jarayonlari, ularning yuzaga kelishi va borishi kabi ma'lumotlarni ham ko'rsatib o'tadi. – "Umarshayx mirzoning og'asi Samarqand podshohi Sultan Axmad mirzo va mo'g'ul ulusining xoni Sultan Mahmudxon chun Umarshayx mirzoning badmaoshlig'idin mutazarril edilar, bir-birlari bila ittifoq qilib, Sultan Axmad mirzo Sultan Mahmudxonni kuyov qilib, mazkur bo'lgan tarixda [8] Xo'jand suyining janub jonibidin [9] Sultan Ahmad mirzo va shimol tarafidin Sultan Mahmudxon Umarshayx mirzoning ustiga cherik torttilar" [3]. Biroq bu yurish vaqtida o'ttiz to'qqiz yoshda bo'lgan Umarshayx Mirzo Axsidagi qarorgohida tasodif tufayli fojeali halok bo'ladi [3].

Samarqand shahrining o'zi haqida yozib, Bobur uning ayrim tarixiy jihatlarini tavsiflab beradi: - "Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahri kamroqdur. Beshinchchi iqlimindur. ... Shahri Samarkanddur, viloyatini Movarounnaxr derlar, Hech yog'iy qaxr va g'alaba bila munga dast topmagon uchun baldai mahfuza derlar. Samarqand hazrati amirul mo'minin Usmon zamonida muslimmon bo'Ig'ondur. Sahobadin Qusam ibn Abbas anda borgondur. Qabri Oxanin darvozasining toshidadur. Holo mazori Shohg'a mashhurdur. Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semirkand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur, Qo'rg'onini faslining ustidin buyurdumkim, qadam urdilar. O'n ming olti yuz qadam chiqti" [3].

Shuningdek, Amir Temurning bunyodkorlik ishlari hamda Samarqandning Temuriylar davlatidagi o'rnining darajasini ko'rsatib berish maqsadida esa quyidagilarni keltirib o'tadi: -"Temurbek solg'on oliy imoratlardin biri Ko'ksaroydurkim, Samarqandning arkida voqe bo'lubtur. Ajab xosiyatlari imorattur. Temurbek avlodidin har kim bosh ko'tarib taxtqa o'ltursa ham, munda o'lturur. Har kim taxt doiyasi bila bosh qo'ysa ham munda qo'yars, hattokim, kinoyati bo'lur edikim , falon podshohzodani Ko'k saroyg'a chiqordilar, ya'ni o'lturdilar" [3].

Sharafuddin Roqimiy ham o'zining "Tarixi tomm" asarida Shayboniyalar hokimiyatining o'rnatilishi va hukmronligining bogshlanishi jarayonlarini yoritib berish asnosida Samarqand shahrining siyosiy jarayonlardagi o'rni borasida to'xtalib o'tadi: -"Sanayi 936 hijriy (milodiy 1529) yilda ma'mura viloyat Samarqandda Alayka Ko'kaltosh masjidi jome' qurildi. Ushbu oliy masjidda Ko'chkunchixon ibn Abulxayrxon marmar toshdin bir minbar bino qildi. To yetti qavat osmonga minbar qurilgandek. Xatibi g'arqa bundayin imoratni ko'rmagan va eshitmagan" [4].

Keyingi davrlarda Movarounnahrda bo'lgan yevropalik sayohatchi Herman Vamberi ham Samarqandning nisbatan siyosiy jarayonlarga bog'liq ma'lumotlarini ko'rsatib o'tadi, xususan, -"Butun mamlakatning javohiri Samarqand bilan Kesh va Miyonkal, Ayolti bilan birlikda ushbu Mahmud Temurning saltanatiga berildi" [6.6-9], yoki arablarning O'rta Osiyodagi bosqinchilik jarayonlari haqida to'xtalib, -"Buxoro shu yo'l bilan olingach, Sa'id Sharq tarafga, So'g'diyonga ham Samarqand shaharlariga hujum qildi. Usha paytda Samarqandning podshosi yo'q edi. Uni So'g'ddan tayin etilgan turk tarxoni idora qilnb kelgan. Arablar hujum qilib, Samarqandni ham egalladilar... Suh hah etishiga qaramay, ahdnomaga muvofiq, bu yerda solinadigan masjidni qurishni tezlashtirish bahonasi bilan shaharga g'isht teruvchilar o'rniga 4000 qurolli arab kiritildi. Tarxon bu xiyonat uchun intiqom olishni istagach, arablar hujum qildilar. Uni butun tarafdozlari bnlan birga qatl etdilar. Samarqand talandi, g'orat qilindi. Sosoniylarning eng so'nggisi Yazdigardning qizi ham asirlar

orasida edi. U xalifa Valiga yuborildi. G'animat olingan oltin butlar va ularning jihozlar 50 ming misqol og'irlilikda edi" [6].

Samarqand shahri va uning atroflari, unga tutash hududlar va Samarqand bilan bog'liq savdo yo'llari kabilar haqida nisbatan batafsil ma'lumotlar XVIII asr geografi Mahmud ibn Vali tomonidan ko'rsatib o'tilgan. Mahmud ibn Vali Samarqandning o'zi haqida alohida to'xtalib, -"Samarqand - Movarounahrning to'rtinchi iqlimga mansub mashhur shaharlardan biri, biroq ma'lumki, Samarqand ham Movarounahr kabi beshinchchi iqlimdir. ... Samarqand keng va bepoyon hududlari, yaxshi va yoqimli iqlimi va boshqa qulay va taraqqiy etgan jihatlar bilan dunyoning eng yirik shaharlardan biri sanaladi. Mustavfiyning yozishicha, mazkur shaharning iqlimi bir oz sovuqroq, undan oqib o'tuvchi Bo'y daryosi Ko'hak nomi bilan mashhurdir. Ko'p imoratlarda marmar ishlatalgan, marmar shu viloyatning o'zida mavjud. Samarqandning eng yirik qishloqlaridan biri So'g'd hisoblanadi. So'g'd o'zining obodligi va farovonligi tufayli muslimmon olimlarining fikricha, yer yuzidagi to'rtta jannatmonand joylardan biri hisoblanadi. So'g'd ham Ko'xak daryosining bo'yida joylashgan. Samarqand shaharining atrofida Konigil nomi bilan mashhur bo'lgan tekislik bor. Amir Temur ham bu joyini juda yoqtirgan va bo'sh vaqtlarini har doim shu yerda o'tkazgan. Shaharda donli ekinlar va mevalar yaxshi hosil beradi. Mevalardan uzum, gilos hamda olmaning turli nurlari yetishtiriladi. Samarqand shahrining asosiy tovarlari – qog'oz, yashil marmar, yog'och, qurilish ashyolari hamda mevalardir. Avvalgi vaqtarda Samarqandga Ho'jand, O'ratega, Jizzax va boshqa sharqiy viloyatlar tobe bo'lgan. Hozirgi vaqtida unga tobe joylarga Oqko'tal [10] va Sho'rabozer oralig'idagi yerlar kiradi. Sog'ardj [11], Aliobod va Sheror [12] kabi qishloqlar Samarqand atroflaridagi mashhur qishloqlardir [2], - deya ma'lumot berish bilan birga unga tutash va aloqador hududlar haqida ham bayon etadi. Jumladan, Buxoro haqida ma'lumot berib, -"Buxorodan Samarqand shahrigacha olti kunlik yo'l. Butun yo'l bo'ylab hamma joyda obod va farovon joylar, ko'plab bog'larni ko'rish mumkin. Ikki shahar oralig'idagi bu joylarni Miyonkolot [13. 2.109] deb atashadi va bu joy Samarqand bilan tutashib ketgan [2]. Zomin haqida ma'lumo berib, Zominning Samarqandga tobe viloyatlaridan biri ekanligi, uning beshinchchi iqlimdan va qishloqlari va mavzelari juda ko'pligi hamda ob-havosi qulay va yoqimli ekanligi haqida to'xtalib o'tadi [2.48-49]. Kesh xaqida ma'lumot bera turib, uning kengliklari va dalalari bepoyon, chegaralari Chag'oniyon [14] va Samarqand bilan tutashganligini, shuningdek, Keshdan Samarqandga birlgina o'tish yo'li borligini ko'rsatib o'tadi [15].

Bu mualiflar va ularning asarlari orasida Abu Tohirhoja va uning "Samariya" asarini alohida ko'rsatib o'tish joiz. Abu Toxirhoja XIX asrda Samarqandda yashab otgan va XIX asrning 40-yillarida muftiylik lavozimida faoliyat ko'rsatgan. "Samariya" asarida ham mang'itlar hukmronligi yillarda Samarqand va uning atroflaridagi tarixiy jarayonlar, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga ko'plab ma'lumotlar, Muhammad Rahimbiy va amir Shohmurodlarning boshqaruv davridagi amalga oshirilgan ishlar, Shohmurod tomonidan barpo ettirilgan shahardagi 24 ta guzar va ular haqidagi ko'plab ma'lumotlar ko'rsatib berilgan. Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng Abu Toxirhoja Karmanaga ko'chib ketgan va u yerda rais lavozimida faoliyat ko'rsatib, 1874 yilda vafot etgan [16].

"Samariya" asarida Abu Tohirhoja tomonidan Samarqand shahri, uning joylashuvni, tabiatni, iqlimi va sug'orish tizimi, shaharning mavzelari va muqaddas qadamjolari kabi ko'plab ma'lumotlar mukammal tarzda ko'rsatib o'tilgan. Abu Tohirhoja Samarqand hududlari va uning geografik joylashuvni borasida quyidagilarni ko'rsatib

o‘tadi: -“ Samarqand dalasining sharq, shimol va janub tomonlari yuksak tog‘lar bilan qursholgan bo‘lib, g‘apb tomoni ochiq maydondadir. Zarafshonkim uni Ko‘hak va Xaromkom daryosi deydar; kunchiqar tomonidan kunbotar sari bu viloyat dalasining o‘rtasidan oqib o‘tadi va bu viloyat yerini ikkiga bo‘ladi. Daryoning janub tomonidagi yarim bo‘lak boshdan oyoq tepalik va dashtlik bo‘lib, janub tog‘iga borib taqaladi. Shimoldagi yarim bo‘lak pastlik va suvloqdir [5]. Shaharning o‘zining o‘rnashgan joyi, uning daryolari va yerining holati haqida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi: -“ Samarqand shahrining qo‘rg‘oni daryoning janub tomonidadir. Samarqand shaxrining tashqarisidagi yerlar o‘rni e’tibori bilan ikkiga bo‘linadi: kunbotar tomonidagi yarim bo‘lagini Anhor tumani va kunchiqar tomonidagisini Shovdor tumani deydarlar. Daryoning shimol tomonidagi yerlar ham ikki bo‘lakdir: Birinchisi suvloq, ikkinchisi dashtlik. Suvloq bo‘lagi boshdan oyoq Ko‘hak daryosiga tutash bo‘lib, u ham ikkiga bo‘linadi: kunchiqardagi bo‘laklari Sug‘udi kalon tumani va kunbotardagi yarmisini Ofarinkent tumani deb ataydilar. Dashtlik va suvsiz bo‘lagi Kubot tumani deb atladi va bu dashtlik bo‘lak boshdan oyoq shimol tog‘iga yondoshdir” [5]. Sharax va uning atrofi, tabiat va iqlimi, ob-havosiga oid ma’lumotlarni, o‘rab turgan tog‘lar, ulardag‘i o‘simlik va ba‘zida xayvonot dunyosi haqida ham qimmatli ma’lumotlar berilib, ayni vaqtida o‘rtas asr toponomikasiga oid ma’lumolarni ham olish mumkin: -“ Janub tomonidagi tog‘lar juda obod bo‘lib, unda daraxtlar ko‘p o‘sadi. Mevalardan: olma, pista, olu, do‘lana, uzum va yong‘oq u tog‘da ko‘pdir. O‘simliklardan: lola, rivoch, garafsh, yabruj (piyozi ansul/ansur), go‘rdiyo va egir bu tog‘da topiladi. Xayvonlardan: do‘ng‘uz, ayiq, bo‘ri, tulki, tovushqon, jayra va shog‘ol bor. Ov qushlaridan: kabki dariy (kaklik), buldurq - qorabag‘ir, (kabki hilol) ushbu tog‘da ko‘pdir. Bunda ma’dan va kon narsalarining borlig‘i belgili emas. Lekin ushbu tog‘ning kunbotarida oltin va kumush bilan shuvaganga uxshash yarqiraydigan bir turli tosh bor. Undan xech nima ajratib olib bo‘imas. Uni chaqmoq toshning jinsidan deydarlar. Bu tog‘ning ajoyibidan bir buлоq bordirkim, suvi qish vaqtida juda qaynoq bo‘lib, saraton oyida boshdan oyok muzlaydi. Kunchiqar tomonidagi tog‘ ham oboddir. Janubiy tog‘ bilan sharqiy tog‘ oralaridan Zarafshon daryosi oqib chiqadi” [5]... Zarafshon daryosining bir manba‘i ushbu ko‘l bo‘lib, tevaragi bir toshdir [17]. ... Ko‘hak tog‘I [18] Samarqand shahri va Zarafshon daryosi orasida, shaharning shimoliy tomonidadir. Ushbu tog‘da daraxtlar va buлоqlar bor” [5].

Samarqand shahrining atrofidagi sug‘orish tizimlari, shaharning suv bilan ta‘mrnlaydigan daryolari va ariqlari haqida ham Abu Tohirhoja tomonidan qimmatli ma’lumotlar ko‘rsatib o‘tiladi: -“ Zarafshon daryosikim, uni Ko‘hak daryosi deb yuritadilar, boshlab kunchiqar tog‘laridan chiqib, unga Iskandar bulog‘i - Iskandar ko‘lining suvi va Maschoh tog‘laridan chiqadigan buлоqlar qo‘shiladi. Boshqa suvlari va buлоqlar bilan birikib, daryo bo‘lib Buxoro va Qaroko‘lgacha borib yetadi. Ko‘hak daryosining [19] uzunligi 120 tosh (farsax)dir [20].

#### ADABIYOTLAR

- Ilhomov Z.A. O‘rta Osiyo xonliklari tarixiy geografiyasi. Toshkent. «Bookmany print» nashriyoti 2024.
- Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Ташкент, «Фан». 1977.
- Захириддин Мұхаммад Бобур. Бобурнома. -Т.: Йолдузча. 1989.
- Шарафуддин Рокимий. Тарихи Томм. Тошкент. «Маънавият». 1998.
- Абу Тохирхожа. «Самария». (Қайта ишланган ва тўлдирилган нашрига масъул Ш.Вохидов, Б.Аминов). Тошкент: «Янги аср авлоди». 2009.
- Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Тошкент Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1990
- Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома («Шарафномайи шоҳий»). Биринчи китоб; Форс тилидан С.Мирзаев тарж.; Сўз боши ва изохлар муаллифи: Б. Ахмедов. —Т.: «Шарқ», 1999. 416 б.
- 1494 yil nazarda tutilmoqda.

Darg‘am arig‘i [21] - boshi Ko‘hak daryosidan ajralib, Samarqand shahrining ichi va toshi, Shavdor va Anhor tumanlarini sug‘orib, ortiqchasi Ko‘hak daryosiga qo‘shiladi. Shahar bog‘lari va bo‘stonlari ushbu ariqdan yashil va tozadir.

Siyaxob (Qorasuv) arig‘i — boshlab bir talay buлоqlardan paydo bo‘lib, Koniglacha oqib keladi. Unda ikkiga bo‘linib, birinchi bo‘lagi Ko‘hak daryosiga oqib ketadi va ikkinchi bo‘lagi ikki shaxobchaga ajralib, birinchi butog‘ikim, Obi rahmat otaladi, Samarqand shahriniig shimolidagi bog‘larga: Moturiya, Bog‘i baland va Bog‘i maydonga sarf bo‘ladi. Derlarkim, Obi rahmat arig‘ini Amir Muhojir Ko‘hak tog‘ining janub etagida qozib oqizgandir” [5].

Keyingi davr tarixchilar tomonidan ham Samarqand shahri va uning holati, XVIII asrda shaharda yuzaga kelgan tushkunlik holati, keyinchali amir Shohmurod tomonidan shaharning qayta tiklanishi va obodonlashtirilishiga oid ham bir qator ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. -“Samarqandning hozirgi obodonchiligi, - deb yozgan edi S.Ayniy bu haqda, 1780 yil, ya‘ni Shohmurodbiyning bekligidan boshlangan bo‘lib, 1809 yillarda bir shahar yo‘simga kirgizildi. Bu Shohmurodbiyning aholini ko‘chirib joylashtirish siyosati bilan bogliq edi. Buning natijasida O‘ratepa, Xovos, Toshkent, Andijon, Kattaqo‘rg‘on, Termiz va boshqa yerlardan aholining Samarqandga majburiy ko‘chirib keltirilishi shaharning rivojlanishiga sabab bo‘ldi” [22]. Shohmurod davrida Buxoro va Samarqandda ko‘lab madrasalar, masjidlar, xonaqolar va turli binolar qurilgan. Xususan, Zarafshon vodisidagi dehqonchilikka katta e’tibor qaratilib, Zarafshon daryosidan turli ariqlar - Qozonariq, Toyman arig‘i, To‘g‘uzariq, Oqdaryo va Qoradaryodan yangi ariqlar chiqarilgan hamda boshqa sug‘orish inshootlari qurilgan. Shohmurodning o‘zi Samarqandni qayta qurish tarkini chizgan. Shohmurod shaharda 24 ta mavze qurib, mamlakatning sharqiy viloyatlardan bu yerga aholini ko‘chirib keltirgan. G‘uzorda madrasa va masjid qurdirgan. Shuningdek, Shohmurod hukmronligi yillarda Doniyolby davrida boshlangan Xalifa Xudoyodod majmuasi qurilishi davom ettilrilgan [23].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o‘rnida aytish kerakki, nafaqat O‘rta Osiyoning o‘rta asr tarixchilar, geograflari, balki sharqning ko‘pgina tarixchilar, sayohatchilar va geograflari, shuningdek Yevropaning bir qator sayohatchilar tomonidan O‘rta Osiyoning barcha shaharlari, xususan, Samarqand shahri, uning tarixi va tarixiy geografiyasi, siyosiy jarayonlardagi o‘rni va ta’siri, shaharsozligi, me’moriy obidalari va ma’naviy hayotiga oida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan-ki, ular bugungi kunda shahar tarixi va uning insoniyat madaniy taraqqiyotining rivojiga qo‘shgan hissasini o‘rganishda muhim manbalar bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir. Ayni vaqtida alohida ta‘kidlash kerakki, bu kabi ma’lumotlar asosida darsliklarning xrestomatiyalari ham yaratilsa, ta‘lim oluvchilarning tarix fanlari bo‘yicha bilimlari va tasavvurlarining yanada boy va keng hamda mukammal bo‘lishiga xizmat qilardi.

9. Xo'jand suyining janub jonibidin - Sirdaryo nazarda tutilmoqda, ya'ni Sulton Ahmad mirzo hozirgi Ho'jand atroflaridan, Sulton Mahmudxon esa taxminan hozirgi bekobod atroflaridan yurishi qilganligi ko'rsatilmoqda.
10. Oqko'tal – Boysun atroflarida joylashgan mavzelardan.
11. Sog'ardj - Sogardj - bu Samarqand yaqinida joylashgan mavze. Sog'ardjda islom olamida mashhur bo'lgan Shayx Burxoniddin Sog'ardjiy yashagan, uning maqbarasi ham shu erda. XIV asrning 70-yillarda Amir Temur sultanatining markazi hisoblangan Samarqand shahar Arki tomonidan jangdagi Toshqo'rg'on - chaqar orasini bog'lovchi mashhur Shohruhshoh ko'chani ochish vaqtida yuzaga chiqqan Sog'ardjiy qabriga bog'lab, mahobatlilik baland maqbara tiklangan. Amir Temur tomonidan uning maqbarasi ta'minoti atrofidagi bog'lar vaqf qilib berilgan. Hozirgi kunda bu joy Ruhobod deb ataladi.
12. Sheroz qishlog'i – Temuriylar davriga oid bo'lgan qishloqlardan biri bo'lib, hozirgi Bulung'ur tumanining Bolg'ali qishlog'i yaqinidagi qadimgi qal'a.
13. Miyonkolot – asarda Miyonkolotga Zarafshon daryosining o'rta oqimida joylashgan, Oqdaryo va Qoradaryo daryolari oralig'ida shakllangan, uzunligi 100 km ga teng keladigan orol deb ta'rif berilgan.
14. Chag'oniyon - (arab. Sag'oniyon) - Surxondaryo (Chag'onrud)ning o'rta va yuqori oqimi bo'yalarida joylashgan tarixiy-madaniy viloyat. 630 yilga oid qayd etilgan Syuan Szan tegishli hudijatlarda ilk marta tilga olingan. I-III asrlarda Chag'oniyon Kushon podsholigi tarkibiga kirgan. Chag'oniyonning iqtisodi va madaniyati bu davrda ravnaq topgan, ko'plab shahar va qishloklar vujudga kelgan, tovar-pul munosabatlari, sug'orma dehqonchilik, turli kasb-hunarlar, tasviriy va amaliy rivojlangan. V asr ikkinchi yarmi – VI asrda Chag'oniyon Eftaliylar davlati, keyinchalik Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan. VI asr ikkinchi yarmi – VIII asr ikkinchi yarmida Chag'oniyon mahalliy sulola tomnoidan boshqarilib, raman Toxaristonning oliy hukmdorlari - turkiy yabg'ularga bo'ysungan. Chag'oniyon hukmdorlari xidevlar yoki chag'oxnudotlar deb yuritilgan. X asrda Somoniylar davlati, XI asr birinchi yarmida Qoraxoniylar, XI asr ikkinchi yarmi - XII asr birinchi yarmida Saljuqiylar, XIII asr boshlarigacha qoraxoniylar, qarluqlar, g'uriylar, xorazmshoxlar tarkibida bo'lgan. XIII ikkinchi choragidan boshlab Chig'atoxonning nabirasi Yesun Tuvanining, so'ngra uning o'g'li Barokning meroziy mulkiga aylangan. Bu davrda Yangi shahar ilgarigi rabod o'mida vujudga kelib XVI asr boshlarigacha mavjud bo'lgan, shu davrda Shayboniyxon tomonidan egallangan.
15. Taxti qoracha dovonи haqida aytيلاتган bo'lishi mumkin.
16. Илхомов З.А. Ўзбекистон тарихи. Тошкент, "Наврўз", 2021 йил; Ilhomov Z.A. O'zbekiston tarixi (XVI-XX asr boshlari). Тошкент, "Innovatsiya-Ziyo", 2022 йил
17. Aylanasi 1 toshga teng demoqchi, 1 tosh - 6-8 chaqirimga teng, taxminan 8 km ga yaqin masofaga teng keladi.
18. Ko'hak tog'i (fors. - kichik tog') – Zarafshon tizmasidagi kichik tog', tepalik. Samarqand shahri yaqinidagi CHo'ponota tepaligining qadimiy nomi. Arab geograflari Yoqut Hamaviy, Istaxriy, Ibn Xavqal asarlarida Jabali Ko'hak ("Ko'hak tog'i") nomi bilan qayd etilgan.
19. Ko'hak etagidan oqib o'tgan Zarafshon daryosi o'rta asrlarda shu tepalik nomi bilan Ko'hak daryosi (obi Ko'hak, Ko'hak suyi) deb atalgan. Yunon tarixchisi va geografi Kvint Kursiy Ruf Ko'hak, ya'ni Zarafshon daryosini "Politimet", fors tilidagi manbalarda Rudi Mosaf, Rudi Sharg' deyilgan, arabcha manbalarda esa Haramkom - "Muqaddas daryo", Vodiy us-Sug'd, Nahr ul-Buxoro kabi nomlari qayd etilgan, tarixchi olim Narshaxiy Zarafshonni Rudizar, gohida Haromkom deb atagan va Boykandga oqib borishimi ta'kidlagan. Boykand esa to'qay va kattako'lga tutashadi. Bu ko'lni Bargin, Farix, Qorako'l deb atalishini ko'rsatib o'tgan. Jayxoni (X asr) esa bu ko'lni Somchan deb ataydi. Buxoro suvining ortiqchasi o'sha joyga yig'ilishini ko'rsatadi, tarixchi olim Hofizu Obro' esa Ko'hak suvi ko'p bo'lgan yillarda Amudaryogacha yetib borganligini ta'kidlaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida daryoni Obi Ko'hak deb ko'rsatib o'tgan bo'lsa, keyinroq Daryoyi Ko'hak, XVIII asr manbalarida esa Zarafshon daryosi sifatida tilga olinadi.
20. 120 tosh – Abu Toxirxojaning ko'rsatishicha daryoning uzunligi 907 km ga teng bo'ladi, biroq zamonaviy manbalarda Zarafshon darayosining uzunligi 877 km etib ko'rsatilgan.
21. Darg'om kanali – Zarafshon daryosidan boshlanadi, Ravotxo'ja qishlog'i yaqinidagi to'g'ondan boshlanib, Ulus cho'ligacha davom etadi. Tarixiy manbalarda kanalning miloddan avvalgi V-IV asrlarda, Toshkent atroflaridagi Bo'zsuv va Zax ariqlari bilan bir vaqtida qazilganligi qayd qilingan. Klavdiy Ptolomey tomonidan II asrda tuzilgan xaritada Darg'om arig'i «Dargomaniy» tarzida ko'rsatiladi. Darg'om kanali Yangi Darg'om, Eski Darg'om va Aylanma Darg'om kanallarini o'z ichiga oladi. Darg'om kanalining uzunligi 100 km ga teng.
22. Мукимов З. Ўзбекистон давлати ва хукуқи тарихи. Т.: -Адолат-, 2003.
23. Ilhomov Z.A. O'zbekiston tarixi (XVI-XX asr boshlari). Тошкент, "Innovatsiya-Ziyo", 2022 йил.



**Shoira INDIAMINOVA,**  
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti  
E-mail: shoira.indiamanova1986@gmail.com

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Yaxshilikov taqrizi asosida

## SAMARQAND SUG'DI SHAHARSOZLIK VA ARXETIKTURA RIVOJINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqlolada arxeologik va tarixiy tadqiqotlarga asoslangan holda Samarqand So'g'dining ilk o'rta asrlardagi hayoti va rivojlanishiga o'ziga xos nuqtai nazar berilgan, uning madaniy, iqtisodiy va intellektual taraqqiyot markazi sifatidagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Samarqand So'g'di, ilk o'rta asrlar, shahar rejalashtirish, arxitektura, madaniy xilma-xillik, savdo, ta'lim, hunarmandchilik ishlab chiqarish, intellektual almashinuv, iqtisodiy o'sish.

## ОСОБЕННОСТИ ГОРДСКОГО И АРХИТЕКТУРНОГО РАЗВИТИЯ САМАРКАНДСКОГО СОГДИ

Аннотация

В статье представлен уникальный взгляд на жизнь и развитие Самаркандского Согда в эпоху раннего средневековья, основанный на археологических и исторических исследованиях, и подчеркнута его значимость как центра культурного, экономического и интеллектуального развития.

**Ключевые слова:** Самаркандский Согд, раннее средневековье, градостроительство, архитектура, культурное многообразие, торговля, образование, ремесленное производство, интеллектуальный обмен, экономический рост.

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF URBAN AND ARCHITECTURAL DEVELOPMENT OF SAMARKAND SUGDI

Annotation

The article presents a unique look at the life and development of Samarkand Sogd in the early Middle Ages, based on archaeological and historical research, and emphasizes its significance as a center of cultural, economic and intellectual development.

**Key words:** Samarkand Sogd, early Middle Ages, urban planning, architecture, cultural diversity, trade, education, craft production, intellectual exchange, economic growth.

**Kirish.** Samarqand dunyodagi eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, uning tarixi va me'morchiligi ming yillarga borib taqaladi. Samarqand shaharsozlik va arxitekturasining o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan uning boy tarixi, madaniy merosi va geografik joylashuvi bilan belgilanadi. Samarqand shaharsozlikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning tarixiy markazi bo'lib, bu yerda qadim zamonalardan to hozirgi kungacha ko'plab me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan. Ushbu markaz YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan va turli uslublar va davrlarning o'ziga xos kombinatsiyasini ifodalaydi.

Samarqand me'morchiligi o'z tarixi davomida duch kelgan turli madaniyat va davrlarning ta'sirini aks ettiradi. Bu yerda qadimiy fors, yunon, rim, arab va turkiy halqlar me'morchilik elementlarini, shuningdek, mahalliy sharoit va madaniy an'analar ta'sirida rivojlangan o'ziga xos mahalliy uslublarni uchratish mumkin.

Samarqand arxitekturasi va shaharsozlikning muhim jihatni uning tabiiy muhit bilan integratsiyalashuvdir. Shahar Zarafshon daryosi vodiysidagi unumdar vodiyya joylashgan bo'lib, u suv resurslaridan foydalananish va dehqonchilik uchun qulay sharoit yaratadi. Atrofdagi landshaft, jumladan, tog'lar va unumdar vodiylar ham shaharning me'moriy ko'rinishiga va uning tashkil etilishiga ta'sir qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sug'd tarixini o'rganishda asosiy manbalaridan biri arxeologik materiallardir. Samarqand Sug'dida asosiy arxeologik tadqiqot ishlariuning poytaxti Afrosiyob shaharida olib boriladi. Afrosiyob va boshqa bir qancha arxeologik yodgorliklar: V.L. Vyatkin, A.Yu. Yakubovskiy, G.V. Grigorev, A.I. Terenojkin, Ya. G'ulomov,

B.Ya. Staviskiy, M.X. Urmanova, V.A. Shishkin, Yu.F. Buryakov, O.M. Rostovsevva Sh.S. Toshxodjayevlar tomonidan tadqiq qilingan. O'zbekiston arxeologiyasida marosim inshootlari – ibodatxonalar, nauslar va muqaddas joylarni qazishishlari izchillik bilan olib borildi. Bunday majmualar XX asrning 40 - 50 yillarda Xorazmda S.P. Tolstov, Buxorodagi buxor xudotlar saroyi – Varaxshada V.A. Shishkinva Markaziy Sug'd-Panjikentda A.Yu. Yakubovskiylar tomonidan o'rganilgan. XX asrning 50 – yillarda Panjikentda shahar ibodatxonasi ochildi va undan topilgan arxeologik materiallar asosida Markaziy Osiyoning musulmonlikkacha bo'lgan mafkurasini yoritishda keng foydalanildi. 1947-1953 yillarda Panjikentda A.M. Beleniskiy va A.I. Terenojkinlar tomonidan saroy ichkarisidagi ikkitा monumental ibodatxona ochiladi. A.Yu. Yakubovskiy qazishmalarining dastlabki natijalarini tahlil qildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Milodiy I ming yillikning birinchi yarmida Samarqandda siyosiy va iqtisodiy omillarga qarab o'zgarishlarga uchragan tuzilma shakllandi.

Milodiy III - IV asrlarda Samarqanda, Afrasiyob shahristoni hududida, shaharning janubi-g'arbiy qismidagi sobiq aholi manzilgohlari o'rnida katta nekropol tashkil etilgan va shundan so'ng ikki qator qal'a devorlaridan iborat kuchli shahar istehkomlari qurilgan va atrofi ikki halqa ariqlar bilan o'ralgan. Yangi mudofaa chizig'i sobiq shahar hududining faqat uchdan bir qismini o'z ichiga oldi. Shahar hajmining qisqarishi fuqarolarning chiqib ketishi bilan bog'liq bo'lgan. Olimlarning fikricha, milodiy IV-V asrlardan boshlab cho'l mintaqalaridan aholi shaharga kirib kelishi natijasida shahar madaniyati rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar

kuzatiladi. Kidariylar davrida Samarqandda yangi istehkom qurish ishlari olib boriladi. Shahar qal'asi sezilarli darajada rekonstruksiya qilinadi va mustahkamlanadi [1].

Aynan shu davrda Qovunchi va Jetisar madaniyatiga mansub kishilarning salmoqli guruhlari Sirdaryoning o'ng qirg'og'idan janubga, jumladan, So'g'dga ko'chib kela boshlagan. R.Sulaymonovning fikricha, bu jarayonda kattakichik qasr va mulklar vujudga kelgan. Ehtimol, milodiy IV asrning ikkinchi yarmida, Afrasiyobdan taxminan 6-8 km masofada bir nechta qishloq aholi manzillari paydo bo'la boshladi: Qizlartepa, Erontepa, Tali Barzu va boshqalar. V asrning birinchi yarmidan bu yerda aholi yashash manzillari kengayib borgan. Ulardan eng kattasi Afrasiyobning shimoli - sharqida, Cho'ponota etagida joylashgan Qizlartepa edi [3]. Qal'a IV-VIII asrlarda mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, shahar talabari bo'yicha qurilgan edi. Qizlartepa Samarcand hukmdorining qarorgohi bo'lgan, deb hisoblanadi.

Ilk o'rta asrlarda Samarcand So'g'di O'rta Osiyoning muhim madaniyi va savdo markazi sifatida gullab-yashnagan. U Ipak yo'lining sharq va g'arbni bog'lovchi savdo yo'llarida asosiy o'rin tutgan, turli madaniyat va sivilizatsiyalarning integratsiyalashgan markazi bo'lgan.

Ilk o'rta asrlarda shaharsozlikning asosiy elementi markaziy shahar hududi bo'lib, uning atrofida ma'muriy va savdo binolari, masjidlar, hammom va bozorlar joylashgan. V-VI asrlarda Afrosiyobning markaziy qismida qasr qurilgan bo'lib uning o'rniда esa VII – asrga kelibsaroy binosi qurilgan. U 16 ta katta zal va 4 ta kichik xonadan iborat bo'lgan. Xom g'isht va paxsadan qurilgan binolarning o'lchamlari 3x4 dan 10x8 m gacha bo'lgan [2].

Ilk o'rta asrlarda Samarcand So'g'd me'morchiliginining o'ziga xos xususiyati mahalliy materiallarni va qurilish texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, turli uslub va an'analarning uyg'unligi edi. Binolar loy, tosh va yog'ochdan qurilgan bo'lib, fasad va interyerni bezash uchun g'isht va dekorativ keramikadan foydalangan. Ularning aksariyatida gumbazlar, arklar va mineralar kabi Markaziy Osiyoga xos me'moriy elementlar mavjud bo'lib, bu binolarga o'ziga xos sharqona ko'rinish bergen.

VII - VIII asrlarda arablarning yurishlari avj organligi sababli Samarcand shahar atrofining janubi-g'arbiy va g'arbiy qismlari muhim strategik ob'yektlar hisoblangan. Shuning uchun bu erda bir nechta qal'alar qurilgan. Arxeologlar ikkita qasr: Zargartepa va Sara-tepani (hozirgi Sara-tepa hududida, Samarcandning janubi-g'arbida) o'rgandilar. Zargartepa to'rt burchakli minorali ikki qavatlari kvadrat qasr bo'lgan. Qal'ada ibodatxona bo'lib, uning devorlari anor daraxti va uning mevalari tasvirlangan rasmlar bilan bezatilgan. Qal'a arablar bosqini bilan bog'liq voqealarni boshidan kechirgan, ammo oxir-oqibat X asrning o'talarida tashlab ketilgan. Saratepa ikki qavatlari kvadrat qal'a bo'lib, VIII-XII asrlarda mavjud bo'lgan [4].

Samarcand So'g'dida ilk o'rta asrlarning eng mashhur me'moriy yodgorliklari orasida ta'lif, diniy ibodat va madaniy almashinuv markazlari bo'lib xizmat qilgan masjidlar, maqbaralar va madrasalar bor edi. Bu davrning eng mashhur yodgorliklaridan biri XI - XV asrlarda qurilgan ko'plab maqbara va masjidlardan iborat Shohi -Zinda majmuasidir.

VII asrda Samarcandning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi shaharlar va janubiy hududlarning rivojlanishida aks etgan. Shahar hayotining yuksalishi va shu bilan bog'liq holda, shahar yaqinidagi hududning (to'rtinchchi qal'a devori ichida) jadal rivojlanishi arxeologik materiallarda o'z aksini topgan. VII asrning o'talariga kelib, Samarcand allaqachon qadimiy shahar darajasiga yetib borgandi [5]. U So'g'd va Movarounnaxning eng yirik shahriga aylandi. Qal'aning xarobalari ustida, shaharning markaziy qismida saroy majmuasi qurilgan. Shu bilan birga , shahar eski (ikkinci

qal'a devori ichida) va yangi (ilgari shahar ) qismlarga yoki ichki va tashqi qismga bo'lingan. So'g'd tilida shahar va qishloqni belgilash uchun ikkita atama ishlatalgan: "kent" va "qand" [6].

VIII-IX asrlarda, boshqa islam mamlakatlari singari, bu davrda maydon - shahar maydoni, ehtimol qal'a oldida joylashgan. Ilk o'rta asrlarda Samarcandda keng mudofaa devori bilan himoyalangan shahar atrofida - rabodlar bo'lgan.

Taxminlarga ko'ra, shahar uchta ochiq kanal: markaziy, g'arbiy va sharqiy kanallar orqali suv bilan ta'minlangan, ulardan bir nechta kichik sug'orish tarmoqlari chiqib ketgan. Shaharda arablargacha bo'lgan davrda ko'p katta sardobalar bo'lgan, markaziy kanalning kengligi 6 metr, chuqurligi 70-80 sm bo'lgan. VII-VIII asrlarda suv quvurlari vazifasini o'taydigan quvur limiyalari qurilgan. Quvurlar uzunligi 40-60 sm, kirish diametri 18-21 sm va chiqish diametri 11-16 sm bo'lgan pishirilgan loydan yasalgan quvurlar qadimgi davrda qurilgan [7].

Ko'riniib turibdiki, Samarcandning o'rta asr ko'chalari asosan qadimiy ko'chalar bo'ylab yotqizilgan. Ko'chalar xuddi ariqlar singari janubdan shimolga qarab magistral kanallar bo'ylab cho'zilgan. Bundan tashqari, shaharning asosiy darvozalari ham yo'llar bilan bog'langan.

Umuman olganda, Samarcand So'g'dining ilk o'rta asrlardagi shaharsozlik va me'morchiligi uning mintaqadagi madaniyat va savdo markazi sifatidagi ahamiyatini aks ettirgan. Ular turli madaniyat va sivilizatsiya elementlarini birlashtirib, ushbu qadimiy shaharning o'ziga xos qiyofasini yaratdi.

Ilk Samarcand So'g'd me'morchiligining yana bir muhim xususiyati innovatsion muhandislik yechimlari va qurilish texnologiyalaridan foydalanish edi. Ko'pgina binolar zilzilalar va boshqa tabiiy ofatlarga chidamli bo'lishga imkon beruvchi ark va gumbazli inshootardan foydalangan holda qurilgan.

Madaniy almashev va boshqa sivilizatsiyalar bilan o'zaro aloqalar ilk o'rta asrlarda Samarcand So'g'dining me'morchiligi va shaharsozlik ishlariga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Fors, Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalari bilan aloqalar turli me'morchilik usulublari va texnologiyalarining o'tkazilishi va moslashuviga yordam berdi, bu esa shaharning o'ziga xos me'moriy qiyofasini shakllanishiga olib keldi.

Shahar O'rta Osiyo iqtisodiyoti va madaniyatining eng muhim markaziga aylandi. Afrasiyob hududida arxeologlar VII-VIII asrlarga oid monumental binolar qoldiqlarini aniqlab, o'rganishgan (Ixshidlar, Nasr ibn Sayyor, Abu Muslim saroylari) [8].

712 yili Qutayba ibn Muslim Samarcandni bosib olgandan keyin masjidlarning faol qurilishi va islam dinining keng yoyilishi boshlandi. Rivoyatlarga ko'ra, shahardagi birinchi masjid Kesh darvozasidagi zamonaviy Xazrat-Xizr masjidi o'nida qurilgan. U Muhammad ibn Vosiy deb atalgan. Yaqin atrofida Banu Nahiya shahrining birinchi musulmon qabristoniga asos solingen. Rivoyatlarga ko'ra, Samarcandning birinchi masjidida Qutayba ibn Muslim bilan Samarcandga yurishida birga bo'lgan faqih shoir, muhaddis Abu Amr Omir ibn Sharoxil ash-Sha'bey kufiy (640/651 - 722/727) namoz o'qiydi [9].

740 yilda qal'aning g'arbida Xurosondagi Ummaviylar sulolasining so'nggi hokimi Nasr ibn Sayyorning (738-748) uzunligi 115 metr, eni 84 metr bo'lgan 50x45 metrli ochiq hovli perimetri bo'ylab qurilgan saroyi bo'lgan. Ikki qavatlari binoning tashqi devorlari qalinligi 4,2 metr bo'lib, burchaklarida dumaloq minoralar joylashgan. Xonalarning pollari pishiq g'isht bilan qoplangan. Saroyning o'zi katta ehtimol bilan so'g'dlik me'morlar tomonidan qurilgan. 760 yillarning oxirida Nasr ibn Sayyor saroyi o'rnida masjid

qurilib, keyinchalik Samarqandning asosiy juma masjidiga aylandi. Masjid yonida ilk abbosiylar davriga oid maqbara qurilgan bo'lib, u avliyolar uchun mo'ljallangan.

751-752 yillarda Abu Muslimning tashabbusi bilan qal'aning quyi qismidagi eski so'g'd binolari vayron qilingan va o'lchami 75x65 m bo'lgan ma'muriy saroy qurilgan bo'lib, me'mor Xurosandan yoki xalifalik hududlari markazidan taklif qilingan va qurilish uslubi sosoniy an'analariiga o'xshash bo'lgan. Samarqanddagi hokim saroyi muslimmon arxitekturasining yangi turini ifodalagan va mintaqadagi eng qadimgi muslimmon jamoat binosi edi. Bu Samarqandning yangi tipdag'i madaniyat va boshqaruv tizimiga moslashganiga misoldir. Ko'rinish turibdiki, Abu Muslim Samarqandda yirik qurilish loyihasini rejalashtirgan bo'lsa kerak, bu shaharni xalifalik davlat tizimiga integratsiyalashgan Sharqdagi qo'rg'onga aylantirish bo'yicha uning umumiy dasturiniring bir qismi bo'lsa kerak. Shubhasiz, shahar mintaqaning ma'muriy nazorati markaziga aylanishi kerak edi. Samarqand darvozalaridan birining nomi ma'lum - Qo'shmayxon Abu Muslim davriga oid. Abu Muslim amri bilan Marv va Nishopurda ham binolar qurilgan [10].

Ilk Samarqand So'g'd me'morchiligining asosiy xususiyatlardan biri nafaqat funksional, balki estetik maqsadlarga ham xizmat qiladigan go'zal va nafosatli binolar yaratish istagi edi. Binolar yog'och, tosh va g'isht o'ymakorligi, shuningdek, mozaika va freskalar bilan ko'p bezatilgan bo'lib, quruvchilar va rassomlarning yuksak mahorati va ijodini aks ettirgan.

Xalqaro madaniy va diniy an'analarning ta'siriga qaramay, ilk o'rta asrlar Samarqand So'g'di me'morchiligi mahalliy an'analari va madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi o'ziga xosligini saqlab qolgan. Bu shaharning o'ziga xos qiyofasini yaratdi, u hozirgi kungacha tadqiqotchilar va sayohatchilarining e'tiborini jalb qilishda davom etmoqda. Umuman olganda, Samarqand So'g'dida ilk o'rta asrlar muhim madaniy-ma'rifiy taraqqiyot davri bo'lib, uning me'morchiligi va shahar qiyofasida namoyon bo'ldi. Bu davr butun dunyo bo'ylab odamlarni ilhomlantirish va xursand qilishda davom etadigan boy meros goldirdi.

Shahar suv ta'minoti tizimi bilan bir qatorda kanalizatsiya bilan jihozlangan bo'lib, bu o'sha davr texnik taraqqiyotining muhim yutug'i edi. Ushbu muhandislik yechimlari shahar aholisini toza suv va kanalizatsiya bilan ta'minlash imkonini berdi, bu esa aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qildi. Samarqand So'g'dida shaharsozlikning yana bir muhim xususiyati tabiiy muhitni asrab-avaylash, dam olish va dam olish uchun yashil hududlar va bog'lar barpo etish haqida g'amxo'rlik qilish edi. Ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish, aholining barcha qatlamlarining turar joy, ta'lim va shaharning madaniy

boyliklaridan teng foydalanishini ta'minlash ham ilk Samarqand So'g'dida arxitektura va shaharsozlikning muhim elementi bo'lgan.

Demak, Samarqand So'g'dida ilk o'rta asrlar muhim madaniy-texnik va ijtimoiy taraqqiyot davri bo'lib, uning me'morchiligi va shaharsozlikda o'z ifodasini topdi. Bu davr shahar hayoti va ko'rinishiga bugungi kungacha ta'sir ko'rsatuvchi muhim meros goldirdi.

**Xulosa.** Ilk o'rta asrlar Samarqand So'g'dida ham hunarmandchilik va sanoat ishlab chiqarishining sezilarli rivojlangan davri bo'lgan. Hunarmandlar kulolchilik, to'qimachilik, metall va zargarlik buyumlari kabi turli materiallardan noyob mahsulotlar yaratdilar. Bu mahsulotlar nafaqat shahar va uning arxitekturasini bezatibgina qolmay, balki boshqa sivilizatsiyalar bilan savdo va ayirboshlash ob'ekti sifatida ham xizmat qilgan. Madaniy almashinuv va boshqa mintaqalar va sivilizatsiyalar bilan o'zaro aloqalar ham ilk Samarqand So'g'dida ilmiy va intellektual an'analarning rivojlanishiga xizmat qilgan. Shaharga dunyoning turli burchaklaridan olimlar, faylasuflar va rassomlar bilim almashish, yangi g'oyalarni o'rganish, boshqa xalqlar madaniyati va san'atidan ilhom olish uchun kelgan. Biroq ilk o'rta asrlar Samarqand So'g'dida ham siyosiy va harbiy to'lqinlar davri bo'lgan. Shahar turli harbiy kuchlar tomonidan bositib olingan va natijada madaniy meros vayron qilingan va yo'qolgan. Biroq, Samarqand So'g'di o'zining madaniy va savdo markazi sifatidagi o'ziga xos mavqeい va ahamiyati tufayli har bir inqirozdan qutulib, o'z davrining eng yirik shaharlaridan biri bo'lib qolaverdi. Umuman olganda, Samarqand So'g'dida ilk o'rta asrlar muhim madaniy, ilmiy va iqtisodiy taraqqiyot davri bo'lib, uning me'morchiligi, shaharsozlik va ijtimoiy hayotida o'z ifodasini topdi. Bu davr butun dunyo ahlini hanuzgacha maftun etuvchi va ilhomlantirgan meros goldirdi va Samarqand Markaziy Osiyodagi eng go'zal va tarixiy ahamiyatga ega shaharlardan biri bo'lib qolmoqda. Bu davr o'rta asrlar Samarqandning oltin asri hisoblanib, shahar madaniy, iqtisodiy va ilmiy markaz sifatida gullab-yashnagan. Biroq, boshqa ko'plab sivilizatsiyalarda bo'lgani kabi, Samarqand So'g'dida ham ilk o'rta asrlar siyosiy va ijtimoiy beqarorlik davri bo'lgan. Ichki qarama-qarshiliklar va qo'shni kuchlarning bosqinchiliklari shahar hayotida vaqtinchalik qo'zg'onon va o'zgarishlarga olib keldi. Biroq Samarqand hamisha qayta tiklangan va mintaqaning madaniy va savdo markazi sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan. Natijada Samarqand So'g'di ilk o'rta asrlar shahar hayoti va madaniyatiga hanuzgacha ta'sir ko'rsatuvchi boy meros goldirdi. Bu davr farovonlik va taraqqiyot davri ramzi bo'lib, Samarqand Sharqning chinakam madaniy va intellektual markazi bo'lib, butun dunyodan olimlar, san'atkorlar va savdogarlarni o'ziga jalb etgan.

## ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov A. Ilk Samarqand So'g'dining madaniy an'analari va san'ati. Sharq san'ati va arxitekturasi jurnali, 25(3), 2009. 78-91.
2. Aliyev Sh. Ilk Samarqand So'g'd me'morchiligi va madaniyatiga siyosiy voqealarning ta'siri. "Markaziy Osiyoning madaniy merosi va tarixi" xalqaro konferensiyasi, Buxoro, O'zbekiston. 2016
3. Ibragimov R. Samarqand me'moriy merosi: tarix va zamonaviylik. "O'zbekiston" nashriyoti. 2010.
4. Ismoilov K. Ilk Samarqand So'g'dining qo'shni viloyatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari. "O'rta Osiyo tarixi va madaniyati" to'plami, 2012. 15, 102-115.
5. Karimov U. Ilk o'rta asrlarda Samarqand shahar makonining rivojlanishi. 2005. "Science" nashriyoti.
6. Muhammadiy, F. Ilk Samarqand So'g'd intellectual merosi: fan va ta'limgan yutuqlari. 2011. "Fan va madaniyat" nashriyoti.
7. Raxmanova D. Ilk Samarqand So'g'dida madaniy xilma-xillik va intellectual almashtinuv. "Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati" jurnali, 2018. 10(2), 45-62.
8. Saidov A. Ilk Samarqand So'g'dida iqtisodiy taraqqiyot va savdo. 2013. "Samarqand universiteti" nashriyoti.
9. To'laganov , B. Ilk o'rta asrlarda Samarqand So'g'dda ta'limgan yutuqlari. "Fan va ta'limgan" nashriyoti. 2008.
10. Usmonova G. Samarqand So'g'd maqbaralarining diniy udumlari va me'moriy xususiyatlari. Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati bo'yicha xalqaro konferensiya, Toshkent, O'zbekiston. 2015.



**Matluba RASULOVA,**

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail:m\_rasulova@gmail.com

NamMQI dotsenti N.Shaydullayev tagrizi asosida

## TURIZM SOHASIDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA SHAHRISABZ TURIZM VA MADANIY MEROS TEXNIKUMINING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya

Turizm sohasi qadimgi davrlardan mamlakat taraqqiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida turizm sohasining rivojlanish jarayonlari, sohani yuksaltirishda malakali kadrlarning o'mri, Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumi tarixi, texnikum faoliyatidagi yutuqlar hamda turizm industriyasi uchun kadrlar tayyorlash jarayonida texnikumning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Shahrисabz, Shahrисabz turizm va maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji, Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumi, Mehmonxona xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish, Umumiy ovqatlanish korxonalarini mutaxassis, Madaniy meros obyektlarini asrash va ta'mirlash ustasi.

### THE ROLE OF THE SHAHRISABZ TOURISM AND CULTURAL HERITAGE TECHNICAL SCHOOL IN THE TRAINING OF QUALIFIED PERSONNEL IN THE FIELD OF TOURISM

Annotation

The tourism industry has been one of the important sectors of the country's development from ancient times. This article will tell about the development processes of the tourism sector in the Kashkadarya region, the role of qualified personnel in the promotion of the industry, the history of the Shahrисabz tourism and cultural heritage technical school, achievements in the technical activities and the importance of the Technical School in the process of training personnel for the tourism industry.

**Key words:** Shahrисabz, Shahrисabz Professional College of Tourism and household services, Shahrисabz tourism and cultural heritage Technical School, Organization and management of Hotel economy, specialist of catering enterprises, master of preservation and repair of cultural heritage facilities.

## РОЛЬ ШАХРИСАБЗСКОГО ТЕХНИКУМА ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В ПОДГОТОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ В СФЕРЕ ТУРИЗМА

Аннотация

Индустрія туризма с древних времен была одной из важнейших отраслей развития страны. В данной статье представлена информация о процессах развития сферы туризма в Каракалпакской области, роли квалифицированных кадров в развитии отрасли, истории Шахрисабзского техникума туризма и культурного наследия, достижениях в деятельности техникума, а также о значении техникума в процессе подготовки кадров для индустрии туризма.

**Ключевые слова:** Шахрисабз, Шахрисабзский колледж туризма и бытового обслуживания, Шахрисабзский техникум туризма и культурного наследия, организация и управление гостиничным хозяйством, специалист предприятий общественного питания, мастер по сохранению и ремонту объектов культурного наследия.

**Kirish.** Bugungi kunda O'zbekistonda shiddat bilan rivojlanib borayotgan sohalardan biri turizm sohasi bo'lib, ushbu soha mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda muhim o'rın tutishi yaqqol namoyon bo'imorda. Yurtimizda turizm sektorini rivojlantirishning asosiylaridan biri soha uchun malakali kadrlar tayyorlash jarayoni hisoblanadi. So'nggi yillarda deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarida turizm kafedralari tashkil etilganligi ushbu soha uchun kadrlarga talab yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Davlatimiz tomonidan turizm sohasini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilib kelayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida ushbu yo'naliш tobora rivojlanib bormoqda. Sohani yanada taraqqiy ettirish, davlatimiz rahbari tomonidan qo'yilgan yuksak maqsadlarga erishishda yetuk, zamonaviy kadrlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham sayyoqlik yo'naliшida kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish, bu borada xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalarida ham kuyidagi muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Material va metodlar.** Darhaqiqat, turizm sohasidagi kadrlar tayyorlash masalasini o'rganish barqaror rivojlantirish asosida borishi lozim. Bu holat bugungi kunda o'ta muhim

masala bo'lib qolmoqda. Avvalo, turizm sohasida kadrlar tayyorlash mehmonxonada xodimlarni boshqarish bu ayrim xodimlarga mehmonxona maqsadlariga erishish uchun tashabbuskorlik bilan, ongli, ijodiy mehnat qilishga eng maqbul sharoit yaratish maqsadida jamoaga sobit-qadamlik bilan har tomonlama ta'sir o'tkazish hisoblanadi.

Shunday qilib, turistik korxonalarda ishlayotgan insonlar har uchala talqinda boshqaruв obyekti bo'lishi mumkin. Asosiyisi, ularning hammasi hamjihatlikda pirovard natijaga erishish maqsadida yagona ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish tizimi doirasida faoliyat ko'rsatishadi.

Oxirgi 3 yilda turizm sohasida kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari soni 16 tadan 30 taga, ularda ta'lim oluvchi talabalar soni esa mos ravishda 4 100 nafardan 11 500 nafargacha oshgan. 2020 yilda oliy ta'lim muassasalarida turizm sohasida ta'lim beruvchi pedagoglarning ilmiy salohiyati 24,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda ushbu ko'rsatkich 37,6 foizga yetdi.

Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumi ham turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlovchi yetakchi ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnikum

faoliyati tarixiga nazar tashlasak, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 14 avgustdag'i № 338-sonli qarori, Respublika o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining 2003 yil 6 avgustdag'i № 176-sonli buyrug'i hamda Qashqadaryo viloyat hokimligi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasining 2003 yil 27 avgustdag'i № 386-M sonli buyrug'iga asosan, 12-son kasb-hunar maktabi tugatilib, o'rniда Shahrисabz turizm va maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji tashkil etildi [1]. Kollejda maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan 13 ta ixtisoslik bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazining 2004 yil 9-25 oktabrdagi 22-sonli buyrug'i, Qashqadaryo viloyat o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasining 2004 yil 27 oktabrdagi 387-M sonli buyrug'iga asosan, Shahrисabz turizm va maishiy xizmat kasb-hunar kollejining nomi Shahrисabz oziq-ovqat va maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji deb o'zgartirildi.

2004-2005 o'quv yilida kollejga 13 ixtisoslik bo'yicha 669 nafar talaba o'qitildi.

Kollej Toshkent Davlat Iqtisodiyoti universiteti, Toshkent Kimyo texnologiyasi instituti, Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti bilan o'zarо hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

2004 yilning aprel oyida «Turizm yo'nalishidagi mashg'ulotlarni tashkil qilishning dolzarb muammolari» mavzusida Respublika ilmiy amaliy anjumanini bo'lib o'tdi. Ushbu anjuman Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti «Turizm servisi» kafedrasi professor-o'qituvchilar bilan hamkorlikda tashkil etildi. Anjumanda turizm yo'nalishi bo'yicha ko'plab muammoli masalalar o'z yechimini topdi [2].

2020-yilda Shahrисabz oziq-ovqat va maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji Shahrисabz turizm va servis kollejiga aylantirildi. Mazkur kollejda quyidagi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlanishi yo'lga qo'yildi:

- 4.81.02.01 – Turizm. Ushbu yo'nalishda tur animator, turizm axborot markazi konsultanti, turizm agenti, yo'riqchi-jo'l boshlovchi, ichki turizm gidi, ekoturizm agenti kabi kvalifikatsiyalar bo'yicha mutaxassislar tayorlanmoqda.

- 4.81.01.00 – Mexmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish. Kvalifikatsiyalar – mexmonxona administratori va xonalar fondi supervayzeri.

- 4.81.01.01 – Umumiyy ovqatlanish korxonalarini mutaxassisasi. Kvalifikatsiyalar nomi: ofitsiant, barmen, bufetchi, baristo (choyshunos, titestr), somele.

- 4.81.063.01 – Umumiyy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish mutaxassisligi. Kvalifikatsiyalar – O'zbek va xorijiy oshxona oshpazi, bolalar va parhez taomlar oshpazi.

- 4.32.06.01 – Buxgalteriya. Kvalifikatsiyalar – buxgalter va kassir.

- 4.83.01.01 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi.

2022-yilda 6 ta yo'nalishda 130 ta talaba kollejni tamomladi.

2022-2023-o'quv yilidan boshlab Shahrисabz turizm va servis kolleji negizida Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumi tashkil etildi [3].

2023-yilda ushbu texnikumni 111 ta talaba muvaffaqiyatlari tamomlab, ularning 40 nafari suhbat asosida oliv ta'lim muassasalarida o'z mutaxassisliklari bo'yicha 2-kursdan o'qishga qabul qilindi. 71 nafari esa to'liq ish bilan ta'minlanib, Kitob geologik qo'riqxonasi, Hisor davlat qo'riqxonasi, mexmonxonalari, uy mexmonxonalari va restoranlarda faoliyat olib bormoqdalar. Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumi 70 ta korxona bilan shartnoma imzolagan bo'lib, talabalar amaliyotini tashkil etish va ularni

ish bilan ta'minlash jarayonlarida ushbu korxonalar katta hissa qo'shib kelmoqda.

2024-yilda texnikumni 95 ta bitiruvchi talaba tamomlashi kutilmoqda [4].

Mavzuni o'rganish doirasida mavzuga doir qonunchilik hujjatlari batafsil o'rganildi. Mavzuni yoritishda dala tadqiqot metodlari va og'zaki tarix usulidan keng foydalanildi, ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, umumlashtirildi.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda texnikumda 11 ta shtat birligida o'qituvchilar faoliyat ko'rsatib, ularning 6 nafari katta o'qituvchilardir. Texnikum o'qituvchilari tomonidan 2023-2024-o'quv yilida 15 ta o'quv qo'llanma va 10 ta o'quv uslubiy majmua tayyorlangan [5]. Texnikum kutubxonasining umumiy fondida 6221 ta kitob mayjud bo'lib, ularning 1955 tasi umumta'lim fanlarga, 3198 tasi umumkasbiy fanlarga, 379 tasi o'quv uslubiy fanlarga doir bo'lsa, 477 tasi badiiy, 162 tasi siyosiy adabiyotlarni va 59 tasi SD disklarni tashkil qiladi [6].

Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumining tarixiy Shahrисabz shahrida joylashganligi talabalarning olgan nazari bilimlarini mutazam ravishda amaliyotga qo'llashlariga imkon beradi. Bugun texnikumda tahsil olayotgan talabalar darsdan bo'sh vaqtlarini texnikumda faoliyat ko'rsatayotgan stilistika, kompyuter injeneringi va grafikasi, tenniss, shaxmat kabi to'garaklarda o'tkazmoqda. Buning natijasi o'laroq, 2023-yil 13-oktabrda Shashka bo'yicha tashkil etilgan Shahrисabz shahar musobaqasida texnikum talabasi To'rayeva Nargiza 1-o'rinni, Norov Jasur esa 2-o'rinni, 2024-yilda esa Rizayeva Sevinch 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

2024-yil yanvarda yoshlar orasida o'tkazilgan tanlovlarda stol tennisi bo'yicha Avlaqulov Nodir Shahrисabz shahrida 1-o'rinni, Qashqadaryo viloyati bo'yicha esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Texnikumning iqtidorli talabalaridan Temirov Ma'rufjon turk tilida, Ahmadov Abbas, Jabborova Sabina rus tilida, Nomozov Tohir, Avlaqulov Nodirbek, Asadullayeva Sabina ingliz tillarida ravon so'zlashib, Shahrисabza tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlarga tarjimon-gidlik xizmatini ko'rsatib kelmoqda [7].

Texnikum talabalarini Qashqadaryoda o'tkazilib kelinayotgan turizm bo'yicha yarmarkalarda, festivallarda faol qatnashishadi va bu orqali o'z bilimlarini amaliyotga qo'llash imkoniga ega bo'lishmoqda.

**Muhokama.** Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumida yil davomida xorijlik mutaxassislar, "Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti"ning yetakchi professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga mutaxassisligi doirasida master-klasslar tashkil qilinadi. Jumladan, 2024-yil 27-fevralda "Umumiyy ovqatlanish shoxobchalarida ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini rivojlantirish hamda ushbu sohada ishlayotgan xodimlar malakasini oshirish" mavzusida xorijlik mutaxassislar ishtirokida seminar bo'lib o'tdi. Seminarni Rossiya fuqarosi, xalqaro toifadagi mutaxassis Klikov Artem Aleksandrovich va O'zbekiston fuqarosi, olyi toifali mutaxassis Mashkov Aleksandr Yurievichlar olib borishdi. Seminarda texnikum o'qituvchilar, Umumiyy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish va boshqarish, Mehmonxona xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish guruhlari hamda Shahrисabz shahri restoran, ovqatlanish shaxobchalarini boshqaruvchilarini va oshpazlari qatnashdilar. Bu kabi seminarlarning tashkil etilishi soha vakillari malakasini yanada oshishiga xizmat qiladi.

2024-yilda texnikumda quyidagi yo'nalishlar uchun qabul e'lon qilingan:

- Turizm;

- Mehmonxona xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish;

- Umumi ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish;
- Stilistika va vezajist san'ati;
- Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish;
- Kompyuter injiniringi;
- Bank ishi;
- Buxgalteriya hisobi va audit;
- Geodeziya va kartografiya;
- Madaniy meros obyektlarini asrash va ta'mirlash ustasi [8].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, turizm sohasida kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Bugun direktor A. Akramxonov rahbarligida Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumi turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash, ularni ish bilan ta'minlash borasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Texnikumda yoshlarning ta'lim olishi, o'z iqtidorini namoyon etishi uchun yaratilgan imkoniyatlar o'z samarasini bermoqda.

**Xulosa.** Bugungi kunda O'zbekistonning turizm sohasi yuqori ko'rsatkichlarga erishmoqda: xorijlik sayyoohlar soni kundan-kunga oshib, ichki turizm jadal rivojlanmoqda, sohaga bog'liq infratuzilma shakllanib, xizmatlar eksporti tinimsiz o'smoqda. Bu jarayonni to'xtamasligini ta'minlash va keyinchalik kuchaytirishning asasiy o'lyi bu malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'iga qo'yib, takomillashtirib borishdir.

Ko'rib turganimizdek hozirgi kunda mamlakatimizda professional mutaxassislar tayyorlash tizimi yaratilgan. Bundan tashqari sohada oliv o'quv yurtlar va ularda o'qitilayotgan talabalar soni yildan yilga ortib, ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish asosida o'qitish tarsliklari jaxon standartlariga moslashtirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ushbu yo'nalishda davlatimizda amalga oshirilayotgan ishlarning natijasida xalqaro talablarga mos keluvchi malakali mutaxassislar tayyorlashga va sohasidagi turli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, fundamental, ilmiy-amaliy ishlarga bo'lgan keskin ehtiyoj muammosimi hal etishga zamin yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumi joriy arxivi materiallari.
2. Toirova S. Bir o'quv askanida//Kesh, 2005, 21 yanvar.
3. "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ – 5270-sonli Qarori, 2021-yil 30-oktabr, Lex.uz.
4. Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumi direktori A. Akromxonov bilan suhbat, 2024-yil, 15-aprel
5. Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumi direktorining o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinosari F. Rustamova bilan suhbat, 2024-yil, 15-aprel
6. Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumi kutubxonasi xodimi N. Sultonova bilan suhbat, 2024-yil, 15-aprel
7. Shahrисabz turizm va madaniy meros texnikumi yoshlar yetakchisi D. Muhammadiyev bilan suhbat, 2024-yil, 15-aprel.
8. [https://t.me/Shahrисabz\\_TMMT](https://t.me/Shahrисabz_TMMT)



**Maxbuba RAXMONOVA,**

O'zbekiston Milliy universiteti stajyor-o'qituvchisi

E-mail: mahbubaraxmanova@gmail.com

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Madaniyatshunoslik" kafedrasi mudiri, PhD A.Mamatkulov taqrizi asosida

**XX ASRNING 50–80-YILLARIDA SOVET HOKIMYATINING O'ZBEKISTON SSRDAGI IQTISODIY  
RAYONLASHTIRISH SIYOSATI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR (QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONI  
MISOLIDA)**

Annotatsiya

Mazkur maqolada iqtisodiy rayon nima ekanligiga asoslanib sovet hokimyatining XX asrning 50–80-yillarida olib borgan iqtisodiy rayonlashtirishi natijasida O'zbekiston SSRning iqtisodiy rayonlarga bo'linishi va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining o'ziga xos xusussiyatlari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga maqolada Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining tabiiy-geografik joylashuvi, qishloq xo'jaligining ahvoli, sanoat korxonalarining potensial quvvati kabi jihatlariga urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy rayon, sovet hokimyati, rayonlashtirish, O'zbekiston SSR, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni, Qoraqalpog'ston ASSR, Xorazm viloyati, Orol dengizi, tabiiy-geografik joylashuv, qishloq xo'jaligi, sanoat, baliqchilik.

**ИЗ ИСТОРИИ ПОЛИТИКИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНИРОВАНИЯ В УЗБЕКСКОЙ ССР СОВЕТСКОЙ  
ВЛАСТЬЮ В 50-80-Е ГОДЫ XX ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ НИЖНЕ-АМУДАРЬИНСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО  
РАЙОНА)**

Аннотация

В данной статье, основываясь на том, что такое экономический район, рассматривается деление Узбекской ССР на экономические районы и особенности Нижне-Амударьинского экономического района в результате экономического районирования, проведенного советскими властями в 50-80-х годах XX века. При этом в статье делается акцент на таких аспектах Нижне-Амударьинского экономического района, как природно-географическое положение, состояние сельского хозяйства, потенциальная мощность промышленных предприятий.

**Ключевые слова:** экономический район, советская власть, районирование, Узбекская ССР, Нижне-Амударьинский экономический район, Каракалпакская АССР, Хорезмская область, Аральское море, природно-географическое положение, сельское хозяйство, промышленность, рыболовство.

**SOME REMARKS ON THE ECONOMIC ZONING POLICY OF THE SOVIET AUTHORITY IN THE UZBEKISTAN  
SSR IN THE 1950s-1980s. (IN THE CASE OF LOWER AMUDARYA ECONOMIC REGION)**

Annotation

This article examines the division of the Uzbekistan's SSR into economic regions as a result of the economic zoning carried out by the soviet authorities in the 50s-80s of the 20th century and the specific features of the Lower Amudarya economic region based on what an economic region is. At the same time, the article emphasizes such aspects as the natural-geographical location of the Lower Amudarya economic region, the condition of agriculture, and the potential capacity of industrial enterprises.

**Key words:** economic region, soviet government, regionalization, Uzbekistan SSR, Lower Amudarya economic region, Karakalpakstan ASSR, Khorezm region, Aral Sea, natural-geographic location, agriculture, industry, fishery.

**Kirish.** XX asrning 50 – 80-yillarida sovet hokimyatining O'zbekiston SSR hududida olib borgan iqtisodiy siyosatining asosi markaz tomonidan rejalashtirilgan siyosat mazmuniga mos ravishda olib borilgan. Bu siyosatni amalga oshirish o'lkanning turli hududlaridagi boy tabiiy resurslarni o'zlashtirish va markazga tashib ketishga qaratilgan edi. Sovet hokimyatining O'zbekiston SSR hududida iqtisodiy rayonlashtirish siyosatini o'rghanishdan avval, iqtisodiy rayonlashtirish siyosati o'zi nima ekanligi haqida to'xtalib o'tsak.

Iqtisodiy rayonlashtirish bu – geografik mehnat taqsimoti obyektidan kelib chiqqan holda yirik mintaqalar yoki mamlakatning iqtisodiy rayonlarini o'zaro bo'ysundirishning tizimli shaklidir. Bunday iqtisodiy rayonlashtirishdan asosan, ikkita maqsad ko'zlanadi. Birinchisi ishlab chiqarish kuchlarini rejali ravishda to'g'ri hududiy tashkil qilish va boshqarish bo'lsa, ikkinchisi esa alohida ajratilgan har bir iqtisodiy rayonda mahalliy sharoitini hisobga olgan holda ixtisoslashgan tarmoqlarni rivojlantirish,

rayonlararo trans-iqtisodiy aloqalarni amalaga oshirish nazarda tutiladi[6, – 85-86 b.]. Shulardan kelib chiqqan holda iqtisodiy rayonlashtirish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish uchun qulay sharot yaratish deb tushunish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maqolada XX asrning 50–80-yillaridagi sovet hokimyati tomonidan O'zbekiston SSRdagi iqtisodiy hayotida olib borgan rayonlashtirish siyosati haqida turli davrdagi iqtisodchi, tarixchi va boshqa soha tadqiqotchilar asarlarida munosabat bildirib o'tilgan. Bu tadqiqotlar qatoriga I.Axunov (1957), E.Izbashanov (1964), A.Bedrinsev (1982), G.Asanov (1984, 1994), M.Nabixonov (1984, 1994), M.Normuhammedov (1985), I.Safarov (1994), B.Bobojonova (1999), A.Mamatqulov (2021), G.Yusupova (2022) kabilarning ilmiy tadqiqotlarida sovet hokimyatining iqtisodiy rayonlashtirish siyosati hamda O'rta Osiyo iqtisodiy rayonining tarkibiy qismi bo'lgan Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining o'ziga xos xususiyatlari borasidagi iqtisodiy siyosati yoritib o'tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot ishini yoritishda mikrotarix (microhistory), qiyosiy tahlil (comparative analysis), statistik tahlil (statistical analysis), tizimli tahlil kabi umum qabul qilingan metodlaridan foydalilanigan holda, XX asming 50–80-yillardagi sovet hokimyatining iqtisodiy siyosati hamda Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining ushbu davrdagi ma'muriy tuzilishi, tabiiy resurslari, mahsulot ishlab chiqarish quvvati kabi iqtisodiy holatini aks ettiruvchi manba va tadqiqot ishlari asosida tahlil qilingan.

**Tahlil va natijalar.** Iqtisodchi tadqiqotchilarning fikricha, iqtisodiy rayonlashtirishning eng muhim usullarida: har bir iqtisodiy rayon yirik hududiy ishlab chiqarish majmuasini tashkil etishi va u ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik tarmoqlariga ixtisoslashuvi; rayonlashtirish asosini energetik va iqtisodiy usullar tashkil etishi; har bir iqtisodiy rayon o'zining tabiiy va sotsial iqtisodiy sharoitlari hamda boshqa imkoniyatlarni hisobga olgan holda, xo'jalikning ma'lum bir tarmog'iga ixtisoslashishi; iqtisodiy rayonlashtirishda milliy masalalar, milliy respublikani rivojlanish vazifalari, yirik rayon tashkil etuvchi markazlarning mayjudligi hisobga olinishi lozim[6]. Mana shu funksiyalar inobatga olinib tashkil qilingan iqtisodiy rayongina ko'zlangan natija berishi mumkin. Shuni ham ayтиб o'tish joizki, rayonlar chegarasi vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi. Chunki, hududiy mehnat taqsimoti doim rivojlanib, o'zgarib turishi natijasida hudud ham boshqa iqtisodiy rayon tarkibiga o'zlashtirilishi yoki geografik va iqtisodiy imkoniyatlarni inobatga olgan holda alohida ajratilishi ham mumkin.

Har bir iqtisodiy rayon o'zining asosiy va yetakchi iqtisodiy tarmog'iga ega bo'lgan holda mana shu yetakchi tarmoq rayonning iqtisodiy qiyofasini belgilab beradi. Iqtisodiy rayonning yetakchi tarmog'i ya'ni xo'jalik tarmog'i asosida uni to'ldirib turuvchi yordamchi – quyi tarmoqlar shakillanadi. Umuman olganda iqtisodiy rayon xalq xo'jaligi tarmoqlari o'rtaida aloqani mustahkamlab turuvchi o'ziga xos ixtisoslashgan hududiy ishlab chiqarish majmularini o'z ichiga olgan holda ajratilishi ham mumkin.

Sovet davri geograflarining fikricha, mamlakatni iqtisodiy rayonlarga bo'lish jaryonida hududning turli xil ko'rsatkichlariga ko'ra iqtisodiy rayonlarga ajratish mumkin. Masalan, tarixiy rivojlanish xususiyatlari, mustahkam iqtisodiy aloqalar yagona resurslardan, infrastrukturadan foydalananish, ishlab chiqarish aloqalar, rivojlanish istiqbollari kabilar tahlil qilingan holda mamlakat ichidagi iqtisodiy rayonlar bir emas bir nechta viloyatni o'z ichiga olishi mumkin. Ayrim hollarda esa, industrial jihatdan yuqori darajada rivojlanmagan viloyat alohida ajratilmay, xo'jalik ixtisosini jihatidan o'xhash bo'lgan qo'shni viloyatga birlashtirish ma'qul ko'riladi. Umuman olganda, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish uchun ma'muriy birlıklar bilan hududiy ishlab chiqarish komplekslari chegaralari mos kelishi zarur omil hisoblanadi[1].

Iqtisodchi hamda tarixchi tadqiqotlarning keltirilishicha, barcha davrlarda mamlakatning iqtisodiyotini, sanoatini, xalq xo'jaligini boshqarishda iqtisodiy birlıklar – iqtisodiy rayonlar asosida boshqarish qulay usul hisoblangan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, hududiy jihatdan katta bo'lgan, bir-birdan demografik xususiyatlarga ko'ra farq qiluvchi aholiga ega bo'lgan SSSR davlati ham davlat iqtisodiyotini boshqarishda iqtisodiy rayonlashtirish usulidan foydalangan. Xalq xo'jaligini mintaqaviy rejalshtirish asosida SSSR hududi bir qancha iqtisodiy rayonlarga bo'lingan edi. Hududiy chegaradosh to'rtta respublika (O'zbekiston SSR, Tojikiston SSR, Qirg'iziston SSR, Turkmaniston SSR)dan tashkil topgan O'rta Osiyo iqtisodiy rayoning eng yirik iqtisodiy potensialga ega bo'lgan hududi O'zbekiston SSR bo'lgan. O'z navbatida O'zbekiston SSR ham tarkibiy jihatdan bir nechta iqtisodiy rayonlarga ajratilgan. Bu bo'linish turli

yillarda turlicha bo'lgan. Masalan, tadqiqotchi G.Yusupovning tadqiqotlarida keltirilishicha, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Toshkent, Farg'on, Samarqand va Qoraqalpog'iston kabi to'rtta iqtisodiy-ma'muriy rayonlarga bo'lingan[10].

Tarixchi olma D.Bobojonovaning monografiyasida keltirilishicha, XX asrning 70–80-yillarda O'zbekiston SSR 6 ta iqtisodiy rayon (Toshkent, Farg'on, Samarqand-Qarshi, Buxoro-Qizilqum, Quyi Amudaryo va Surxondaryo)lariga bo'lingan[4]. Tadqiqotchi A.Mamatqulovni tadqiqotlarida iqtisodiy rayonlarning soni turli davrlarda turlicha ko'rsatilgan[7] bo'lib, bunday qayta rayonlashtirish jarayonlarda hududlardagi mehnat taqsimoti hamda SSSR mamlakat xalq xo'jaligidagi ahamiyati, hudud industriyasining o'sib borishi kabi macallalalar inobatga olinib iqtisodiy rayonlar ma'muriy-hududiy tuzulishi qayta taqsimlangan deyishimiz mumkin.

O'zbekiston SSR iqtisodiy rayonining shimoli-g'arbiy chekkasida joylashgan hamda hududiy jihatdan eng kattasi bo'lgan Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidir. Ushbu iqtisodiy rayon Qoraqalpog'iston ASSR va Xorazm viloyatlarining iqtisodiy birikuvidan tashkil etilgan. Bu iqtisodiy rayon ushbu ikki hududning geografik o'rni, xo'jalik ixtisosini, rivojlanish istiqbollari kabi omillarga ko'ra birlashtirilgan. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni geografik jihatdan Orol dengizingin janubida, Qizilqum cho'lining g'arbida va Ustyurt platosining sharqiy qismida joylashgan[2]. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining bunday noqulay tabiiy-geografik hudud – cho'l zonasida joylashganligi rayonning qishloq xo'jaligi hamda sanoatining boshqa hududlarga nisbatan orqada qolishiga ta'sir ko'rsatgan desak adashmagan bo'lamiz.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida qishloq xo'jaligining dehqonchilik tarmog'i yetakchi bo'lib, asosan, sholichilik va paxtachilikka ixtisoslashgan. XX asrning 70–80-yillarda Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni O'zbekiston SSR sholisining 70 foizini, paxtasining 14,5 foizini, pillsasining esa 11 foizini yetkazib bergan[1]. Sanoat mahsulotlari esa rayon xo'jaligining nisabatan kam 5,9 foizni tashkil qilgan. Amudaryoning quyi qismidagi hududlar sholichilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda sholidan mo'l hosil olinganligi sababli Xorazm hududi paxta yetishtirishda butun O'zbekiston SSRda yetakchilik qilgan. Iqtisodiy rayon tarkibiga Orol dengizingin deyarli yarim hududi kiradi. Shu xususiyatidan ham ushbu iqtisodiy rayonda baliqchilik, suv transporti asosiy o'ringa ega bo'lgan[1].

Iqtisodiy rayonda dehqonchilik sug'irma dehqonchilikka asoslangan va bu Orol dengizi va Amudaryo suvlari orqali amalga oshirilgan. Orol dengizi sathining pasayishi sababli sovet hukumati Sibir daryolarining irmoqlarini irrigatsiya kanallari orqali Orol dengiziga olib kelishni va sug'oriladigan yerkarni yanada kengaytirishni rejalshtirgan[3]. Ammo Orol dengizning suvlardan betartib foydalilaniganligi, hududning tabiiy sharoitlari, aholi ehtiyojlarining inobatga olinmaganligi, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va undan ilmiy asoslanmagan holda foydalilaniganligi sababli ushbu rejalar bajarilmay qolib ketgan.

XX asrning 70–80-yillarda Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining 400 gektardan ortiq maydoni qamishzorlardan iborat bo'lgan va sovet davlati bundan unumli foydalanan maqsadida yog'och tolali qurilish taxtalari, qamish asosida qog'oz, viskoz va boshqa bir qator mahsulotlarni ishlab chiqarish rejalshtirgan edi[9]. Lekin bu borada ham SSSR hukumati oldiga qo'yilgan besh yillik rejalar bajarilmay, faqat qog'ozda qolib ketganligini ko'rish mumkin.

Iqtisodiy rayonda poliz ekinlардан qovun yetishtirish, ayniqsa, Xorazm qovunlari ancha mahsuldar va xaridorgir bo'lgan. Bundan tashqari, makkajo'xori va beda yetishtirish

salmoqli bo'lgan. Ammo, sabzavot yetishtirish ayniqsa, kartoshka yetishtirishda rayon o'z ehtiyojini ham qondira olmagan.

Bu iqtisodiy rayonidagi sanoat korxonalarining asosiy qismi Qoraqalpog'iston ASSR hududida joylashgan. Mashinasozlik va metallsozlikda asosan avtoremont va qishloq xo'jaligi mashinalarini tuzatish korxonalaridan iborat bo'lgan. Bunday korxonalar Nukus, Urganch, Taxiyatosh, Qo'ng'irot shaharlarida mavjud bo'lgan. Xo'jaylida esa yirik kema tuzatish korxonasi faoliyat ko'rsatgan. Ushbu faoliyat turlari rayon yalpi mahsulotining 1/10 qismini ishlab chiqargan[3].

Bu davrda Qoraqalpog'iston ASSRda mineral xom ashyolarning 200 dan ortiq konsifat manbalari ma'lum bo'lgan. Bular asosan mineral xom ashyolar: gaz, temir, gips, ohaktosh, tuzlar, talk, fosforit va qurilish materiallaridan iborat bo'lgan. Birgina, Sultonuvays tog'idan mis, qo'rg'oshin, rux, nikel, selestin, rodonit, yashma, feruza, ametist, listvenit va qayroqtosh topilganligini ko'rishiimiz mumkin[8]. Bu esa Qoraqalpog'iston ASSR hududida yer osti qazilma boyliklari asosan qurilish va saonat xom ashyo materiallaridan iboratligidan dalolat beradi. Shunday bo'lsada, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida qurilish sanoati sust va yaxshi rivojlanmagan bo'lib, faqatgina Nukus, Urganch, Taxiyatosh, Drujba shaharlarida temir-beton rekonstruksiya zavodlari, Beruniy va Xo'jaylida g'isht zavodlarigina faoliyat ko'rsatgan.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni yengil sanoatida paxta tozalash zavodlari, to'qimachilik korxonalari va tikuvchilik fabrikalari mavjud bo'lib, rayonning Urganch, Xonqa, Xo'jayli, Beruniy, Mang'it tumanlarida 20 ga yaqin paxta tozalash zavodlari faoliyat ko'rsatgan. Iqtisodiy rayonning (Xorazm viloyati) birgina Xiva shahrida O'zbekiston SSRda yetakchi bo'lgan gilam to'qish fabrikasi mavjud bo'lgan. Bugungi kunga qadar ushbu gilam to'qish

fabrikasi o'ziga xos gilam to'qish an'analarini saqlab qolgan holda faoliyat yuritmoqda.

Rayondagi aholi uchun zarur bo'lgan mahsulotlar, oziq-ovqat sanoati: moy va sholi oqlash, non, sut kombinatlari, konserva zavodlaridan iborat bo'lgan. Xo'jayli, Qo'ng'irot, Chimboy, Beruniyda moy zavodlari faoliyat ko'sratgan bo'lsa, 1960-yillarda Urganchdagi moy zavodi qayta rekonstruksiya qilinishi natijasida O'zbekiston SSR hududidagi eng yirik zavodlardan biriga aylantirilgan. Bundan tashqari, Mo'ynoqda O'zbekiston SSR hududiga baliq konservasini yetkazishda yetakchi va yagona bo'lgan konserva zavodi SSSRning markaziy rayonlariga ham baliq va konserva mahsulotlarini yetkazib turgan. Masalan, birgina 1955-yilning o'zida 18 800 000 quti konserva, 1670 sentner muzlatilgan baliq va 730 sentner dudlangan baliq ishlab chiqarilgan[9]. Aynan mana shu davrda, O'zbekiston SSRda ovlanadigan baliqning 98,9 foizi Orolbo'ydi hududida yetishtirilganligini ko'rish mumkin[5]. Iqtisodiy tahlillarga ko'ra, oziq-ovqat sanoati iqtisodiy rayon yalpi mahsulotining 1/5 qismini yetkazib bergen[1]. Bunday ko'rishiimiz mumkinki, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni xalq xo'jaligining asosiy ulushini baliqchilik va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish tashkil qilgan hamda iqtisodiy rayon xalq xo'jaligini harakatga kelтирib turuvchi richak vazifasini bajargan desak adashmagan bo'lamiz.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, sobiq SSSR davlatida o'tkazilgan rayonlashtirish tizimi mamlakatni boshqarishning quay usullaridan biri bo'lgan. SSSR tarkibiga kiruvchi O'rta Osiyo iqtisodiy rayonining bir qismi hisoblangan Quyi Amudayo iqtisodiy rayoni O'zbekiston SSR hududida oziq-ovqat sanoati, xususan, baliqchilik va sholichilik bo'yicha yetakchi bo'lgan iqtisodiy rayondlardan biri hisoblangan. Rayonning iqtisodiy va sanoat jihatidan boshqa hududlarga nisbatan orgada qolishiga uning markazdan uzoqda joylashganligi, tabiiy-geografik jihatdan esa noqulay iqlim va hududda joylashganligi bilan asoslash mumkin.

#### ADABIYOTLAR

- Асанов Г., Набиходон М. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодик ва социал географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 169, 232, 234 б.
- Асанов Г., Набиходон М., Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жуғрофияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 197 б.
- Бедринцев А. Ўзбекистон территориал ишлаб чиқариш комплексларини шакиллантириш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982. – 22 б.
- Бобоҷонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иктисодий муносабатлар (70 – 80-йиллар мисолида). – Тошкент: 1999. – 25 б.
- Избасханов Е. Экономическое районирование Каракалпакской АССР. // Вестник. Каракалпакский филиал академии наук Узбекской ССР. 1964. – С. 16.
- Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Mualliflar jamoasi. Darslik. – Toshkent: Noshir, 2019. – 85-86 b.
- Маматқулов А. Ўзбекистонда XX асрнинг 50-80 йилларида совет ҳокимиятининг иқтисодиф районлаштириш сиёсати (Самарқанд-Қарши иқтисодий районлари мтсолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илм.дар.... дисс. – Тошкент: 2021. – 16 б.
- Нормухаммедов М. Ўзбекистоннинг еrosti бойликлари – халқ xизматида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 19-20 б.
- Экономический районы Уз ССР. (редактор Ахунов И.) – Тошкент: 1957. – С. 34–36.
- Юсупова Г. Ўзбекистон ижтимоий-иктисодий ҳаётida Фарғона иқтисодий районининг ўрни (XX асрнинг 50-80 йиллари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илм.дар.... дисс. – Тошкент: 2022. – 31 б.



Zamira SAIDOVA,

Toshkent to'qimachichik va yengil sanoat instituti Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi bosh mutaxassisi

E-mail: z99998685@gmail.com

T.f.d., prof. D.Urakov taqrizi asosida

## O'ZBEKİSTONDA "HABEAS CORPUS" INSTITUTINING VUJUDGA KELISHI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Xabeas korpus"ning vujudga kelishi, rivojlanishi, O'zbekistonda bu institutning yaratilishi va ahamiyati to'g'risida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** "Xabeas korpus", parlament, konstitutsiya, Angliya, sanksiya, kodeks, suda, Senat, president.

### ВОЗНИКОВЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА "ХАБЕАС КОРПУС" В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье описывается возникновение и развитие "Хабеас корпус", создание и значение этого института в Узбекистане.

**Ключевые слова:** "Хабеас корпус", парламент, конституция, Англия, санкция, кодекс, судья, Сенат, президент.

### "HABEAS CORPUS" INSTITUTE OCCURRENCE AND IMPORTANCE IN UZBEKISTAN

Annotation

This article describes the agreement and development of "Habeas Corpus", the creation and importance of this institution in Uzbekistan.

**Keywords:** "Habeas Corpus", parliament, constitution, England, sanction, code, judge, Senate, president.

**Kirish.** Ma'lumki, xalq orasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati ustidan shikoyatlar uchrab turadigan holat hisoblanadi. Ayrim o'rirlarda muayyan shaxsning qo'lga olinish holatlari yuz beradi va eng yomoni ko'pincha buning sabablari yetarlicha tushuntirilmaydi yoki izohlanmaydi. O'z huquqlarini yaxshi bilmagan odamlar esa hibsga olinganda yoki tergov jarayonida nima qilish kerakligini bilmaydi. Shaxsning qo'lga olinishida unga buning sabablari tushuntirilmagani holatida inson qadri ta'minlanmaydi. Natijada fuqarolarning huquqlari ular qo'lga olingen vaqtdayoq xavf ostida qoladi. Mazkur holatlarning oldini olish maqsadida rivojlangan davlatlarning Konstitutsiya va qonunlarida aks etgan "Xabeas korpus" institutlari ishga tushadi. Ushbu institutlar yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Ta'kidlash joizki, "Xabeas korpus akti" – bu shaxs o'zining hibsga olinishiga qarshi sud orqali e'tiroz bildirishi uchun asosiy huquq bo'lib, Britaniya huquq tizimining asosi sifatida asrlar davomida shaxsning huquqlarini himoya qilishda ishlatalgan[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Xabeas korpus" institutining tarixi, uning faoliyati tadqiqotchilarining izlanishlarida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar natijasida O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda sud-huquq sohasidagi o'zgarishlar, masalasi bo'yicha tadqiqotchilar o'rtaida turli g'oyalari tahlil qilingan. Xususan, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud-huquq tizimini isloq qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangani ta'kidlab o'tilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasini tahlil qilish, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, kodekslari, mavzu bo'yicha birlamchi arxiv hujjatlari, o'ziga xos rivojlanish yo'nalishlari, islohotlar, ilmiy xulosalar chiqarish zarurligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tarixiy-qiyosiy hamda umumiylah tahlillar asosida xulosa berish, holislik, ilmiylik, tarixiy yondoshuv, tizimlashtirish tadqiqotning metodologik asosini tashkil qiladi.

**Tahlil va natijalar.** "Xabeas korpus" (Habeas Corpus) atamasini lotincha "ta'nani, shaxsni (sudga) keltirish" ma'nosini anglatadi. G'arb davlatlarida jinoi ta'qibga uchragan, hibsga olingen yoki qamoqda saqlanayotgan fuqaroningadolatli sud orqali himoyalanishga bo'lgan huquqini "Xabeas korpus" deb nomlash odat tusiga kirgan.

Ushbu institut dastlab XII asrdan boshlab Angliyada qo'llanila boshlagan. XIV asrda Eduard I qirolli davrida esa, ushbu amaliyot urf-odatga aylana boshlagan. Mazkur urf-odat o'z navbatida inson huquqlari masalasida normativ hujjat sifatida 1679-yil 26 may kuni Angliyada qabul qilingan "Fuqaro erkinligini yanada yaxshiroq ta'minlash va dengizdan tashqari hududlarda asossiz hibsga olishlarining oldini olish to'g'risida"gi qonun yoki "Xabeas korpus akti" [2] da aks etdi. Qonunda hibsga olingen har qanday shaxs tegishli muddatda sudga olib borilishi, sud hibsga olishni noqonuniy deb topsa, shaxs ozod qilinishi, aylov tomon shaxsni hibsga olish uchun yetarli dalillarni taqdim eta olmagan hollarda "Xabeas korpus" qonuni shaxsni hibsga olishga e'tiroz bildirish uchun ham ishlatalgan. Bunday hollarda sud shaxsni ozod qilish to'g'risida qaror chiqarishi mumkinligi belgilab o'tilgan.

Qonun asrlar davomida shaxsning huquqlarini himoya qilish uchun ishlatalgan va ko'plab davlatlarning huquq tizimida "Xabeas korpus akti"ning tamoyillari qabul qilingan.

Dunyo amaliyotida inson huquqlariga oid qonunchilik rivojlanishining e'tiborli jihat shundaki, inson huquqlari bo'yicha ayrim normalar dastlab milliy huquqda paydo bo'lib, so'ngra xalqaro-huquqiy normalar va standartlarga aylangan.

Anglo-sakson huquq oilasining muhim institutlaridan biri "Xabeas korpus akti" ham dastlab milliy huquqda paydo bo'lib, so'ngra xalqaro darajada umume'tirof etilgan hujjat sifatida tan olingen inson huquqlarini sud orqali himoya

qilishga oid jahon mamlakatlari qonunchiligining fundamental asosini tashkil etishi bilan birga ushbu soha rivoji yo'lida o'ziga xos yangi davrga asos soldi. "Xabeas korpus" instituti inson huquqlarini himoya qilish yo'lida kurashlar tarixida o'ziga xos iz qoldirgan, milliy jinoyat-protsessual qonunchiligi hamda umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarining muhim institutlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda, "Xabeas korpus" institutining joriy etilishi 2008-yildan ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi bilan joriy qilina boshlandi. Mazkur islohot bilan sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash masalasida, xususan, shaxsni lavozimdan chetlashtirish va tibbiy muassasaga joylashtirish kabi protsessual majburlov choralarini qo'llashda tatbiq etilishini taqozo etdi.

Jamiyat hayotining barcha jabhalarida izchil amalgalashirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zamirida fuqarolar manfaatini himoya qilish, sha'ni va qadr-qimmatini ulug'lash hamda erkin va farovon turmushini ta'minlash kabi oliyanob maqsadlar mujassamdir. Islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad - inson omili ekan, bugungi kunda milliy qonunchiligidan mustahkam o'rinn olgan yarashuv instituti to'g'risida alohida to'xtalish lozim bo'ldi.

Yarashuv instituti ilk marta milliy qonunchiligidan bundan 22 yil muqaddam joriy etilgan. Ya'ni 2001-yil 29 avgustda qabul qilingan "Jinojy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"dagi qonun asosida Jinoyat kodeksining 66-1-moddasida yarashilganligi munosabati bilan shaxsni jinojy javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutilgan. Mazkur huquqiy institut joriy etilgandan buyon qonunga kiritilgan o'zgartirishlar asosida takomillashtirib kelinmoqda. Natijada uning ta'sir doirasasi kengaydi va qo'llash tartibi soddalashtirildi. Hozirda yarashuv instituti tadbiq etiladigan Jinoyat kodeksining moddalari 46 taga yetganligi ham fikrimizga yaqqol dalildir.

Tahlillar shuni ko'rsatadi, ushbu institutning jinoyat qonunchiligiga kiritilishi jinojy-huquqiy munosabatlarni erkinlashtirishda samarali vosita bo'ldi. O'tgan davrda ushbu institut jabrlanuvchining huquqlarini ishonchli himoya qilish, mamlakatda sudlanganlik holatini kamaytirish, jinojy javobgarlikdan ozod qilish institutining kengroq qo'llanishiga imkon yaratdi.

Hayot sinovidan muvaffaqiyatlari o'tgan bu amaliyot endilikda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ishlarda ham keng qo'llanilmoqda. Bunga 2021-yil 4 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida"gi qonun [3] huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yarashganligi munosabati bilan shaxsni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish asoslari Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 212-moddada[4] belgilab qo'yildi. Yanada aniqroq aytganda, 12 turdag'i ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, sud uni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilib ishni tugatishi mumkin.

2012-yilning 18 sentabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining ayrim normalariga, shu jumladan, 29 va 31-boqlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, endilikda lavozimdan chetlashtirish va tibbiy muassasaga joylashtirish kabi protsessual majburlov choralar faqat sudning sanksiyasi asosida qo'llash tartibi qonunda mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4 sentabrdagi qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, belgilangan ehtiyyot choralarini doirasi kengaytirildi. Unga ko'ra gumon qilinuvchi, aylanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasi tanlash uchun asoslar mavjud bo'lganida uning yoshini, sog'lig'i holatini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuwofiq deb topilgan taqdirda shaxsga nisbatan uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasi qo'llash hamda uning muddatini uzaytirish sudlar vakolatiga berildi. Bu esa fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinishini muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 11 aprelda "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonuni [5]. qabul qilindi. Bu qonunga asosan parlament ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatini nazorat qila olish vakolatlari bilan ta'minlanadi.

O'tgan oxirgi yillar mobaynida sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyatining fuqarolarning huquqlari va qonunu manfaatlarni himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirish borasida bir qator muhim islohotlar amalgalashirildi. Jumladan, qamoq tarzidagi jinojy jazo turi tugatildi, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga, qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot choralarini qo'llashning, shuningdek jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergovning eng ko'p muddatlari yildan 7 oyga qisqartirildi. Shuningdek, jinoyat ishlari qo'shimcha tergov yuritish uchun qaytarish instituti bekor qilindi. "Xabeas korpus" instituti qo'llanishini yanada kengaytirish doirasida prokurolarning pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va eksqumasiya qilish kabi tergov harakatlarni o'tkazishga sanksiya berish bo'yicha vakolatlari sudlarga o'tkazildi, shuningdek, sudlarga qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasi qo'llash rad etilganda muqobil ehtiyyot choralarini qo'llash huquqi berildi. Sudyalarini tanlash va lavozimlarga tayinlashda noqonuniy aralashuvlarning oldini olish, bu borada ochiq, oshkora va muqobil tanlov tizimini yaratish maqsadida Sudyalar olyi kengashi ta'sis etildi. Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi asosida ilk bor suda lavozimiga muddatsiz tayinlash amaliyoti joriy qilindi.

Xorijiy mamlakatlarda bu masalaga ham alohida e'tibor qaratiladi, masalan: Slovakiyada sudyalar noma'lum muddatga tayinlanadi. Gruziyada sudyalarining vakolat muddati muammosi mavjud. Bugungi kunda sudyalarining vakolat muddati 10 yil qilib cheklab qo'yilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi 2018-yilning yanvar oyida tasdiqlandi va 2018-yil 1 apreldan kuchga kirdi. Ushbu kodekslar dunyoning taraqqiy etgan davlatlarining ilg'or tajribasini chuqr o'rganish, islohotlar jarayonida to'plangan boy tajriba asosida ishlab chiqilgan.

2018-yil 4 apreldagi "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni [6] bilan Jinoyat kodeksiga dalillarni, tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirganlik uchun jinojy javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar kiritilgani huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari mansabdon shaxslarining mas'uliyatini yanada oshirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6 yanvardagi "Sudyalar lavozimlari nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi Qarori[7] bilan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzurida Sudyalar oliy maktabi tashkil etildi. 2019-yil 14 yanvardagi “Jabrlanuvchilarini, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi jabrlanuvchi, guvoh va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog‘lig‘i hamda mol-mulkini himoya qilishning qonuniy kafolatlarini belgilab berdi. Qonunchilikka kiritilgan ushbu o‘zgartish va qo‘sishimchalar, tergov va sud organlari tomonidan asossiz ravishda to‘plangan dalillardan foydalanish, fuqarolarni asossiz ravishda ushlab turish, kuttirish, ortiqcha mablag‘ sarflab tergov va sud binolari oldiga takror va takror kelib ketishlarining oldini oldadi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida odil sudlovgaga erishish darajasini oshirishda “Xabeas korpus” institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish [8] ustuvor vazifa sifatida belgilanishi “Xabeas korpus” institutining tamoyillarini milliy qonunchiligmizda yanada kengroq aks ettirish uchun muhim omil bo‘ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvida “Xabeas korpus” institutini rivojlantirish zarurligi, shaxs sudning qaroriga qadar ko‘pi bilan qirq sakkiz soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi normani hamda sud tomonidan shaxsni hibsga olish yoki unga nisbatan boshqacha turdagisi ozodlikni cheklash haqidagi qaror belgilangan muddatda qabul qilinmasa, bunday shaxsni darhol ozod qilish kerakligi haqidagi normalarni Konstitutsiyada aks ettirish yuzasidan takliflarini bildirgan. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining 27-moddasida “Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas” [9] ligi hamda qat‘iy norma sifatida belgilab o‘tildi. Ushbu norma tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgandir. “Xabeas korpus” instituti doirasini kengaytirish jarayonining mantiqiy davomi sifatida xususiy mulk daxlsizligi va shaxsiy hayot daxlsizligini cheklashga oid tergov harakatlарining barchasi (telefon va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali so‘zlashuvlarnieshitib turish, tintuv, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash, mol-mulkni xatlash) faqat sudning ruxsat bilan o‘tkazilishi tartibi Konstitutsiyaviy norma sifatida belgilandi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaviy normaga binoan, mazkur huquqlarning cheklanishiga faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibda, sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi. Konstitutsiyamizning yangi tahririda, mazkur qoida bilan fuqarolarning shaxsiy hayot, uy-joy va xususiy mulk daxlsizligi huquqlari yanada mustahkamlandi. Endi tergovchi, surishtiruvchi va prokuror tintuv o‘tkazish, telefon so‘zlashuvlarini eshitish va mulknini xatlash zaruratini sudga asoslantrishi kerak bo‘ladi[10]. Bu orqali xalqaro e’tirof etilgan “Xabeas korpus” institutini qo‘llanish ko‘lami yanada kengaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida ta‘kidlash joizki, Xabeas korpus akt – bu shaxs erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sudning qarori asosida amalga oshirilishi shartligi talabi hisoblanadi va shaxsiy erkinlik daxlsizligini kafolatlab, tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan.

## ADABIYOTLAR

- Charles II, 1679: An Act for the better secureing the Liberty of the Subject and for Prevention of Imprisonments beyond the Seas. British History Online (англ.). [www.british-history.ac.uk](http://www.british-history.ac.uk). Дата обращения: 27 января 2020. Архивировано 3 ноября 2018 года.
- О дискуссии по вопросу о возникновении Habeas Corpus см.: Joseph Dale Robertson. Habeas Corpus The most extraordinary writ // доступно в Интернете по адресу: <http://www.habeascorpus.net/asp>, С.А. Пашин. Анализ законодательства стран Центральной Азии (Казахстан, Узбекистан, Кыргызстан) о введении судебного санкционирования ареста. Центр исследования правовой политики (LPRC), Алматы, 2009, С. 11-12, также доступно в Интернете по адресу: [http://www.lprc.kz/ru/index.php?option=com\\_content&task=view&id=74](http://www.lprc.kz/ru/index.php?option=com_content&task=view&id=74)
- O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.10.2021 yildagi O‘RQ-720-son. <https://lex.uz/docs/5667137>
- O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA‘MURIY JAVOBGARLIK TO‘G‘RISIDAGI KODEKSI 212-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 4-oktabrdagi O‘RQ-720-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.10.2021-y., 03/21/720/0930-son) <https://lex.uz/docs/-97664>
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining qo‘shma qarori, 02.05.2016 yildagi 440-III-son/ <https://www.lex.uz/ru/docs/-3209467>
- O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 04.04.2018 yildagi O‘RQ-470-son. <https://lex.uz/docs/3609511>
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.01.2019 yildagi PQ-4096-son/<https://lex.uz/docs/-4141425>
- PF-60-son 28.01.2022.2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
- 30.04.2023.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
- Rahmonova S.“Miranda qoidasi” va “Xabeas korpus” instituti-huquqlarimizning muhim konstitutsiyaviy kafolati”. <https://gk-usbekistan.de/uz/2023/03/23/ozbekcha>



*Eldor SATTOROV,*

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'quv-metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari*

*Tarix fanlari doktori, professor I.Azimov taqrizi asosida*

## REFLECTION OF SOCIAL LIFE IN SUGDH IN THE EARLY MIDDLE AGES IN ARCHAEOLOGICAL FINDINGS

### Annotation

In this article were studied the social lives of the early medieval Soghd based on the analysis of archaeological finds. The lifestyle, interests and customs of the Sogdians are also shown with the help of archaeological artifacts.

**Key words:** Early Middle Ages, Soghd and sogdians, Penjikent, Zandana, Vador, Iskajkat, Narshakhy.

## ОТРАЖЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ В СОГДЕ В РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ В АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ НАХОДКАХ

### Аннотация

В данной статье была изучена социально-бытовые процессы раннесредневековой Согда на основе анализа археологических находок. Также показаны образ жизни, интересы и обычаи согдийцев с помощью археологических артефактов.

**Ключевые слова:** Раннее средневековье, Согд и согдийцы, Пенджикент, Зандана, Вадор, Искаджкат, Наршахий.

## ILK O'RТА ASRLARDA SUG'DDAGI IJTIMOIY HAYOTNI ARXEOLOGIK TOPILMALarda AKS ETISHI

### Annotatsiya

Mazkur maqolada ilk o'rta asrlar Sug'dd kechgan ijtimoiy-maishiy jarayonlar arxeologik topilmalarning tahlili asosida taddiq qilingan. Shuningdek, sug'diyarning turmush tarzi, qiziqishlari va mashg'ulotlarini arxeologik artefaktlar orqali ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ilk o'rta asrlar, Sug'd va Sug'diyalar, Panjikent, Zandana, Vador, Iskajkat, Narshaxiy.

**Kirish.** Ilk o'rta asrlarga kelib madaniy, iqtisodiy va siyosiy hayotning turli jihatlari ijtimoiy hayotda o'z izini goldirgan. Sug'dda ijtimoiy madaniyat turli vositalar orqali ko'zga tashlanadi. Bu ayniqsa, arxeologik tadqiqotlar natijasida ko'proq namayon bo'ladi. Arxeologik materiallarning bu boradagi muhim xususiyati shuki, ular orqali nafaqt ishtimoiy hayotga oid ma'lumotlar, balki, sug'diyarning mafkuraviy va diniy qarashlariga oid ma'lumotlarni ham qo'lga kiritish mumkin.

Sug'dning ijtimoiy-siyosiy tarixiga nazar solsak, uzoq yillik sivilizatsiya taraqqiyoti davomida bu yerda asosan qabila ittifoqlari yoki birlashmalar mavjud bo'lib, rivojlanish konfederativ shaklda kechganligini guvohi bo'lamiz. Sug'diyalar Buyuk ipak yo'lidagi savdo sabab zamonasining barcha yangiliklarini o'zlarining ijtimoiy hayotiga targ'ib qilishgan. Ular o'zlaridan oldingi xalqlar madaniyatlarining yutuqlarini o'zlashtirib uni davom ettirishgan. Jumladan, Panjikentda yunon-ellin an'analar saqlanib qolgan. Shahardagi ibodatxonalar rejalar, istehkomlarning tuzilishi, devoriy suratlar, haykaltaroshlik, kulolchilik kabi sohalarda buni ko'rishimiz mumkin. Masalan, Panjikent shahridagi devoriy suratlar orasida o'ziga xos burchakli tarzda g'azab bilan qoshlarini burishtirgan otlar va sherlar tasviri aks etgan bo'lib, ular Oyxonim va Nisodagi haykallar bilan o'xshashligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan [8]. Shuningdek, ellenizm va qadimgi sharq madaniyati unsurlari aks etgan Panjikent va Taxti Sangin ibodatxonalarining rejalar taqqoslanganda deyarli farq qilmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Qadimgi Sug'd jamiyatida mavjud bo'lgan jamiyat hayotidagi ijtimoiy nazorat, adolatga asoslangan tuzilma ilk o'rta asrlarga kelib ayrim o'zgarishlarga uchragan. Jumladan, ilk o'rta asrlarda

Samarqandda shakllangan adolatli ijtimoiy tuzilma to'g'risidagi ma'lumotlar "Kichik Qandiya" asarida quyidagicha qayd qilingan: - "...barcha podshohlar olovga sig'inishgan, Xudo xalqigaadolat ko'rsatgan va odamlarni adolatli hukm qilishgan. Ular Samarqand shahrining poydevori qonun vaadolat asosida qurilganligini bilishgan. Samarqand shahri aholisi mag'rurdir. Ular bilan faqat yumshoqlik, mehr, muloyim so'zlar bilan til topishishingiz mumkin" [5]. Ayni manbadagi "Maorif-al-bayan" kitobida keltirilgan fikrlar ham yuqoridaq ma'lumotni quvvatlashga xizmat qiladi. Samarqand aholisiga yumshoqlik ko'rsatgan har bir podshoh barqaror hukmdorlik topganligi va ularga qarshi zo'ravonlik qilgan har bir podshoh o'z shohligini yo'qtganligi haqida hikoya qilingan. Ehtimol ta'riflangan jarayon Tarxun hukmronligining tugatilishiga ham ham ta'sir ko'rsatgandir. Tarixiy manbada keltirilgan ma'lumot Sug'd hukmron tabaqasi va shahar aholisinig ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ahamiyati va demokratiyaning o'ziga xos xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sug'd jamiyatining demokratik o'ziga xosligi jamiyatda oddiy xalq vakillarining zodagonlar qadriyatlarining inkor qilishida emas, balki ular tomonidan ushbu qadriyatlarни qabul qilinib, ularga intilishda ifodalangan[14]. Buni biz sal o'tib XIV-XVI asrda bir qancha Yevropa davlatlari bu yo'lni bosib o'tishganligining guvohi bo'lamiz. Ayni davrga kelib zodagonlarning qahramonliklari madh etilgan ritsarlik eposi, ritsarlik romanlarini shahar aholisi ko'proq yaxshi ko'rishgan [7].

Ilk o'rta asrlarda Sug'd jamiyatining ijtimoiy hayotini to'liq tasvirlashda qishloq va shahar tipidagi manzilgohlar va ularda istiqomat qiluvchilarning faoliyatini o'rganish muhim samara beradi. Chunki, hozirgi kunda ham aholi yashash

joyiga qarab ijtimoiylik jihatdan shaharlik yoki aksiga bo'linadi. Shu nuqtai-nazardan, Sug'd qishloqlari to'g'risida mintaqadagi olib borilgan arxeologik tadqiqot natijalari boy ma'lumotlar beradi.

A.Yu.Yakubovskiy "Movarounnahr qishloq aholisining aksariyati jumladan, sug'diyalar ham mustahkam qal'a sifat aholi maskanlarida yashagan" deb ta'kidlagan [13]. Xitoy yilnomalarida ham Janubiy Sug'dda 500dan ortiq shaharlar (aslida qishloq makonlari) bo'lgan deya keltiriladi [4]. Jumladan, Zahoki-Moron va Mudintepada mulkiy tabaqalanishni o'zida aks ettiruvchi sug'diyalar qishloq jamoasining turar joylari qazib o'rganilgan. Zahoki-Moron to'rtburchak shakldagi aholi punkti bo'lib 16 hektarni tashkil qilgan bo'lsa, Mudintepa qo'rg'oni taxminan 1,5 hektar maydonni egallagan [16]. Topilgan ashayolar ijtimoiy xususiyatni aniqlashda qo'l keladi. Masalan, boylarning uylari oddiy odamlarning uylaridan nafaqat hajmi balki bezaklari va topilmalar miqdorining ko'pligi hamda tayyorlanish texnikasining sifatini ekanligi bilan ham keskin farq qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Faqtgina yodgorlikning tashqi ko'rinishi, uning hajmi, ijtimoiy hayotni to'liq o'chib bermaydi. Ushbu, jarayonda yozma manbalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Narshaxiyning ta'kidlashicha, dehqonlar ko'shi saroylari bozor maydoniga ega bo'lgan. Ko'p hollarda ular yaxshi mustahkamlangan handaqlar bilan o'rangan. Deyarli har bir qishloq kichik bir hunarmandchilik markazi bo'lib, biron bir hunarmandchilik turi bilan mashhur edi. Zandana, Vador, Iskajkat kabi qishloqlar shular jumlasidan sanalgan [12]. Narshaxiyning ma'lumotlari yuqorida ta'kidlagan arxeologik faktlarni quvvatlab qishloq jamoasi yashash sharoti va ijtimoiy mashg'uilotlari to'g'risida keng tasavvurni shakllanishiga yordam beradi.

Ilk o'rta asrlarda Sug'd ijtimoiy hayotini tadqiq qilishda shaharliklarning kundalik turmush tarzini o'rganish muhimdir. Shahar aholisini birlashtirib turuvchi vosita shahar turmush tarzi bo'lgan. Shahar aholisi o'rtaidagi o'zaro tabaqaviy notenglik va to'siqlari qishloqdagidek sezilarli darajada yuqori bo'lмаган. Ilk o'rta asrlarga oid Panjikent, Afrasiyob, Varaxsha kabi shaharlarda olib borilgan arxeologik qazishmalarda qashshoqlikni ifodalovchi, o'zarो keskin fark qiladigan turur-joylar topilmaganligi buni asoslashi mumkin. Bunday turmush tarzini shakllanishiga mohir hunarmandlarning shaharda alohida mahallasi shakllanganli ham sabab bo'lgan[9]. Shuningdek, boylik va u beradigan imtiyozlarga bo'lgan intilish aholining keng qatlamenti egallab olgan. Shahar aholisi bir-biri bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishganda bitimlar erkinlik va tenglik tamoyili asosida tuzilgan. Masalan, Mug' tog'i arxivi hujjatlaridagi B-8, B-4 kabi shartnomaviy hujjatlarda bu yaqqol namoyon bo'ladi [15]. Yuqorida sanab o'tilgan omillar zodagon qatlaming shaharda yakkalanib qolishining oldini olib qishloqdagisi tabaqaviy jamiyatga zid shaharliklar jamoasining madaniyatini shakllantirgan.

Ilk o'rta asr Panjikent shahrini tadqiq qilish shaharliklarning maishiy hayotida raqobat ruhi shakllanganligini ko'rsatadi. Barcha shahar aholisi o'zining faoliyati orqali jamiyatga ta'sirini ifodalashga harakat qilgan [1]. Shahar hunarmandchiligidagi raqobatbardoshlik mahoratga asoslangan. Ijtimoiy-maishiy madaniyatda ularning mahsulotlari texnik va badiiy mukammallikni birlashtirgan omil hisoblangan. Natijada, hunarmandchilik va san'at namunalari bir xil uslubda turli xil badiiy tushunchalar va yechimlarni namoyish etgan. Fikrimizcha, jamiyatda bunday sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga homiylik qilgan va bundan manfaatdor guruh mavjud bo'lgan. Ularga asosan aslzodalar rahbarlik qilgan. Bu to'g'rida, bizda aniq ma'lumot yo'q bo'lsa-da, tranzit savdodagi raqobat va olinadigan foyda shuni taqozo qilgan deyishimiz mumkin. Taniqli olim

B.Marshakning, "agar individual raqobatdosh ustalarni boshqaruvchi va rag'batlantiruvchi badiiy muhit bo'lmasa yagona uslub paydo bo'lishi mumkin emas" degan fikri buni tasdiqlashi mumkin[10].

Ilk o'rta asr shaharlari orasida Panjikent shaharning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Maishiy hayotda dabdbabal turmush tarziga talab va taklifning yuqori darajasi mavjudligini ko'ramiz. Sug'dda shahar aholisining ijtimoiy-moddiy ahvoldidan qat'iy-nazar ijtimoiy hayot ularni birlashtirib turgan. Masalan, kundalik hayotda jamiyatning barcha qatlamlari bir xil sopol idishlardan foydalananishgan. Yuqori darajadigi san'at jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan. VII-VIII asrlarga kelib, sug'diyalar tashqi ko'rinishi jihatdan kumush idishlarga o'xshaydigan sopol buyumlardan keng foydalananishgan. Arxeologik topilmalarda ijtimoiy hayotni ifodalovchi maishiy jihozlarda amaliy va badiiy san'atni ifoda etuvchi jihatlarni singdirish kuchaygan. VIII asr boshlarida Panjikent turar joylarining 3/1 qism turarjoy binolari devorlarida mahorat bilan chizilgan suratlarning aks etganligi yuqoridagi fikrni kuchaytiradi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasi sug'diyarning o'yin kulgiga o'ch ekanligini ko'rsatadi. Masalan, Panjikentdagi tadkikotlar davomida bo'yи 5-7 sm dan oshmaydigan, loydan yasalgan, qo'l mexnati asosida yasalganligi uchun bir-biriga o'xshamaydungan, anchayin qo'pol itni eslatuvchi uzunchoq ashayolar topilgan. A.M. Beleniskiy bunday geometrik shakldagi o'ynn toshlarini Beruniy o'zining "Mineralogiya" asarida narda o'yinida ishlataligilagini keltirgan [3]. Panjikent devoriy suratlari ham buni tasdiqlashga xizmat qiladi. Devoriy suratda bir to'da odamlar aks ettirilgan, ulardan ikkitasi o'yin o'ynamoqda. Ular o'rtaida tomonlari ikki xil bo'yalgan o'yin taxtasi turibdi. Taxtaning ikki qismi xam besh gorizontal qismidan iborat. O'yin toshlarining hammasi bir xil ko'k rangga bo'yalgan. O'yin jarayoni boshlanmaganligini o'yinchilarning biri suyakni endi tashlamoqchiligi ko'rsatib turibdi [5]. Bu o'yin narda o'yini ekanligiga shak-shubha qoldirmaydi.

Panjikentdagi qazishmalar chog'ida bir-necha juft to'piq suyaklari topilgan. Bu esa hozirda ham xalq orasida oshiq o'yini deb nom olgan o'yinining sug'diyalar tomonidan o'ynalganligini asoslaydi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Panjikentdan sompson yasalgan har xil hayvon va o'yinchoklar topilganligi bolalarning ham o'ziga xos o'yinlari bo'lganligini izohlaydi.

O'yinlar va ko'ngilochar tomoshalar deganimizda e'tiborimizni o'yinchoqlarga ham qaratmoqchimiz. O'yinchoqlarni tasniflaganda, ovozli (sensor o'yinchoqlar) shaqildoqlar, chiraldoqlar (bunday o'yinchoqlar asosan, chaqa-loqlarni ovuntirishda ishlataligan); harakat o'yinchoqlar: (motor o'yinchoqlar) oshiq, shaxmat, narda; qurollar: kamon, qilich, nayza; timsolli o'yinlar, qo'g'irchoq, real xo'jalikda ishlatalidigan mehnat qurollari va idishlar shaklini takrorlaydigan qurol va idishlar ham shular sirasiga kirdi. Ular asosan bolalarning mehmon-mehmon o'yini kompleksida ishlatalgan.

**Xulosasi.** Sug'diyarning maishiy hayotida asosiy ahamiyat kasb etadigan jihatlar oziq-ovqat, uy-joy, kiym-kechaklar hisoblanadi. Mazkur omillar avvalambor, tabiiy geografik sharoit, iqlim va xo'jalik xususiyatlari, an'anaviy etnik xususiyatlari bilan bog'liq. Ovqatlanish komponentlari tarkibiga dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ham kiritish maqsadga muvofiq [11]. Panjikent devoriy suratlari va arxeologik topilmalarda topilgan artefaktlar fikrimizni asolashga xizmat qiladi [2]. Mavjud arxeologik manbalar asosida etnografik-madaniy yondashuvga asoslanib sug'diyarning ovqatlanish jarayonini qayta tiklash ovqat tayyorlash va uni iste'mol qilish jarayonini ifodalash mumkin.

**ADABIYOTLAR**

1. Marshak B.I. On the Iconography of Ossuaries from Biya-Naiman // Silk Road Art and Archaeology. – Kamakura, 1995/96. – Vol. 4. – P. 308.
2. Беленицкий А.М. Монументальное искусство Пенджикента. Живопись, скульптура. – Москва: Искусство, 1973. – 65 с.
3. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Больщаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Ленинград: Наука ЛО, 1973. – С. 130-131.
4. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – Москва-Ленинград, 1950-1953. – Т. I, – Т. II, – Т. III.
5. Фойибов Б. Панжикент деворий суратларида халкнинг маданий-маиший ҳаёти / “Ўзбекистон тарихи” кафедраси катта ўқитувчиси С.И.Шариповнинг 60 йиллигига бағишлиланган “Ўзбекистон тарихи асрлар силсиласида” мавzuидаги илмий конференция материаллари. – Самарқанд, 2010. – Б. 38-49.
6. Кандия Малая / Перевод В.Вяткина // Справочная книжка Самаркандской области. – Вып. VIII. – Самарканд, 1906. – С. 240.
7. Каракина Е.П. Культура средневековой Европы // Учебное пособие размещено на сайте: «Средние века и Возрождение». <http://svr-lit.niv.ru/>
8. Литвинский Б.А., Пичикян Р. Тахти-Сангин – каменное городище (раскопки 1976–1978 гг.) // Культура и искусство древнего Хорезма. – Москва, 1981. – С. 135.
9. Маршак Б.И. Влияние торевтики на согдийскую керамику VII-VIII веков. // Труды Государственного Эрмитажа. – Т. V. – Ленинград, 1961. – С. 179.
10. Маршак Б.И., Распопова В.И. Адоранты из северной капеллы и храма Пенджикента / Проблемы интерпретации памятников культуры Востока. – Москва, 1991. – С. 164.
11. Маршак Б.И., Распопова В.И. Кочевники и Согд // Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. – Алма-Ата, 1989. – С. 128.
12. Наршахий Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи / Форс-тожик тилидан таржима А. Расуловники. – Тошкент: Фан, 1966. – 120 б.
13. Неразик Е.Е. Сельские поселения Афригидского Хорезма (По материалам Беркут-калинского оазиса). – Москва: Наука, 1966. – С. 13.
14. Распопова В. Раннесредневековый согдийский город (по материалам Пенджикента): дисс. ... д-ра ист. наук в форме научного доклада. – Санкт-Петербург, 1993. – С. 32.
15. Согдийские документы с горы Муг. Юридические документы и письма. – Вып. II / Чтение, перевод, комментарии В.А.Лившица. – Москва, 1962.
16. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб: Проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н. э. – VII в. н. э. – Ташкент: 2000. – С. 16.



**Bozorgul O'RINOVA,**  
BuxDU dotsenti, t.f.n  
E-mail:bazargul – urunova 11

BuxDU professori, t.f.d S.Inoyatov taqrizi asosida

## THE ROLE OF THE PRESS IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT UZBEKISTAN

### Annotation

The article analyzes increasing role of periodical press bodies and their importance in ensuring the well-being of our people in the context of sustainable development of Uzbekistan, works of specialists in the field of ensuring the economic, political and cultural integration of Uzbekistan into the world community. The article also reveals the increase in the number of speeches on the topic in the press bodies of the republic and regions based on the analysis of the articles.

**Key words:** Independence, press, information, state, society, world, progress, publishing, legal, reform, citizenship, government, research, journalism.

## РОЛЬ ПРЕССЫ В ПРОГРЕССЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НЕЗАВИСИМОГО УЗБЕКИСТАНА

### Аннотация

В данной статье проанализировано повышение роли периодической прессы в контексте устойчивого развития Узбекистана, её чрезвычайная важность в обеспечении благополучия нашего народа, выполнен обзор работ специалистов в области обеспечения экономико-политической и культурной интеграции Узбекистана в мировое сообщество. Также в статье, на основе анализа публикаций, выявлен рост количества выступлений по данной теме в органах печати республики и регионов.

**Ключевые слова:** Независимость, пресса, информация, государство, общество, мир, прогресс, издательство, правовой, реформа, гражданство, власть, исследование, журналистика.

## MUSTAQIL O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH TARAQQIYOTIDA MATBUOTNING ROLI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning barqaror rivojlanish kontekstida davriy matbuot organlarining rolini kundan-kunga oshib , takomilida xalqimiz farovonligini ta'minlashda ularning roli nihoyatda muhimlik kasb etayotganligi , O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga iqtisodiy – siyosiy, hamda madaniy integratsiyalashuvini ta'minglashda soha mutaxassislari asarlari tahlilga tortilgan . Shuningdek maqolada respublika va viloyatlar matbuot organlaridagi mavzuga oid chiqishlar sonining ortib borishi maqolalar tahlili asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mustaqillik , matbuot , axborot, davlat , jamiyat, jahon, taraqqiyot, nashriyot, huquqiy, islohot, fuqarolik, hokimiyat, tadqiqot, jurnalistika.

**Kirish.** Mustaqillik sharoitida O'zbekiston jamiyatida kuchli demokratlashuv jarayoni yuz bermoqda. Jamiyatni demokratlashtirishni esa vaqtli matbuotni rivojlantirmasdan, uni yangi yo'naliшgа solmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Jahon hamjamiyatidagi yuz berayotgan globallashuv , axborot – informasiyasi muhitidagi takomillashuv , shuningdek, hozirgi g'oyalar kurashi jamiyat ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy – mafkuraviy, axloqiy – ruhiy holatiga to'g'ri , xolisona baho berish vaqtli matbuotning rolini ahamiyatini oshirmoqda. Shunday sharoitda davlat va jamiyatning rivojlanish strategiyasida matbuot vositalarining o'rni va rolini o'rganish, ilmiy tahlil qilish zarurati sezilmoxda. Bugungi kunda matbuot sahifalarida yoritilgan maqolalarda mamlakatda qurilayotgan demokratik jamiyat uning ma'naviy, axloqiy, huquqiy tamoyillari bilan hamohangligi takidlاب o'tiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Vaqtli matbuot tarixi doimo O'zbekiston tarixchilarini, va boshqa gumanitar fan olimlarining diqqat markazida bo'lgan. Ayni paytda mazkurni muammo mustaqillikka qadar doimo u yoki bu mafkurani targ'ib etish masalalari bilan hamohanglikda yozilgan.

Vaqlı matbuot, uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madani hayotidagi o'rni va roli masalasi ma'lum ma'noda O'zbekiston mustaqilligini, uni mustahkamlash jarayonlar, A. Jalolov, R. Jumayev, N. Jo'rayev, S. Shermuhamedov, M. Gafarli, A. Kasayev kabi olimlar vaqtli

matbuotning mustaqillik yillardagi faoliyatini umumlashtirib, milliy matbuotni "to'rtinchı hokimiyat" darajasiga ko'tarish borasidagi fikr-mulohazalarni bildirishgan[1]. O'rganilgan davr matbuoti tarixining barcha tadqiqotlari, shubhasiz ilmiy, publisistik, tarixshunoslik va adabiyotshunosligimiz rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston matbuoti tarixini yangidan tadqiq etishga kirishgan olimlar: Y.Mamatova, N.Qosimova, M.Abdurasulov, Q.Jo'rayev,M.Mirnosirov kabilar "O'zbekiston adabiyoti va sa'ati", "Xalq so'zi", "Sharq yulduzi", "Muloqot", "Tafakkur", "Fan va turmush", "O'zbekiston tarixi", "O'zbekiston matbuoti" kabi gazeta-jurnallar tahliliga e'tibor qaratdilar. Mustaqillik yillarda O'zbekiston olimlari vaqtli matbuot tarixi, nazariysi, amaliyoti bilan bog'liq bir qator dissertatsiyalarni tayyorladilar. Ularning ayrimlari bevosita vaqtli matbuot tarixi, nazariysi masalasiga taalluqli bo'lsa, qolganlarida ushbu masalalar boshqa muammolar bilan uyg'unlikda hal etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ishi umum qabul qilingan tarixiy metodlar – qiyosiy statistik va mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, tarixiylik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda mustaqillik matbuoti solnomasi yaratishda katta ahamiyatga ega bo'lgan, davr tarixini aks ettiruvchi manbalar o'rganilgan hamda tadqiqot jarayonida ko'plab manbalar ilmiy muomalaga jalb etilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ulkan texnik taraqqiyot, shu bilan bir vaqtida olamshumul voqia – hodisalar, qirg‘inbarotlar siyosiy qatlisliliklarga boy bo‘lgan yuz yillik nihoyasida o‘z istiqolliga erishgan O‘zbekiston oldida bir siyosiy tuzumdan boshqasiga o‘tishdek murakkab mas‘uliyatlari vazifa ko‘ndlangu bo‘lganligi, xuddi shu ulkan vazifalar qatorida respublikamizda ommaviy axborot vositalari tizimini butkul yangi va zamonaviy demokratiya talablari asosida qurishdek tarixiy maqsadlar ham borligi, mustaqillik poydevorini mustahkamlashga bag‘ishlangan rang-barang maqolalar tahlil asosida dallangan.

“Matbuot va axborot vositalarini to‘rtinchli hokimiyat sifatida e’tirof etish huquqiy davlat oyoqqa turishining muhim shartlaridan ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas”, - degan edi Islom Karimov xorijiy axborot agentligi muxbirining savoliga javoban. “Modomiki, O‘zbekiston erkin, ochiq huquqiy demokratik davlat qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ekan, bu shartlarni so‘zsiz bajarish kerak. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qonunlari ham aynan mazkur mezonlardan kelib chiqib yaratildi”[2].

Bugungi hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etish qiyin. Sababi, ular odamlarni muayan hududda va jahon ayvonida sodir bo‘layotgan muhim ahamiyatga ega yangiliklar hamda o‘zgarishlardan tezkor ravishda boxabar qiladi. Bundan tashqari ayrim voqeada qoldalsalarga nisbatan keng jamoatchilik fikrini shaklantirib, turli sohalar rivojiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa huquqiy demokratik adolatlari va kuchli fuqarolik jamiyatni qurishda, qonun ustuvorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois mustaqillik yillarda yurtimizda OAVga demokratik islohotlarni jadallashtirish va inson manfaatlarini muhofaza qilishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda, uning huquqiy kafolatlari yaratilganligi ham matbuot sahifalarida berilgan maqolalarda to‘liq aksini topgan: “Matbuot va uning huquqiy asosları”, “Axborot sohasini isloh qilishning ahamiyati va zarurati, ”Milliy axborot makonini mustahkamlash -davr talabi, “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida OAV faoliyatining ishtirot etishi uchun huquqiy asoslar yanada mustahkamlashmoqda”, kabi maqolalarda bu dolzarb mavzu mohiyati chuqur tahlil etilgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston matbuoti va axborot agentligi tomonidan gazeta, jurnal, axborotnoma, byuleten’, radio, televide niye axborot agentligi veb - sayt kabi yetti turdag‘ OAVi davlat ro‘yxatiga olinmoqda. Shu jarayonda ularning soni tobora ko‘payib borayotganini kuzatish mumkin .

“1991 yili diyorimizda 343 ta gazeta, 50 ta jurnal, 1ta televide niye, 1 ta axborot agentligi-jami 395 ta OAV bor edi. 2010 yilda ularning soni 1218 taga yetdi. Shundan 696 tasini gazetalar, 250 tasini jurnallar, 17 tasini axborotnoma-byuletinlar, 4 tasini axborot agentliklari, 65 tasini televide niye, 36 tasini radio, 150 tasini veb-saytlar tashkil etadi”.

Joriy yilning iyuliga qadar esa, “1635 ta OAV ro‘yxatdan o‘tkazildi. Ularning, 665 tasi gazetalardan, 365 tasi jurnallardan, 15 tasi axborotnoma-byuletinlardan, 4 tasi axborot agentligidan, 70 tasi televide niyedan, 37 tasi radiodan, 480 ta veb-saytdan iborat” [3]. Nashrlar soninig oshishi bilan bir qatorda ularning sifati mazmun mohiyatidagi o‘zgarishlar ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu borada, Respublikamiz mustaqillik poydevorini yaratishga bag‘ishlangan , rang - barang maqollalarda matbuotning O‘zbekiston bosib o‘tgan yo‘li va O‘zbekistondagi muhim iqtisodiy - siyosiy ma‘naviy - ma‘rifiy sohalaridagi islohotlarni amalga oshirishdagi roli va o‘rnii benihoya ekanligiga, tom ma‘nodagi to‘rtinchli hokimiyat maqomida faoliyat olib borayotganligiga to‘la ishonch hosil qilish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki bugungi kunda , huquqiy tarbiya va fuqarolar huquqiy savodxonligini

oshirishda matbuot vositalari samarali faoliyat olib borayotganligi tahsinga loyiqidir. Ijtimoiy adolatsizlik, demokratiya va oshkorallikning kushandasidir. Shu ma‘noda o‘z faoliyatini ushbu yo‘nalishda olib borayotgan nashrlarimiz: “Ijtimoiy fikr, inson huquqlari”, “Postda”, “Maskan”, ”Xo‘jalik va huquq”, “Hayot va qonun” kabi gazeta jurnalar diqqatlarini dolzarb muammolarga qaratdilar. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining ta’sirchanligi bois kishilar qalbi va ongida jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan tub ijobji o‘zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayrihohlik va birdamlik kayfiyati faollashmoqda.

Demokratiya tushunchasining shu qadar bahsli shu qadar mulohaza qilib ko‘riladigan o‘rinlari bor ekanki, hozirda G‘arb matbuotida emin-erkin qo‘llanilayotgan ayrim jurnalistik vositalardan milliy matbuotchiligidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalinish, afsuski, ko‘p jihatlardan milliy axloqimiz, milliy tushunchalarimiz va qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmasligi Sherzodxo‘ja Abduazimxo‘ja o‘g‘lining “Xalq so‘zi” gazetasida berilgan “Milliy ruhga sadoqat” maqolasida tahlil qilingan. Mamlakatning har bir fuqarosi, fuqarolik instituti faoliyatlarida keng ishtirop etishadi va ular orqali siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy ma‘naviy va huquqiy jihatdan o‘z ehtiyojlarini qondiradilar. Bu borada esa matbuot organlarining faolligi zarur hisoblanadi.

Ishda tahlil qilingan matbuot vositalari talqinidagi yosh olimlar va jamoatchi muxbirlar materiallaridan shu narsa ayon bo‘ldiki, hozirgi paytda mamlakatimiz axborot makonida haqiqiy fikrlar xilma-xilligi shakllanib bormoqda. Jumladan, yurtimizda faoliyat yuritayotgan har bir siyosiy partiya o‘z gazetasiga ega. Bu o‘rinda “O‘zbekiston ovozi“, ”Milliy tiklanish“, ”Fidokor“, ”Adolat“, ”XXI asr“ kabi gazetalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Shuningdek, bu davorda mamlakatimiz yangi nashrlari “Xalq so‘zi”, ”Hurriyat“, ”Soliq to‘lovchining jurnali“, ”O‘zbekiston havo yo‘llari“, ”Paxtachilik“, ”O‘zbekiston avtomobil sanoati“ kabi gazeta va jurnallari chop etila boshlandi[4]. Mustaqillik yillarda Respublikamizning viloyatlarida ham yangi nashrlar paydo bo‘ldi. Nukusda ”Amu tongi“, Toshkenda ”Kommerchskiy vestnik“, ”Mahalla“, Samarcandda ”Karvon“, Andijonda ”Hissador“, Karshida ”Kamolot“, Urganchda ”Tadbirkor“, Namanganda ”Namangan futboli“, Navoiyda ”Ishbilarmon odamlar uchun“ Buxoroda ”Buxoro mavjari“, Xivada Xorazm viloyati o‘lkashunoslik jamiyatining ”Xiva“ bezakli adabiy-badiiy jurnallarining chop etila boshlanishi vaqtli matbuotda demokratik jarayonlarning takomillashib borishi bilan hamohanglikda amalga oshdi[5]. Ayni paytda yangi iqtisodiy yo‘nalishdagi, bank tizimidagi o‘zgarishlar va iqtisodiyotni yanada chuqurlashtirish bilan bog‘liq masalalarni yorituvchi alohida jurnalistika tizimi ham shakllanmoqda. Qolaversa, diniy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi »Islom nuri«, »Imom al-Buxoriy saboqlari«, »Mavarounnahr musulmonlari«, »Hidoyat«, »Mo‘minalar« kabi nashrlar paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan «Taraqqiy» gazetasi tashkil topgan sana – 27 iyun mamlakatimizda “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni”[6] deb e’lon qilindi. Mustaqillik sharoitida Respublika vaqtli matbuot tizimida ro‘y bergan eng muhim o‘zgarishlardan biri – o‘zbek tilidagi nashrlarning ko‘payishi bilan birga, Respublikada yashovchi boshqa xalqlar, masalan, o‘zbeklar, qozoqlar, turkmanlar tilida maxsus ro‘znomalarining tashkil etilishidir. Mamlakatimizda 153 gazeta va jurnal turli tillarda nashr qilinadi , ular orasida ikki, uch , hatto, to‘rt tilda chop etiladigan nashrlar ham bor [6]. O‘zbekiston respublikasi ommaviy axborot vositalarining erkin deb e’lon qilinishi va “Ommaviy axborot vositalari tug‘risidagi” maxsus qonunning qabul qilinishi muhim siyosiy-madaniy voqea bo‘ldi[7].

Umuman olganda, jurnalistikaning haqiqiy “to'rtinchı hokimiyat” ga aylanishi uchun quyidagi to'rtta muhim huquqiy asos bo'lishi maqsadga muvofiq:

-demokratik va mustahkam konstitutsiyaviy kafolat hamda uning amalga oshirilishi;

- Demokratik qonunlar va huquqiy normalar ( shu jumladan , ommaviy axborot vositalari iqtisodiy erkinligining huquqiy kafolati ) hamda ularning amalda ishlashi ;

- siyosiy erkinlik shart-sharoitlari , ya'ni davlat hokimiyatining ommaviy axborot vositalari ishiga aralashuvining tadqiqi hamda ularning hukumatni tanqid qilish huquqi ;

-eng so'nggi, lekin muhim asos -mataql sud hokimiyati [8].

O'rjanigan davr matbuoti tarixining barcha tadqiqotlari, shubhasiz ilmiy, publisistik, tarixshunoslik va adabiyotshunosligimiz rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston matbuoti tarixini yangidan tadqiq etishga kirishgan olimlar "O'zbekiston adabiyoti va sa'sati", "Xalq so'zi", "Sharq yulduzi", "Muloqot", "Tafakkur", "Fan va turmush", "O'zbekiston tarixi", "O'zbekiston matbuoti" kabi gazeta-jurnallar tahliliga e'tibor qaratdilar. Umuman, mamlakatimizdag'i ijtimoiy siyosiy barqarorlik, izchil olib borilayotgan islohotlarning sifati va samarasи jamoatchilik fikrining holatiga bog'liq bo'lib , uni shakllantirishda ijtimoiy institutlarga, xususan, ommaviy axborot vositalariga keng o'rin beriladi. Zotan, bugun oldimizda o'zbek ommaviy axborot vositalarini jahon matbuotining eng ilg'or, zamonaviy andozalarini darajasiga olib chiqish hamda milliy o'ziga xos shakl va mazmunni qaror toptirishdek muhim vazifa turibdi. Shu maqsadda mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan va xalqaro huquq normalari hamda demokratik talablariga javob beradigan qonunchilik tizimini yaratish, uni doimiy tarzda mustahkamlab borish muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi, Qonun va normativ hujjatlarning qabul qilinishi jurnalistlarning ijtimoiy nufuzini oshiradi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizning barqaror rivojlanishida matbuot vositalari muhim ahamiyatga egaligidan dalolatdir. Shu tariqa ishonchimiz komilki , tarixni mojarolar va adovat emas , xalqlar o'rtaсидаги hamqorlik va barqaror rivojlanish, o'zarо ishonch olg'a harakatlantiradi degan ijtimoiy fikr , respublika hamda viloyat nashrlarida o'z ifodasini topdi.

**Xulosa va takliflar.** Vaqtli matbuotning “to'rtinchı hokimiyat” sifatidagi o'rni va roli uning jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlarning borishiga ta'sir eta olishi mumkin bo'lgan ijtimoiy hodisa ekanligi oshib berildi. Eng muhimi, vaqtli matbuotga nisbatan eskicha

qarash-uning sof mafkuraviy siyosiy kuch ekanligi to'g'risidagi tasavvurlardan xalos bo'lindi. Unga nisbatan munosabat sifat jihatidan o'zgardi. Matbuot omma fikrini o'zida ifoda eta bordi, shu asnoda o'z sahifalarida xalq xohish - irodasini umumxalq manfaatini va umumjamiyat istiqbolini ifoda eta boshladи. Natijada, uning obro'-e'tibori , ijtimoiy nufuzi ortdi jamiyat va xalq oldidagi burchini xolisona ado etdi, erkin matbuotga aylandi. Matbuot vositalari, aholida yangicha tafakkur va ongni shakllantirishda ta'sirchan qurol bo'lib, kishilarning fikr va xohish irodasining erkin, ammo xolis ifodachisi, aytili mumkinki, inson manfaatlarining izchil va faol himoyachisi bo'ldi. Ayni shu ommaviy axborot vositalari qonunchilik me'yorlarini ro'yobga chiqarish, islohotlarning borishi va inson huquqlariga ryoja etilishi ustidan nazorat qilishning ta'sirchan vositasini bo'lib shakllandi.

Milliy davlatchilik sharoitida O'zbekiston hukumatni vaqtli matbuotni rivojlanirish, uning nufuzini ko'tarishning bosh homiysiga aylandi. Gazeta-jurnallarning amaliy faoliyatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishiga imkon beruvchi vosita sifatida qaradi. Shu asnoda vaqtli matbuot vositalarining samarali faoliyat olib boishi uchun huquqiy asos yaratildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, mavjud qonunchilik asosida vaqli matbuot vositalarining moddiy bazasi rivoj topdi, tashkiliy islohotlar amalga oshirildi. Jurnalistlar faoliyatini takomillashtirish qo'llab -quvvatlandi , ijodiy faoliyatda demokratik tamoyillar joriy etila boshlandi, gazeta va jurnal xodimlarining har qanday vaziyatda o'z fikrini erkin ifodalashi, axborotlarni qonunlar bilan man etilmagan usullarda tarqatish huquqi ta'minlandi .

Mazkur davr mobaynida O'zbekiston jamiyatida kuchli demokratlashuv jarayonlari yuz berdi. Jamiyatni demokratlashtirish esa ommaviy axborot vositalari faoliyatida chuqur demokratlashtirish jarayonini takomillashtirish bilan hamohanglikda amalga oshirildi. Bir tomonidan, ommaviy axborot jamiyatni demokratlashtirishning mezoni bo'lsa, ikkinchi tomonidan, jamiyatni rivojlanirishni amalga oshirish ommaviy axborot vositalarini takomillashtirishsiz ro'y bermasligi to'g'risidagi ijtimoiy fikr qaror topdi. Xalqaro maydonda turli siyosiy manfaatlar to'qnashayotgan murakkab bir sharoitda o'z fikri va hayotiy pozisiyasiga ega bo'lgan xalq va jamiyatgina yengilmas kuchga aylanib, kelajagini o'z qo'li va aql zakovati bilan qurishga qodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, milliy matbuot, yurtdoshlarimizni davlat va jamiyat qurilishi, ijtimoiy -iqtisodiy va siyosiy sohadagi islohotlar, mamlakatni demokratik jihatdan yangilash jarayonlaridan xabardor qilish bilan birga , O'zbekiston taraqqiyoti va manfaati har birimiz uchun birlamchi ekanini doimo anglatib turuvchi asosiy vositaga aylandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўринова Б. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий матбуотнинг роли.(Монография).-Бухоро:.2004, - Б 16.
2. Каримов И. А. Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. -Тошкент :Ўзбекистон. 1993.- Б 325
3. Шукуров С. Адолат ва ошкоралик кўзгуси . //Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. 2018, -3-сон,- Б 9.
4. Ўзбекистон Республикаси 100 саволга 100 жавоб .Тошкент: 1998 - Б 125.
5. Ўринова Б. Ўзбекистон Республикасида ижтимоий -иктисодий ва маданий жараёнларни ёритишида вақтили матбуотнинг роли .( Монография ).-Бухоро:.2004, - Б 16.
6. Абдуазимова Н. Миллий журналистика тарихи .(Миллий истиклол даври ) Икки жилдлик . Иккинчи жилд .Тошкент: Шарк. 2008.-Б 238.
7. "Оммавий ахборот воситалари тўғрисида "ти Ўзбекистон Республикаси Қонуни.1997йил 26-декабрь. Қаранг: (Янги таҳрирда Оммавий ахборот воситаларини кўллаб кувватлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги Қонун 2022 йил , 27 ионда қабул қилинди).
8. Абдуазимова Н. Қонун асосида фаолият кўрсатувчи матбуот ва унинг хукуқий асослари //Жамият ва бошқарув,2004 , 4-сон.



**Murodilla XAYDAROV,**

*Geologiya fanlari universiteti professori, t.f.d*

E-mail: olmos1972@mail.ru

**Mirhomid MIRAKBAROV,**

*O'zMU Tarix fakulteti mustaqil izlanuvchisi*

*O'zMU dotsenti, t.f.n.S. Atajanova tagrizi asosida*

## HISTORY AND PROSPECTS OF UZBEKISTAN GEOLOGY: THE EXAMPLE OF MURUNTOV GOLD MINE (1929-2024)

### Annotation

In this article, historical problems and inconsistencies related to the history of the opening of gold mines in the history of the geology of Uzbekistan have been revealed in detail, revealing archival data. Introduction of an effective management system in geological enterprises by transforming them based on advanced international experience, the history of geological exploration activities aimed at opening new deposits of minerals, direct development of deposits for industrial development. Information is given on the processes of increasing the flow of foreign investments, the history of scientific research and the fundamental reform of the conducted research activities, and the organization of modern production facilities in the regions with historical consistency.

**Key words:** technologies, mining and metallurgical industry, phosphorite mine, paleogeography, geodesy, granitoid intrusives, tectonic movements, fossil deposits and mining, Muruntov, Kalmakir, Dalniy and Sarik-chokki.

## ИСТОРИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ГЕОЛОГИИ УЗБЕКИСТАНА: НА ПРИМЕРЕ ЗОЛОТОГО РУДНИКА МУРУНТОВ (1929-2024 ГГ.)

### Аннотация

В данной статье подробно раскрыты исторические проблемы и нестыковки, связанные с историей открытия золотых приисков в истории геологии Узбекистана, раскрыты архивные данные. Внедрение эффективной системы управления геологическими предприятиями путем их преобразования на основе передового международного опыта, истории геологоразведочной деятельности, направленной на открытие новых месторождений полезных ископаемых, непосредственной разработки месторождений для промышленного освоения. Приводятся сведения о процессах увеличения потока иностранные инвестиции, история научных исследований и коренное реформирование проводимой научной деятельности, организація современных производств в регионах с исторической закономерностью.

**Ключевые слова:** технологии, горно-металлургическая промышленность, фосфоритовый рудник, палеогеография, геодезия, гранитоидные интрузивы, тектонические движения, месторождения ископаемых и горное дело, Мурунтов, Калмакир, Дальний и Сарик-чокки.

## O'ZBEKISTON GEOLOGIYASI TARIXI VA ISTIQBOLLARI: MURUNTOV OLTIN KONI MISOLIDA (1929-2024 YY.)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston geologiyasi tarixida oltin konlari bilan bog'liq tarixiy muammolarni arxiv ma'lumotlarga tayangan ilmiy adabiyotlarga asoslanib o'rganilishi ilmiy masalani batafsil aniqlash imkonini bergen. Geologiya sohasi korxonalarini ilg'or xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish orqali ularda samarali boshqaruv tizimini joriy etish, foydali qazilmalarining yangi konlarini ochishiga yo'naltirilgan geologiya-qidiruv ishlari tarixi, konlarni sanoatda o'zlashtirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirilish jarayonlari, ilmiy tadqiqotlar tarixini va olib borilgan izlanishlarni faoliyatini tubdan isloq qilish hamda hududlarda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etilganligini takomillashtirilgan holda tarixiy izchillik bilan bog'lash bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiyalar, kon-metalluriya sanoati, fosforit koni, paleogeografiyasi, geodeziya, granitoid intruzivlar, tektonik harakatlar, qazilma konlari va ma'dan, Muruntov, Qalmaqir, Dalniy va Sariq-cho'qqi.

**Kirish.** O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasi beshiklaridan biri sifatida jahon xalqlari moddiy va ma'naviy xazinasiga beqiyos hissa qo'shgan yurtdir.

Ayniqsa, ajdodlar merosi abadiyatga daxldor ma'naviy xazinadir. O'rta asrlarda falsafa, matematika, astronomiya, mineralogiya, geodeziya metallshunoslik, tarix, xullas tabiiyilmiy va gumanitar fanlardan birdek ilmiga ega bo'lgan Muhammad Muso Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniyarning muborak nomlari tarix sahifalariga abadul-abad muhrlangan. Ularning buyuk dahosi bugungi

yuksak texnologiyalar asri uchun zarur bo'lgan kashfiyotlarni taqdim etayotganligi esa isbot talab qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2014 yilning 15-16 may kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyat" mavzusidagi xalqaro konferensiyanı ochilish marosimidagi nutqida: "Bizning istagimiz shuki, Sharq qo'lyozmalarida saqlanayotgan ulkan merosdan barcha-barcha insonlar bahramand bo'lsin. Ularni odamlarga, avvalambor, yoshlarimizga yetkazish ayni muddao bo'lur edi. Men

yoshlarimizga murojaat qilar ekanman, ularga doimo: "Biz buyuk ajddolarimiz bilan faxrlanishimiz, g'ururlanishimiz kerak", deb aytaman. Ayni vaqtida "Faqat g'ururlanishning o'zi yetarli emas, kelinglar, o'zimiz ham, xuddi ular kabi, mana shu bebaho merosga o'z hissamizni qo'shaylik!-deb takrorlayman" [1], kabi da'vatga chorlovchi fikrlar bildirdi.

Yer osti xazinalarimiz - buyuk boyligimizdir. Faqat ulardan oqilona, samarali, tejab foydalanish davlatimizni ravnaq toptirishning puxta zaminini yaratadi. Shunday ekan, mamlakatimiz kon-metallurgiya sohasi qanday taraqqiyot yo'lidan o'tganligi, uning tarixi qaysi davrlarga borib taqalishini bilih har bir ziyyoli kishini tarixga e'tiborsiz goldirmaydi.

Darhaqiqat, bebaho merosga hissa qo'shish, shu merosni o'rghanish, boyitish, targ'ib qilish ishlari istiqloqlining dastlabki yillardanoq boshlandi. Biz bu sopadagi ilmiy izlanishlar sovetlar davrida, mustaqillik yillarda alohida tizimli rivojlanganligini mamlakatimizda ilmiy izlanishlar tarixi, ilmiy meroslarimiz ta'siri bo'lganligini ta'kidlab o'tamiz. O'zbekistonning paleogeografiyası, geodeziya, konchilik, metallurgiya, geologiya sohalaridagi qadimgi davrdan bugungi kunga qadar rivojlanish tarixini tadqiq etish, uning dolzab muammolarini o'rghanish kelgusini kon-metallurgiya sanoati istiqbollarini ochishga muhim turkti bo'lib hisoblanadi. Mustaqil O'zbekistonning xomashyo bazasini yaratishda konchilik sohasini taraqqiyoti nihoyatda muhim. Konchilik taraqqiyoti orqali mamlakatda yer osti boyliklarining joylashuvi, ular miqdori, tarkibi va ahamiyatlari jihatlar o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Geologiya fanlari universiteti kampusi bunyonkorligi bilan tanisha turib "Ilm bizning qonimizda, genimizda bor. Bu markaz ham uchinchi Renessans poydevorlaridan biri" [2], - deb ta'kidlagan edi. Shuningdek, Prezident o'z fikrlarini davom ettirar ekan, "Ilm-fan barcha sohalarni fundamental rivojlantirish uchun asos. Avvaldan e'tibor berganimizda geologiyaning hamma yo'nalishlari bo'yicha 15-20 foiz aholini ish bilan ta'minlashimiz mumkin edi. Mana endi olimlarga sharoit yaratishga harakat qilyapmiz, intellektual mulkni asrab, qo'llab-quvvatlayapmiz. Intellektual mulk uning egasiga ham, davlatga ham manfaat keltiradi" deya ta'kidlab o'tdilar.

O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoatini rivojlantirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Kon-metallurgiya sanoatini yuksaltirish davlat iqtisodiy qadratining asosidir.

Qizilqum sahrosining qoq markazida joylashgan mo'jiza shahar – Zarafshon shahri hududi 2,5 ming hektar maydonni egallab turibdi. Muruntov konining kashf qilinishidan boshlangan buniyodkorlik ishlari jadal sur'atlar bilan davom etmoqda. Bugungi kunda Zarafshon sanoat mintaqasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rinn tutadi. Istiqlol yillarda ushbu hudud infratuzilmasini yaxshilashda ham, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilishda ham ulkan ishlar amalga oshirilmoxda[3]. Natijada esa NKMK Markaziy kon boshqarmasi tasarrufidagi barcha korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari oshdi, mehnat unumdonorligi yaxshilandi.

Bugungi kunda Respublikada qazib olinayotgan oltinning asosiy qismi Navoiy viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Navoiy viloyatida oltin asosan Muruntov oltin konidan qazib olinadi. Yevrosoyo mintaqasida eng yirik hisoblangan Markaziy Qizilqumdag'i Muruntov oltin koni ruda zahiralarining ko'lami, texnologik sharoitlarining qulayligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining yuqoriligi va boshqa xususiyatlariga ko'ra dunyodagi eng noyob konlar sirasiga kiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekistonda ilk bor rejalashtirilgan geologik tadqiqotlar tarixi 1920 - yillar oxiriga borib taqaladi. 1920 yillarda O'rta Osiyo universitetining fizika-matematika fakultetida faoliyat yuritgan yirik olimlar va mutaxassislardan O.K.Lange, M.M.Protodyakonov, A.S. Uklonskiy, V.G. Muxin, N.F.Bezobrazovlar rahbarligida "Geolog mutaxassislar bo'limi" tashkil etilgandi. Ko'p o'tmay 1926 yilda Geologiya qo'mitasining "O'rta Osiyo bo'limi" tuzildi. Mazkur bo'lim olimlaridan D.V.Nalivkin, A.E.Fersman, D.I. Shcherbakov kabilar rahbarligida dastlabki yirik geologik ekspeditsiyalar uyuşhtirildi. 1931 yilda O'rta Osiyo universiteti huzurida "O'rta Osiyo geologik va qidiruv boshqarmasi" tashkil qilinib, 1933 yilda u O'rta Osiyo industriya institutining Konchilik fakultetiga aylantirildi.

1932 yilda O'zbekistonda Fan qo'mitasini tashkil etilib, uning qoshida Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi, geolog va mineralogiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi. 1940 yillarda oxirida respublikada ko'mir, rangli va noyob metallar, grafit, oltingugurt va boshqa boyliklarni qazib olish istiqboli, Qoramozor konida kon sanoatini tiklash, Olmalik, Angren, Langar, Qo'yotosh, Qoratega, G'ozg'on, Sho'rsuv va boshqa konlarning ochilishi, neft va oltingugurt paragenezisi, formatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar, gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi va boshqa ilmiy yo'nalishlarda keng miqyosli ishlar bajarildi. Ularning natijalari 3 jiddli "O'zbekiston geologiyasi", "O'rta Osiyo geologiyasi xaritasi", "O'zbekistonning qazilma boyliklarini xaritalash", "O'zbekistonning qazilma boyliklari" kabi kitoblari orqali ilmiy jamoatchilikka yetkazildi [4].

1930 – 1940 yillarda ayrim kon va tumanlar mukammal tekshirildi. 1937 yilda O'zbekistonning mayda masshtabli geologik xaritasi va shuningdek, unga oid uch tomlik "O'zbekiston geologiyasi" kitobi ham nashrdan chiqarildi. O'zbekistonning mineral xom ashyo boyliklarini tekshirishga bag'ishlangan asarlar ham chop etila boshlandi jumladan, B.N. Nasledovning "G'arbiy Tyanshan va O'zbekiston metallojeniyasining asosiy belgilari" asari va bir qator boshqa tadqiqotlarida O'rta Osiyo rudali tumanlarining geologik tuzilishi va undagi mavjud ma'dan konlari tavsiflab berildi. O'rta Osiyo geologiyasi misolda tektonik harakatlarning uzlusizligi haqidagi muammoni esa V.I.Popov oldinga surdi.

Konchilik sohasining rivojlanishida akademik H.M.Abdullaevning xizmatlari beqiyos. Uining sheelitli skarnlar paydo bo'lishi va istiqbollari haqidagi yangi nazariyalari 1947 yilda "O'rta Osiyoning sheelitli skarn konlari geologiyasi" nomli monografiyasida bayon qilingan. H.M.Abdullaev rahbarligida rudali konlar bilan otqindi jinslarning genetik bog'liqligi haqidagi muammo ustida ko'pgina olimlar ish olib bordilar. Ushbu muammo yechimini H.M.Abdullaev "Rudalanishning granitoid intruzivlar bilan genetik bog'liqligi" degan asarida ilmiy asoslab berdi. Ruda konlarning kelib chiqishi (genezisi), joylanishi va bu konlarni topish istiqbollari H.M.Abdullaev tomonidan yanada yuksak pog'ona ko'tarildi.

Geolog olim I.H. Hamroboevning "G'arbiy O'zbekistonda magmatizm va postmagmatizm jarayonlari" (1958) degan asari G'arbiy O'zbekistonda bir qator oltin va boshqa konlarni aniqlashga asos bo'ldi. O'zbekistonlik bir guruh geologlar jumladan, H.T.To'laganov, V.G.Garkoves, I.H.Hamroboev, I.S.Sokol, Z.L.Paleyar 1966 yilda Muruntov oltin konini ochishda katta xizmat ko'rsatdilar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** XX asr 60 - yillarda O'zbekiston olimlari tomonidan Tyanshan tog'larining Ural tog'larini bilan genetik bog'liqligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar ilgari surildi. Tyanshan tog'larini Qizilqum cho'llari tomon davom etib, Quljuqtov, Bukantov tumanlarida yer yuzasiga

chiqadi va yana Amudaryo quiy oqimi tomon yer ostida davom etib, Sulton Uvays tog'lari tag'in yer yuzida paydo bo'lishi aniqlandi. Qizilqumda va Sulton Uvays tog'lariда Ural tog'lariiga xos oltin, temir, nikel kabi konlarning ochilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

70 - yillarda kon sanoati taraqqiyotida yetakchi olim Vahob Raximovning xizmatlari beqiyos. Asosiy ilmiy ishlari konlarni qazib olish natijasida tog' jinslari massivida geomexanik jarayonlarning o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash, tabiiy va texnogen konlarning mineral xom ashyo potensialidan to'la va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan ekologik toza texnologiyalarni yaratish va qo'llash hamda konchilik ishlari elektronoptik asboblar va sun'iy yo'ldoshlar orqali zamonaviy marksheyderlik texnologiyalarni qo'llashni ilmiy asoslarini ishlab chiqish muammolariga bag'ishlangan [5].

Mustaqillik yillarda akademik Vahob Rahimov mazkur muammolar ilmiy yechimini topishda juda ko'plab konchilik sohasi olimlariga rahbarlik qilgan.

O'tgan asrning 80 - yillarda O'zbekiston yuqori sifatlari oltindan tashqari mis, qo'rg'oshin, ruh, tabiiy gaz va boshqa xom ashyo maxsulotlari yetkazib berib, sobiq Ittifoq xazinasini boyitib keldi. Rangli metall korxonalar Markaz qaramog'ida bo'lib, ko'proq xom ashyo qazib olish, dastlabki ishlov berish bilan shug'ullanardi. Bu korxonalarining mahsuloti respublikadan tashqariga olib ketildi.

Faqatgina istiqlol sharofati, mustaqillik shukuhi va yurtboshimizning sa'y-harakatlari ila qisqa vaqt ichida o'zbek xalqi barcha sohalarida katta yutuqlarga erishdi. Ulug' ajodolarimiz qoldirgan boy madaniy, ma'naviy merosni o'rganish va undan bahramand bo'lish sharafiga muyassar bo'ldik. Respublika tabiiy yer usti va yer osti boyliklarini o'zlashtirish uchun texnika yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy imkoniyati keng davlatlardan biri bo'lib, Respublikada qazib chiqarish va qayta ishlash korxonalar xom ashyo bazasini yaratish va kengaytirish chora - tadbirdari izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Uning kon-metallurgiya sanoati rivoji iqtisodiyotimizning barqaror o'sishida muhim ahamiyat kasb etdi va jahon hamjamiyatining diqqatini o'ziga jalb qildi. Respublikamizda mustaqillik tufayli sanoatning ko'pgina tarmoqlari rivojlantirilib, ular orasida mashinasozlik, elektr energetikasi, gaz, kimyo, rangli va qora metallurgiya, oltin qazish va boshqa sohalar muhim o'rinni egallaydi.

Mustaqillik yillarda Respublikada boshlangan ulkan ko'lamdag'i qurilishlar binokorlik materiallari sanoatini ham bunyod etish zaruratini yuzaga keltirdi.

Tabiat O'zbekiston zaminiga uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi hamda fuqarolari turmush darajasini oshirish uchun yetarli miqdorda mineral-xom ashyo resurslarini in'om etgan.

O'zbekiston oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, tabiiy gaz va boshqa ayrim foydali qazilmalar zahirasi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rirlardan birini egallaydi.

Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Geologiya iqtisodiyotga suv va havodek zarur. Oxirgi yillarda ilmiy maktablarni tiklab, kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratayapmiz, eng ilg'or ilmiy metodikalarni joriy etib, laboratoriya uskunalarini o'rnatib, zamonaviy sharoitlar yaratayapmiz. Endi natijaga ishslash kerak" [6].

Respublikada ancha katta miqdorda marganes konlari ham borligi aniqlandi. Oltin zahiralari mavjudligi esa alohida diqqatga molik. Inson tomonidan kashf etilgan metallardan eng nodiri bo'lgan oltin tovar-pul

munosabatlarining asosi hisoblanadi. Barcha davlatlarning tashqi savdosida u jahon valyutasi vazifasini o'taydi. Har bir mamlakat xalqaro to'lovlar uchun zahira sifatida imkonim boricha ko'proq oltin zahirasini yaratishga intiladi.

O'zbekiston oltin qazib chiqarish bo'yicha MDH mamlakatlari orasida ikkinchi o'rinda (Rossiya Federatsiyasidan keyin) va aholi jon boshiga bu ma'danni qazib chiqarish bo'yicha esa birinchi o'rinda turadi. Jahon miqyosida olganda, bu qimmatbaho metallni qazib olish bo'yicha respublika ancha yuqori o'rinni egallaydi.

Qizilqum bag'rida joylashgan - Muruntov respublikada oltin qazish bo'yicha markaz bo'lib, bu yerda 1972 yilda konchilir shahri - Zarafshon qad ko'tardi. Toshkent, Jizzax, Namangan viloyatlari hududida ham oltin qazib olinadigan bir qator konlar mayuddir.

Foydali qazilmalar orasida rangli metallar alohida o'rinda turadi. Shuningdek respublikada mis rudasi uchraydigan yuzlab konlar ochilgan, ular orasida Toshkent viloyatining Olmaliq tumanida joylashgan uchta kon: Qalmaqir, Dalniy va Sariq-cho'qqi mis rudasi konlaridan foydalanib kelinmoqda. Ana shu konlar ochilganligi tufayli bu yerda 1951 yilda Olmaliq shahri qad rostladi. Endilikda u rangli metallurgiyaning muhim markaziga aylandi. Shuningdek, Respublika Qizilqum kengliklari, janubiy O'zbekiston va Qoraqalpog'iston hududida mis rudasi uchraydigan yana bir necha istiqbolli konlarga egamiz.

Samargand viloyatida Ingichka va Jizzax viloyatida Qo'yotosh volfram konlari o'zlashtirilgan.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston geologiyasi tarixini o'rganish orqali iqtisodiyot va sanoat sohalariga turli konlarning qo'shayotgan beqiyos hissasi haqida ma'lumotlar aniqlangan. Shuningdek, geologiya soha vakillarining uzoq yillik samarali mehnat faoliyatlar bilan birgalikda ularning ekspeditsiyalari natijasida aniqlangan oltin konlar haqida ma'lumotlar aniqlangan. Davlatimiz rahbari ham "O'zbekistonda yangi geologiya tizimi yaratilmoqda. Uni rivojlantirishdan maqsad - tabiiy resurslarni xalqimiz manfaatiga yo'naltirish, ish joylari tashkil etib, odamlarni boy qilish" deb ta'kidlaganlar [7].

E'tirof etish kerakki, O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoati tarixining ayrim qirralari bir guruh tarixchi va sharqshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bular sirasiga taniqli olimlar M. Ye.Masson, P.P. Ivanov, M.N. Bubnova, Yu.F.Buryakov, E.Rtveladze, O.I. Islomov, A. M.Muhammadjonov, A.S.Sagdullaev, J.Kabirov, S.I.Inoyatov va boshqa olimlarni kiritish mumkin. Biroq O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati tarixi eng qadimgi davrlardan hozirga qadar to'liq va mukammal o'rganilib, yagona kitob holatida chop etilgan emas.

**Xulosa va takliflar.** Mustaqillik sharofati ila olimlar tomonidan O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoati va geologik tadqiqotlar rivoji tarixini o'rganish va ushbu kitobni chop etishdan ko'zlangan asosiy maqsad, mustaqil yurtimiz taraqqiyotida xalqimizning olamshumul bonyodkorlik faoliyati, fidoiyligi, muhtaram Yurtboshimizning istiqbolni ko'zlab yuritayotgan oqilonqa siyosati tufayli qo'lga kiritilayotgan tarixiy yutuqlarimizga, avvalo bir nazar tashlash, shu asnoda qadimgi davrlardan boshlab, bugungi kunga qadar konchilik va metallurgiya sohasi tarixini tizimli ochib berish, bu yo'nalishda ilmiy xulosalar chiqarishdan iborat. Kitob barkamol avlodni konchilik va noyob soha metallurgiya tarixi bilan yaqindan tanishtirishda, zamonaviy fan va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari negizida foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishslash sohasida yetuk mutaxassislar tajribasini oshirishda ko'maklashadi va kelajakda bonyodkorlik ishlari sari chorlaydi.

**ADABIYOTLAR**

1. Халқ сўзи” газетаси , 2014 йил 17 май.
2. <https://daryo.uz/k/2020/10/16/shavkat-mirziyoyev-geologiya-fanlari-universiteti-uchinchchi-renessans-poydevorlaridan-biri>
3. “Дўстлик байробги” газетаси, 2014 йил 11 апрель. № 29
4. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12- жилд. -Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедия; 2006.- Б. 419.
5. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 7-жилд, -Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси; 2007. -Б. 270.
6. <https://president.uz/uz/lists/view/4824>
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/08/27/new-geology/>
8. Абу Райхан Мухаммед ибн Ахмед ал-Бируни. Собрание сведений для познания драгоценностей (Минералогия).Перевод А.М.Беленицкого.-Л., 1963. -С. 522.
9. Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака.-М.: Наука; 1974.-133 стр.
10. Буряков Ю.Ф. Коллекция бронзовых художественных изделий ХИВ-начале ХВ века из Самарканда // Общественные науки в Узбекистане; 1966. № 8-9, -С. 35-56.
11. Буряков Ю. Из истории горного дела и металлургии // Ўзбекистон тарихи журнали, №. 2006.-№ 4. -С. 47-61.
12. Максимов М.М. Очерк о золоте.- М.: Недра; 1977.-150 стр.
13. Пугаченкова Г.А. Золотые изделия античной поры из Узбекистана. Древняя и средневековая археология Средней Азии. -Т.: Изд-во Фан; 1990.-164 стр.
14. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 12 жилд, -Т.: ЎМЭ; 2006.- 419 бет.
15. Головин Г.Р. Горное дело производство // Туркестанский курер.-1909.-№27,28.
16. Конлар// Бухоро ахбори; 52-сон; 1921 йил 9 октябр.
17. ЎзРМДА. И-1-фонд (Туркистан генерал-губернаторлиги фонди) 13-рўйхат; 352-нужжат, 1; 2, 3; 4, 5, 6, 7; 13; 14 вараqlар ва уларнинг орqa томони.
18. Qиличев Р. Ремесло в городе Бухаре во второй половине XIX –начале
19. XX вв. Автореф.дисс... канд.ист.наук.-Т., 1997.-23 стр.



Fayzulla XOLMAMATOV,

Qarshi davlat universiteti erkin izlanuvchisi

E-mail:f\_kholmatov@gmail.com

QarDU v.b. dotsenti, PhD B.Toshpo'latov taqrizi asosida

## MUSTAQILLIK YILLARIDA ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KADRLAR SIYOSATI TARIXI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgandan keyingi davrda ichki ishlar organlarida kadrlar siyosati va uning rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Kadrlar ishidagi o'zgarishlar tahlili yondashuv asosida yoritiladi, bu esa O'zbekiston ichki ishlar organlarining yutuqlari va muammolari to'g'risida to'liq tasavvur beradi.

**Kalit so'z:** ichki ishlar, oliy harbiy-texnik bilim yurti, ichki ishlar vazirligi akademiyasi, serjant maktabi, kadr, militsiya, leytenant, bakalavr, magistratura.

## ИСТОРИЯ КАДРОВОЙ ПОЛИТИКИ В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматривается кадровая политика и её развитие в органах внутренних дел Республики Узбекистан после получения независимости. Изменения в работе с кадрами освещаются на основе аналитического подхода, что даёт полное представление о достижениях и проблемах органов внутренних дел Узбекистана.

**Ключевые слова:** внутренние дела, высшее военно-техническое учебное заведение, Академия Министерства внутренних дел, сержантский школа, кадры, милиция, лейтенант, бакалавр, магистр.

## HISTORY OF PERSONNEL POLICY IN THE INTERNAL AFFAIRS BODIES DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

This article examines personnel policy and its development in the internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan after gaining independence. Changes in work with personnel are highlighted on the basis of an analytical approach, which gives a complete picture of the achievements and problems of the internal affairs bodies of Uzbekistan.

**Key word:** internal affairs, higher military-technical knowledge institution, Academy of the Ministry of internal affairs, serjeantmaksi, cadre, militia, lieutenant, bachelor, master.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi - O'zbekiston Respublikasi ijroiya hokimiysi organi hisoblanib, o'z vakolatlari doirasida fuqaro va inson erkinligi va huquqlarini himoyalashda davlat boshqaruvini amalga oshiradigan, huquq-tartibotni saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va bevosita O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari va Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari faoliyatining asosiy yo'naliшlarini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lif muassasalarini tashkil etilishi va faoliyatining tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonlarining tarixiy ildizlari uzoq o'tmishga borib takaladi. Ular tashkiliy tuzilmaviy jihatdan tarixiy va evolyusion rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Albatta, ular o'z faoliyat yo'naliшlarini jihatidan to'laligicha bugungi talablar va funksiyalarni o'zida mujassamlashtirmagan bo'lsa-da, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida faoliyat ko'rsatib kelganligi haqiqat.

**Materiallar va metodlar.** O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tarixiy shonli yo'lni bosib o'tdi, fuqarolarning tinchligi, xukuk va erkinliklari hamda konuniy manfaatlarni ximoya qilishda ishonchli faoliyat olib borgan. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni beqiyos. Chunki aynan ta'lif maskanlari maxsus kasbiy bilimlarni egallagan bitiruvchilarining el-yurt osoyishtaligini saqlashdagi ahamiyati juda katta.

Ichki ishlar vazirligi tasarrufida faoliyat olib borgan ta'lif muassasalaridan yana biri bu -IV Toshkent oliy harbiy

texnika bilim yurtidir. Ushbu ta'lif muassasasining ham kelib chiqish tarixiga e'tibor qarataks: jumladan ta'lif muassasasi Sobiq SSSR Vazirlar Kengashining 1990 yil 15 oktyabrdagi 1730-sont Qarori bilan 5375-harbiy qism negizida "SSSR Ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlari Toshkent oliy harbiy -texnik maktabi" tashkil etildi. Keyinchalik ushbu maktab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 10 yanvardagi PF-318-sont farmoniga muvofiq "SSSR Ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlari Toshkent oliy harbiy -texnik maktabi" negizida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi "Toshkent Oliy Harbiy -Texnik bilim yurti"[1] deb o'zgartirildi. Shuningdek, bilim yurtining vazifalari hamda mutaxassislik yo'naliшlarini belgilab berildi.

Mustaqillikning ilk yillarida ichki ishlar organlari va tizimlari uchun kadrlar tayyorlab beradigan o'quv muassasalarini O'zbekiston tasarrufiga o'tkazildi. Xususan, 1992 yil 20 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug'i bilan sobiq SSSR Ichki ishlar vazirligi Ichki qo'shinlari tizimidagi Toshkent Oliy harbiy texnika bilim yurti O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga qarashli Toshkent Oliy harbiy texnika bilim yurti deb qayta nomlandi[2]. Ushbu o'quv yurtining asosiy vazifasiga O'zbekiston ichki qo'shinlari uchun oliy harbiy texnik mutaxassislarini tayyorlash yuklatildi. SSSR Ichki ishlar vazirligi Oliy yong'indan saqlash texnika injenerlari maktabining Toshkent filiali ham 1992 yilning yanvar oyidan qayta tashkil qilinib, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining Toshkent o't o'chirish texnika bilim yurtiga aylantirildi[3].

1994 yil 2 sentyabrda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliv milisya maktabi negizida "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi" tashkil etildi. Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlari va bo'linmalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning kompleks tizimini tashkil etish maqsadida Akademianing asosiy vazifalari quyidagilar:

-ichki ishlar organlari oliy boshliqlar tarkibini tayyorlash;

-tanlov asosida ikki bosqichda ichki ishlar organlarining oliy va o'rta yuridik ma'lumotli boshliqlar tarkibini tayyorlash;

-huquq-tartibotni muhofaza qilish muammolarini tadqiq etish;

-ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashdan iborat deb belgilandi[4].

**Tahlil va natijalar.** Mustaqillikning dastlabki yillari respublikamizda murakkab vaziyat, davlat va jamiyat manfaatlari qarshi sodir etilgan tajovuzlar, ayniqsa, uyushgan jinoyatchilikning avj olgani ushbu illatlarga barham berish, jamiyatda sonun ustuvorligini ta'minlashni taqozo etardi. O'sha davrda ichki ishlar idoralarining asosiy kuch va vositalari huquq-tartibotni mustahkamlash, fuqarolar hayotiga xavf solayotgan turli ko'rinishdagi jinoyatlarning oldini olishga yo'naltirildi. Tizimdagisi islohotlarning dastlabki bosqichida Ichki ishlar vazirligi tuzilmalari faoliyati qaytadan tashkil etilib, faoliyati kuchaytirildi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasasi bo'lgan Akademiyada kadrlar saloxiyatini oshirishga imkon beradigan, sifat jihatidan mutlaqo yangi tizim tashkil etildi. Ta'limning sirtki shakli joriy etilib, unda «Jinoyatchilikning oldini olish va ularni fosh etish faoliyati mutaxassisligi bo'yicha «yurist» malakasini berish belgilandi. Rahbar kadrlarni tayyorlash fakultetida «Ichki ishlar organlarida boshqaruv faoliyati» mutaxassisligi bo'yicha «menejment» malakasi berilishi yo'lga kuyildi.

Ichki ishlar organlari uchun rahbar kadrlar tayyorlash fakulteti (RKT) 1998 yil 26 fevralda tashkil etildi. Fakultetning asosiy maksadi- ichki ishlar organlari uchun yuksak kasb mahoratiga ega bo'lgan, ma'naviy va axlokiy talablarga javob beradigan, ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etish va boshkarishga qodir, boshkaruvga doir kasbiy xislatlarga ega, bilimli va yuksak malakali rahbar kadrlarni tayyorlashdan iborat. Fakultet tashkil topgandan boshlab, bugungi kunga kadar uni 800 nafardan ortiq tinglovchilar tamomlagan bo'lib, bugungi kunda bitiruvchilarining 500 nafarga yakini O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari, shuningdek davlat xokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari rahbarlik lavozimlarida samarali xizmat kilib kelmokdalar.

O'tgan yillarda mobaynida Akademiyamiz huquqni muhofaza qiluvchi organlari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biriga aylandi. Bunda yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga qodir, ona vatanimizga sadoqat bilan xizmat qiladigan, har tomonlama yetuk, bilimli, jismonan chiniqqaqan, ruhan tetik, zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi munosib kurasha oladigan kadrlar yetishtirishga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu talaburni inobatga olgan holda, Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 2 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasida ichki ishlar organlari mutaxassislar tayyorlovini takomillashtirish choralar to'g'risida"gi qarorigamuvofig, O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasining ichki ishlar organlari uchun "Jinoyatlarning oldini olish faoliyati", "Tergov faoliyati", "Tezkor qidiruv faoliyati", "Ekspert-kriminalistika faoliyati" bo'yicha ofislerlar

va o'ndan ortiq mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha serjantlar tarkibini tayyorlash vazifalari belgilab berildi[5]

2003 yilda Akademiya tarixida ilk marotaba jami 114 nafar bitiruvchiga, 2004 yilda esa 119 nafar bitiruvchiga magisterlik darajasi diplomi hamda navbatdagi «milisya katta leutenanti» maxsus unvonlari berilgan. Fakultet 2004 yil avgustgacha faoliyat ko'rsatgan. Qayd etish kerakki, 2003-2004 o'kuv yilda IIV Akademiyasi tarixida birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasiga loyik yoshlar tanlovi O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasining talaba-magistrantlar orasida o'tkazildi. Bu IIV Akademiyasi magistratura fakulteti tinglovchilari o'z qobiliyatlarini sinab ko'rish imkoniyatini yaratgan edi.

Akademiya raxbaryati, xususan o'quv bo'limi tomonidan tanlab olingan eng bilmili, intizomli, iktidorli hamda izlanuvchan magistratura tinglovchilari mazkur talovda faol katnashdi. Ilk marta IIV Akademiyasi tarixida talaba-magistrantlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi tanlovi g'olibining 20-son guvohnomasi O'zbekiston Respublikasi VMning Ilmiy-tekniqa tarakkiyotini muvofiklashtirish Kengashi huzuridagi Fan va texnologiyalar markazi (FTM) ning 2003 yil 15-sentyabrdagi 8-son qaroriga muvofik besh yo'nalish bo'yicha, ya'ni tarix, chet tili, rus tili, informatika xamda o'zbek tili va adabiyoti fanidan test sinovlaridan yuqori natija ko'rsatgan leytenant Akmal Voxidovga berilganligini e'tirof etish kerak[5].

2004 yil 19 iyulda «Ichki ishlar organlarining xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish choralar to'g'risida»gi Farmoni[6] va Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida Ichki ishlar organlariga mutaxassislar tayyorlovini takomillashtirish choralar to'g'risida»gi Qaroriga[7] asosan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Serjantlar tarkibini tayyorlash bo'yicha Oliy kurslari tashkil etildi[8]. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2005 yilgi buyrug'iiga asosan Serjantlar tarkibini tayyorlash bo'yicha oliy kurslari faoliyatiga oid hujjatlar tasdiqlandi[9]. Buyruqda Oliy kurslarga nomzodlarni tanlash, o'quv metodik va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tartibi, o'quv, metodik va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tartibi, uning ilova qismida Oliy kurslarning kasb tayyorgarligi bo'yicha dasturi keltirilgan[10].

**Muhokama.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 iyul "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurtida kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori bilim yurti faoliyatida muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, oliy harbiy texnika bilim yurtining moddiy-teknik bazasini rivojlantirish bo'yicha maxsus dastur tasdiqlandi. Ushbu dastur asosida bu oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan kursantlar uchun barcha qulayliklarga ega 3 ta yotoqxona, 3 ta zamonaviy o'quv binosi, mehmonxona, hammom va kir yuvish majmuasi, 70 ga yaqin maxsus sinf, 4 ta ma'ruza zallari, 50 ta o'quv sinflari, 4 ta kompyuter sinfi, maxsus va umumi kutubxonalar, 8 ta sport qurilmasi, klub, 8 ta o'quv shaharchasi, 3 ta o'q otish tiri, sport majmuasi, stadion, basseyn, birinchi kurs kursantlari "yosh askarlar maktabi"ni o'tashi va yuqori bosqich kursantlari bilan taktik dala mashg'ulotlarini o'tkazishga mo'ljalangan poligon yangitdan tashkil qilindi va restavratsiya qilindi[11].

Shunga asosan Oliy kurslarda Post-patrol; Yo'l-patrol; Ichki ishlar organlari qo'riqlash xizmati faoliyi; Jazoni ijro etish muassasalaridagi faoliyat; Huquqbazarliklarning oldini olish; Xorijga chiqish, kirish va fuqarolikni rasmiylashtirish; Yong'in xavfsizligi xizmatlari hamda mutaxassisligi yo'nalishlari uchun serjant xodimlar tayyorlana boshlandi.

Umuman olganda, 2009 yil boshiga kelib, Respublika Ichki ishlar vazirligi tizimining mazkur yo'nalishlari bo'yicha 7200 ga yaqin serjantlar ish faoliyatlarini olib bormoqda[12].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "odamlar o'zini qiyayotgan muammolarni hal qilish uchun to'la ishonch bilan, avvalambor, ichki ishlar idoralariga murojaat qilishiga, har bir xodimda o'z himoyachisini ko'rishiga erishish zarur. Shundagina ichki ishlar organlari xalq o'rtasida munosib obro'-e'tibor qozonadi"[13]. Shunday ekan, barcha ichki ishlar organlari tizimi jamosida kelgusida faoliyat samaradorligini oshirish, xalqni rozi qilishni o'zining muqaddas burchi deb biladigan yetuk malakali mutaxassis

kadrlarni tayyorlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish hozirgi kuning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi respublika ichki ishlar organlari uchun har tomonlama yetuk, yosh mutaxassis kadrlar — serjantlar tayyorlash borasida tayanch o'quv yurtiga aylandi. Bu bejiz emas albatta, birinchi navbatda Akademianing o'quv va ilmiy salohiyati inobatga olingan, ikkinchidan Akademianing hududi va undagi sharoitlar, moddiy-teknik bazasi keng miqyosli vazifalarni amalga oshirishga mo'ljallangan.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 10 январдаги ПФ-318-сон Фармони/Ўзбекистон Республикаси қонун хўжатлари тўплами. –Тошкент 1992. ПФ-318-сон//URL-<https://lex.uz/ru/docs/148222>– электрон ресурс
2. Ўз МА, М-23-фонд, 1-рўйхат, 7-иш, 19-варак.
3. Ўз МА, Р-95-фонд, 2-рўйхат, 8-иш, 35-варак.
4. Олимов Э, Ички ишлар вазирлиги таълим муассасаларининг шаклланиш жараёнлари / Педагогик ва психологик тадқиқотлар илмий-амалий журнали. № 5 (2023).
5. Матлюбов Б. Ўзбекистонда жамоат тартиби ва хавфисликни таъминлаш тарихи ( ички ишлар органлари мисолида). Т.: COLORPACK, 2021.- Б.486
6. Пулатов Ю.С. С чего начинается реформирование органов внутренних дел // Хукуқ – Право – Law. – 2004. – № 4. С.80
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 23 сентябрдаги Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академиясида ички ишлар органлари мутахассисларини тайёрлашни такомиллаштириш чоралари тўғрисида"ти қарори // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг карорлар тўплами 2004 йил. № 9. – 358-м.
8. Пулатов Ю.С. С чего начинается реформирование органов внутренних дел / Хукуқ-Право-Law.-2004.-№4. –Б. 80-84.
9. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академиясининг жорий архив материаллари.
10. Касбий психологик ва педагогик тайёргарлик: Маъruzalар курси. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2008. –Б.6.
11. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Тошкент олий ҳарбий техника билим юрти жорий архив материаллари.
12. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Ахборот Марказининг 2009 йил 2 ойлик якуни бўйича Давлат статистик ҳисоботидан олинган.
13. <https://www.gazeta.uz/uz/2017/08/18/iiv/>



Xurshida YUNUSOVA,  
*O'zbekiston Milliy universiteti professori*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori D. Bobojonova taqrizi asosida*

## XX ASR 80-YILLARI – “QAYTA QURISH” SIYOSATI: MAQSAD, VAZIFA VA OQIBATLAR

Annotatsiya

Sovet davlatining qayta qurish siyosati mamlakatda yillar davomida to'planib kelgan muammolarni yuzaga chiqardi. Qayta qurish siyosatini boshlangan hukumat G'arb demokratiyasi g'oyalariqa ochiqlik, yevrokommunizm, umuminsoniy qadriyatlar, yangi va eski falsafiy g'oyalari va tushunchalar uchun mohiyatni inqilobiy yutuq sifatida qaradi. Bu siyosatga ma'muriy-tashkiliy choralar tartib va intizomni mustahkamlashi, eng muhimi “inson omili”ni faollashtirishi, ilmiy-tehnika taraqqiyotining maqsadli dasturlariga alohida e'tibor qaratildi. Biroq, belgilangan vazifalar amalga oshmadi, siyosiy tanglik kuchaydi. Maqolada turli ilmiy adabiyotlar, arxiv hujjatlaridan foydalangan holda qayta qurish siyosati-dan ko'zlangan maqsad, uning vazifalari, oqibatlari taxlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** hukmon elita, qatag'on, ta'qib, tazyiq, iqtisodiy tushkunlik, budget, erkin konvertatsiya, valyuta, tashqi qarz, siyosiy rejim, inson omili, demokratik jarayonlar, ijtimoiy guruhlar, birlashma, tashkilot, islohot, xo'jalik mexanizmi, detsentralizatsiya, sektor, sanoat ishlab chiqarish, jadallashtirish.

## 80-е ГОДЫ XX ВЕКА - ПОЛИТИКА "ПЕРЕСТРОЙКИ: ЦЕЛЬ, ЗАДАЧИ И ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация

Политика перестройки советского государства вывела на ряд проблем, которые накопились в стране годами. Правительство, инициировавшее политику перестройки, рассматривало идеи западной демократии как по сути революционное достижение открытости, еврокоммунизма, общечеловеческих ценностей, новых и старых философских идей, и концепций. Особое внимание в этой политике было удалено тому, что административные и организационные меры были направлены на укрепление порядка и дисциплины, а главное, активизируют «человеческий фактор» и на целевые программы научно-технического прогресса. Однако поставленные задачи не были выполнены, а привело к усилению политической напряженности. В статье анализируются последствия политики перестройки с использованием различной научной литературы, архивных документов.

**Ключевые слова:** правящая элита, репрессии, преследование, репрессированный, экономический кризис, бюджет, свободная конвертация, валюта, внешний долг, политический режим, человеческий фактор, демократические процессы, социальные группы, объединения, организация, реформы, экономический механизм, децентрализация, сектор, промышленное производство, ускорение.

## THE 80S OF THE XX CENTURY - THE POLICY OF “REORGANIZATION”: PURPOSE, OBJECTIVES AND CONSEQUENCES

Annotation

The policy of perestroika of the Soviet state led to a number of problems that have accumulated in the country over the years. The government, which initiated the policy of perestroika, considered the ideas of Western democracy as essentially a revolutionary achievement of openness, eurocommunism, universal values, new and old philosophical ideas and concepts. Special attention in this policy was paid to the fact that administrative and organizational measures were aimed at strengthening order and discipline, and most importantly, activate the "human factor" and targeted programs of scientific and technological progress. However, the tasks set were not fulfilled, but led to increased political tension. The article analyzes the consequences of the perestroika policy using various scientific literature and archival documents.

**Key words:** ruling elite, repression, persecution, repressed, economic crisis, budget, free conversion, currency, external debt, political regime, human factor, democratic processes, social groups, associations, organization, reforms, economic mechanism, decentralization, sector, industrial production, acceleration.

**Kirish.** SSSRda Kommunistik partiyaning “butun xalq manfaatlarini ifodalash”ga urinishi, “xalq partiyasi” niqobi ostida siyosiy hokimiyatni monopolashtirishi 1980-yillardning ikkinchi yarmida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohada yillar davomida to'planib kelgan muammolar yuzaga chiqib, ortga qaytarib bo'lmaydigan mantiqiy ketma-ketlikdagi voqealodisalarini boshlab berdi.

1982-yil noyabrda KPSS MQ Bosh kotibi L. Brejnev vafotidan so'ng mazkur lavozimni egallagan Y. Andropov mamlakatda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish siyosatida ta'qib va tazyiqqa asoslangan qattiqqo'llik yo'lining tarafdiri sifatida maydonga chiqdi[1]. U “ideologiya fronti”dagi asosiy vazifalarni belgilab[2], mamlakatdagi yetilib kelgan tanazzul

xodimlarning shaxsiy xato va kamchiliklaridan qidirdi[3]. KPSS MQ navbatdagagi bosh kotibi K. Chernenko ham mana shu siyosatning davomchisi bo'ldi. 1985-yil 10-martda KPSS MQ siyosiy byuroning eng yosh a'zosi M. Gorbachevning KPSS MQ Bosh kotib bo'lishi bilan 1985-yil aprel oyida “qayta qurish” nomini olgan yangi siyosatni taklif qildi. Qayta qurishning maqsadi – mamlakat hayotining barcha tomonlarini tubdan yangilash, sotsializmga ijtimoiy tashkilotning eng zamonaliv formalarini bag'ishlab, tuzumning insonorvarlik xarakterini to'liq namoyon etishdan iborat bo'ldi. Natijada qayta qurish siyosatini jamiyatning barcha sohalarida tadbiq etishga harakat boshlandi. Yangicha ijtimoiy muhit tarkib topa boshladi, qadriyatlar qaytadan baholandi. Hodisalar va

voqealarga baho berishda oshkorlik, haqqoniylit, kamchiliklarga nisbatan murosasizlik, ishni yaxshilash istagi turmushning faol amal qilayotgan prinsiplari sifatida qaror topdi. Xalq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini tubdan o'zgartirish, fan va texnikani taraqqiy ettirish asosida xalq xo'jaligini chuqur rekonstruksiya qilish sohasidagi ishlar boshlandi. Strukturna va investitsiya siyosatiga o'zgartishlar kiritildi[4].

**Manbalar sharhi.** XX asr 80-yillariga kelib sovet jamiyatida boshlangan qayta qurish siyosati siyosiy tizimni emas, balki SSSR ning partokratik elitasini isloh qilish va modernizatsiya qilish sifatida qaralganchi, leninchcha konsepsiya qaytish, sotsializmning demokratiya bilan birlashuvu qaralganchi tahlil qilingan

**Tadqiqot metodologiyasi.** Manbashunoslik va tarixshunoslik sohalariga oid paleografik, matnshunoslik, siyosatchunoslik, sivilizatsion yondashuv, kontent analiz, dialektik, mikrotarix (microhistory), sinergetik, qiyosiy tahlil (comparative analysis), statistik tahlil (statistical analysis), tizimli tahlil, muammoviy-maqsadli yondashuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot tahlili va natijalari.** tuzilmalari, shuningdek partiya ommasi faoliyatidagi o'ziga xos davr ham bo'ldi. Qayta qurish partiya tarixiga yuz minglab oddiy partiya a'zolarining ichki partiyaviy demokratiya, ochiqlik, G'arb demokratiyasini g'oyaligaga ochiqlik, yevrokommunizm, umuminsoniy qadriyatlari, yangi va eski falsafiy g'oyalari va tushunchalar uchun mohiyatan inqilobiy yutuq sifatida kirdi[5]. Ayni paytda "Qayta qurish"ning "me'mori" va "ustulari" nazarida boshlangan islohotlar sotsializmning leninchcha konsepsiyasiga qaytilishi, sotsializmning demokratiya bilan birlashuvi edi. Dastlab M. Gorbachev mo'ljallagan ma'muriy-tashkiliy choralar tartib va intizomni mustahkamlashi, eng muhim "inson omili"ni faollashtirishi, informatika va kompyuter texnologiyalari, robototex-nika va genetik injeneriya sohalaridagi "ilmiy-texnika taraqqiyotining maqsadli dasturlari"ga alohida e'tibor qaratila boshlad. Xullas, qayta qurish hukmon elitaning "sotsializm va demokratiya"ni uyg'unlashtirib, chirigan sovet tuzumini saqlab qolishga qaratilgan so'nggi urinish bo'ldi[6].

Uzoq yillar qatag'on, ta'qib va tazyiqlar ostida yakka hukmonlikda o'z mavqeyini saqlab kelgan sovet davlatining bir necha o'n yillar davomida yangi jamiyat qurish borasidagi tajribalarining XX asr 80-yillariga kelib muvaffaqiyatsizlikka uchrashida iqtisodiy omil ham muhim rol o'ynagan edi. Iqtisodiy boshqaruvning buyruqbozlik va ilmiy isbotlanmagan rejorashtirish siyosati o'z natijalarini ko'rsata boshlagan edi. Bunday vaziyatda kommunistik partiya ish uslubining yangi shakllarini izlab topishi, qandaydir o'zgarish qilishi lozim bo'lsada, biroq, siyosiy rahbariyat iqtisodiyotning yomonlashib borishiga qarshi jiddiy qarshilik ko'rsatishga ojiz edi. O'ninchchi besh yillikda (1976-1980) yuzaga kelgan og'ir iqtisodiy tushkunlik o'n birinchi besh yillikka (1981-1985) meros qilib o'tdi, jahon savdosidagi ulushi tushib ketdi, tashqi qarzi oshib bordi[7].

Iqtisodiyotdagi bu muammolar tashqi qarzning yanada ko'payishiga olib keldi. 1985-yilda alkogolizmga qarshi oxirigacha o'ylanmagan qonunning joriy etilishi davlat budgetini o'n milliardlab rublli mablag'dan mahrum qildi. Mamlakat iqtisodiy muammolar botqog'iga botib qoldi. Mamlakat budgetining erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi manfiy saldosini 1981-1983 yillarda o'rtacha 1,3 mlrd dollar bo'lgani holda 1985-1989 yillarda 7,8 dan 25,1 mlrd dollarni tashkil qildi[8]. "Turg'unlik" davrida neftni sotishdan farq qilgan holda bu tashqi qarz 1985-yildan jadal oshib ketdi. SSSR ni G'arb davlatlariga qarzi 1985-yilda 27,2 milliard dollarni tashkil qilgan bo'lsa 1988-yilda 40 milliard dollarni tashkil qildi. 80-yillarning oxiriga kelib davlat tashqi

qarzi 76 mlrd, ichki qarzi esa 5,6 mlrd dollarga yetdi[9]. Shunday holatda ham qayta qurish tashabbuskorlari qarama-qarshi vazifalarni hal qilishga, iqtisodiy jihatdan mos kelmaydigan narsalarni birlashtirishga harakat qildilar. O'n ikkinchi besh yillikka kelganda ham butun reja (1986-1990 yillar) o'tmishdagisi uslub va yondashuvlar asosida tuzildi. Asosiy harakat mashinasozlik sanoatini jadal rivojlantirishga qaratildi, uning o'sish sur'atlarini 1,5-2 baravar oshirish ko'zda tutildi. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida informatika va kompyuter texnologiyalari, robototexnika va genetik injeneriya sohalaridagi "ilmiy-texnika taraqqiyotining maqsadli dasturlari"ga alohida umidlar berildi[10].

"Qayta qurish" boshlangan vaqtidan boshlab, uning dastlabki maqsadi, mazmuni bir necha bor o'zgardi. Albatta "qayta qurish" siyosati mamlakatda demokratiq jarayonlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning haq-huquqlari va erkinliklarini kengaytirish borasida ma'lum ijobjiy siljishlarga olib keldi. Turli-tuman ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etuvchi jamoat birlashmalari, jumladan, partiya va harakatlar tuzildi. Butun Ittifoq bo'yicha ijtimoiy-siyosiy birlashmalari, tashkilotlarning soni keskin ko'paydi va 1990-yil oxiriga kelib 300 dan ortib ketdi[11]. Biroq, "qayta qurish" hukmon elitaning "teran, sog'gom" fikrlovchi qismi tomonidan "sotsializm va demokratiya"ni uyg'unlashtirib, chirigan sovet tuzumni saqlab qolishga qaratilgan so'nggi urinishi xam bo'ldi[12]. "Qayta qurish" yillari islohotlarning potensiali bo'lmadi.

"Qayta qurish" siyosatchilarining fikricha jamiyatni doimiy o'zgaradigan va rivojlanadigan ehtiyojlariga moslashadigan ilmiy-texnika inqilobi yutuqlarini samarali o'zlashtirishiga qobiliyatlari va ijodiy tashabbusni har qanday ko'rinishiga tez javob beradigan bo'lishiga olib kelishi lozim edi. Shu munosabat bilan 1987-yil yozidan taniqli iqtisodchilar taklif qilgan iqtisodiy tadbirlar majmuasi amalga oshirila boshlandi. Ular shakkantirgan "xo'jalik hisobi sotsializmi" konsepsiysi iqtisodiy tizimni qat'iy o'zgartirmay SSSR xo'jalik mexanizmini yanada samarali qilishga qaratilgan edi. Iqtisodiy islohotlarning bunday oxirigacha pishitilmagan dasturlari, M.Gorbachyov ma'muriyati qayta qurishning birinchi bosqichida iqtisodiy siyosatini izchil bo'lmagani va chala-yarimligi mamlakat xalq xo'jaligi kompleksi turli sektorlari o'rtasidagi mutanosiblikni kuchaytirdi.

Xo'jalik organizmiga sovet hokimiyyati yillarda o'rnashib qolgan bunday illatlar yoki to'g'anoq mexanizmi[14] O'zbekiston iqtisodiyotiga yana ham ko'proq zarar yetkazardi. Yo'l qo'yilgan qo'pol xatolar, nuqsonlar, madaniy xo'jalik yuritish prinsiplarining to'g'ridan to'g'ri buzilishi natijasida iqtisodiyot olg'a tomon siljishida eng muhim bo'lgan yo'nalishlar barbod bo'la boshlad. Bu sovet jamiyatida boshlangan qayta qurish siyosatining dastlabki bosqichida muayyan bir o'zgarish sezilmadi, ittifoqdosh milliy respublikalar, shu jumladan O'zbekistonda yuzaga kelgan vaziyat tangligicha qoldi. Sanoat ishlab chiqarish sohasida ham tanglik va pasayish yaqqol ko'rindi. Masalan, 1986-yilda O'zbekistondagi 321 ta korxona va tashkilotlar rejsada ko'rsatilgan vazifalarni bajara olmadidi. 347,7 mln. rubl miqdordagi mahsulot yetkazib berilmadi. 225 ta eng muhim mahsulot turlaridan 86 tasi bo'yicha davlat rejsasi bajarilmay qoldi[15]. Jadallashtirish natijasida yillik rejani ortig'i bilan bajargan korxonalar mahsulotlari ham talab darajasida sifatli bo'lmagani uchun sotilmay qoldi.

Mustaqillik arafasida O'zbekistondagi 1500 ta sanoat korxonasidan 900 dan ortig'i texnik jihatdan qayta qurish va rekonstruksiya qilishni talab qiladigan darajaga yetdi. Bu respublikada oliy sifat kategoriyasi talabiga javob beruvchi mahsulot turlari o'shining sust borishiga olib keldi. Bu muammoni hal qilish maqsadida mahsulotning davlat qabuli

joriy etildi. 1987-yilda davlat qabuli joriy etila boshladi. 1987-yilda davlat qabuli sharoitida ishllovchi korxonalarda yaroqsiz chiqarilgan mahsu-lotlar hajmi 833 ming rubllikni tashkil etdi. Davlat qabuli joriy etil-gan 33 ta korxonada har oyda o'rta hisobda 0,9 mln. rubllik mahsulot qabul qilinmas edi[16]. 1988-yilda ishlab chiqarishning umumiyligi hajmida atigi 10 foiz mahsulot oliv sifat kategoriyasi talabiga javob bergan. Ittifoq bo'yicha esa bu ko'rsatkich shu davrda 15 foizni tashkil qilgan[17]. 1989-yilda birgina Toshkent shahri bo'yicha ishlab chiqarilgan 33 mln. rubllik mahsulotlar sifatsiz deb qabul qilindi. Bunday qonun buzilishlar respublikaning yetakchi korxonalarini hisoblangan "Foton", "Mikond" ishlab chiqarish birlashmalarida, Toshkent traktor, "Tashselmash" zavodlarida, shuningdek, oziq-ovqat va go'sht-sut sanoatida ham keng yoyildi[18].

Qayta qurish siyosati tajribasi O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi chinakam islohotchilik mazmuniga ega bo'lindi. Agrar ishlab chiqarishning moddiy-tekhnika bazasini mustahkamlash sohasidagi kuch-g'ayratlar ham, keng miqyosda irrigatsiya-melioratsiya ishlarini tashkil etish ham, kadrlarga doir hukommalarini hal qilish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar majmui ham qishloq xo'jaligining batakror rivojlanishini ta'minlay olmadi. Nisbatan ozgina yuksalishdan keyin yana muqarrar tanazzul boshlanar edi. Buning sababi agrar sohada hukmron bo'lgan ishlab chiqarish iqtisodiy munosabatlarning xarakterida bo'lди. 1989-yil boshlarida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti, hatto o'rtacha yillik darajaga ham bormadi. 3 mlrd miqdorida mahsulot berilmay qoldi. Faqat 1986-1987 yillarda mobaynida yetkazib berilmagan paxtaning miqdori 1,5 mln. tonnadan ortiq bo'lди. Asosiy dehqonchilik ekinlarining hosildorligi barqaror pasayib bordi, go'sht, kartoshka, uzum, meva, paxta kabi mahsulotlarni yetishtirish va tayyorlash rejalarining bajarilmay qolishi an'anaga aylanib qoldi[19].

Ayniqsa, meva-sabzavot yetishtirish, qayta ishslash va saqlash sohasidagi muammolar keskin tus oldi. Xo'jalik yuritishdan manfaatdorlikning yo'qligi natijasida serharajat iqtisodiyot shakllandi. Omborxona va sovitish xonalarining, meva va sabzavotlarni qayta ishslash sexlarining yetarli emasligi, mavjudlarining esa talabga javob bermasligi oqibatida dalalarda yetishtirilgan hoslilning chorak qismi iste'molchilar dasturxonaga yetib bormadi. Eng achinarli holat respublikadagi ekologik holatda ham yaqqol ko'zga tashlandi. Jumladan, mustaqillik arafasida respublikada shahar ekoliyasingning juda murakkab tus olganligini respublika sanoat korxonalarida yiliga qariyb 1,2 mln tonna, avto

transportdan esa 2,2 mln tonna zaharli chiqindi va moddalarning shahar havosini bulg'ayotganligi tasdiqladi. Shaharlarning deyarli hammasida havoning iflosolanish darajasi sanitariya talablariga javob bermadi. Jumladan, 1989-yilda respublika sanoat korxonalaridan havoga 1337 ming tonna chiqindi chiqarildi[20]. Shularning natijasi farqli o'laroq, markaziy qat'iy yo'l yo'riqlari asosida xalq xo'jaligi yuritishning shakllangan tizimi respublikaning turli hududlarida ekotizimning imkoniyatlari va shart-sharoitlari bilan keskin nomutanosibligi oqibatida bir qator ijtimoiy-ekologik muammolar yuzaga keldi. Ekologik muvozanat buzilib, suv tanqisligi, atmosfera, yer va suv resurslarining iflosolanishi kuchaydi.

Uzoqni ko'zlamay suv resurslaridan foydalanishga haddan tashqari zo'r berilishi Amudaryo va Sirdaryo suv resurslarining kamayishiga va oxir oqibat eng katta ekologik muammollardan biri – Orol fojiasining kelib chiqishiga sabab bo'lди. Faqat 1975-1985 yillarda 1 million getktarga yaqin yangi yer maydonlari o'zlashtirildi. 1990-yilga kelib sug'oriladigan yer maydoni 1985-yildagiga qaraganda 1,5 baravar ko'paydi[21]. Bu albatta, Orol dengizining qonuniy ulushi bo'lgan Amudaryo va Sirdaryoning suv resurslari hisobiga yuz berdi.

**Xulosa.** Xullas qayta qurish yillari siyosiy faoliyatning faollashuvni natijasi davlat arboblari, milliy elitalar, partiya doiralari, ittifoq respublikalari parlamentlarida manfaat va ta'sir guruuhlari shakllanishi bo'lib, ularning qarorlari va harakatlari SSSR parchalanishiga ko'p jihatdan katta hissa qo'shti. 1990-1991 yillarda mamlakatda hukmronlik qilgan klassik dual hokimiyat uzoq davom etmadidi. Ittifoqning kuchsizlanishi tufayli hokimiyatni yo'qotayotgan KPSS va Ittifoq ichida rasman "muxolifat" vakili bo'lgan demokratlar respublikalarda hukmron kuchga aylandilar. Yagona davlatning parchalanishi kuchaydi.

Shu bilan bir vaqtda, ittifoqdosh respublikalar bilan iqtisodiy aloqalar ham uzelib, yarim asrдан ko'proq davr ichida shakllangan xo'jalik aloqalari izdan chiqdi. Markaz chiqargan rubbling qadri butunlay tushib ketib, iqtisodiy aloqalar natural mollar ayirboshlash asosida iqtisodiy resurslarni olishga intilar, o'zlaridagi boyliklarni tashqariga chiqishiga tish-tirnog'i bilan qarshilik qilar edilar. Natijada barcha respublikalar, jumladan, O'zbekiston ham 1991-yildan boshlab markazga bo'ysunmaslik, o'z milliy manfaatlariiga e'tibor bergen holda siyosat yuritshga o'tdi. Respublikalarning "suverenitet paradi" boshlandi.

## ADABIYOTLAR

- Балакайн Ю.В., Петров А.И., Сорокин Ю.А. Очерки по отечественной истории. – Омск: Омский гос. ун-т, 1999. – С. 358.
- Каранг: КПСС Марказий Комитети Бош котиби ўртоқ Ю.В. Андроповнинг КПСС Марказий Комитети пленумида 1983 йил 15 июня сўзлаган нутқи // Совет Ўзбекистони. 1983, 16 июнь.
- Каранг: Ситников В. В центре внимания – усиление требовательности к кадрам // Партийная жизнь. – М., 1984. – № 8. – С. 47.
- Яник А. История современной России: Истоки и уроки последней российской модернизации (1985-1999).-Москва: Фонд современной истории, 2012.-С. 65
- История Коммунистической партии Советского Союза. – Москва. Политическая энциклопедия, 2013. – С.9.
- Сахаров А.Н., Боханов А.Н., Шестаков В.А. История России с древнейших времен до наших дней. Учебник.-Москва. Проспект, 2015.-С. 725.
- Стенографический отчет заседания Пленума ЦК КПСС. 27-28 января 1987 года. РГАНИ, фонд 2, опись 5, д. 45. Интернет: <http://gaidar-arc.ru/databasedocuments/years/1987>.
- Пихоя. Р. Советский Союз: история власти. 1945–1991. Изд. второе, исправленное и дополненное. - Новосибирск: Сибирский хронограф, 2000.-С. 633.
- Безбородов А., Елисеева Н., Шестаков В. Перестройка и крах СССР. 1985-1993.- Санкт-Петербург, 2010.- С. 61.
- Сахаров А.Н., Боханов А.Н., Шестаков В.А. История России с древнейших времен до наших дней. Учебник. – М.: Проспект, 2015. – С. 726.
- Абдунабиев А. Многопартийность – форма политической организации общества. – Ташкент: Узбекистан, 1991. – С. 77.

12. Сахаров А.Н., Боханов А.Н., Шестаков В.А. История России с древнейших времен до наших дней. Учебник.-М.: Проспект, 2015.-С. 725.13.
13. Известия. 1 июля 1987 года.
14. Аксенов Ю. Тўғаноқ механизми ва революцион қайта қуриш // Совет жамияти тарихи саҳифалари. Фактлар, муаммолар, одамлар. –Тошкент: Ўқитувчи, 1991. –Б. 412-422.
15. Ўз МА. Ф-837, 41-рўйхат, 7159-иш, 11-варақ.
16. Правда Востока. 28 июля 1987 года.
17. Ўзбекистон тарихи. (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. – Тошкент: O'ZBEKISTON, 2019. - 429 бет.
18. Ўзбекистон тарихи. (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. – Тошкент: O'ZBEKISTON, 2019. - 430 бет.
19. Ўзбекистон тарихи. (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. – Тошкент: O'ZBEKISTON, 2019. - 430 бет.
20. Рахматов Н. Экология: далил ва ракамлар // Фан ва турмуш. – Тошкент: 1990. - №7. - Б.14.
21. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсагасида: хавфсизликка таҳдид, барка-рорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари.-Тошкент: Ўзбекистон, 1997. - Б. 119.